

Ibtido va Intiho

# QONUNLAR

14ta dars



Rajab va Laylo Oydin

Ibtido va Intiho

# QONUNLAR

14ta dars



Rajab va Laylo Oydin



**KITABI-KNIGI.COM**

Butun oila uchun bepul elektron kitoblar.  
Istagan qurilmangizga o'z tilingizda yuklab  
oling va o'qing.



**KITABI-KNIGI.COM**

Mualliflik huquqlari © 2025 Alfa va Omega tashkilotiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan.  
*alphaomegasilkroad@gmail.com*

© 2026 for Uzbek (Latin) edition.  
Translated by permission. Barcha huquqlar himoyalangan.

© 2025 Kitobdagi suratlar Jim tomonidan chizilgan. Barcha mualliflik huquqlari himoyalangan.

Muqaddas Kitob oyatlari o'zbek tarjimasidan olingan, mualliflik huquqlari IPB tashkilotiga qarashli. Ilk bor 2016 yilda Belorusiyada nashr qilingan. *www.ibt.org.ru*

# Biz Qonunlar kitobini nima sababdan o'rganishimiz kerak?

Qonunlar kitobi Eski Ahd ta'limoti uchun poydevor hisoblanadi. Mazkur kitobning ta'sirini biz Eski Ahddagi barcha payg'ambarlarning bitiklarida, ayniqsa Yeremiyo payg'ambarning kitobida kuzatishimiz mumkin. Shohlar kitoblarida (masalan, 2-Shohlar 22:8 da), Zabur va Hikmatlarda ham uning ta'sirini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Iso Masih Eski Ahddagi boshqa kitoblardan ko'ra, ko'proq Qonunlar kitobidagi so'zlarni iqtibos qilib keltirgan (masalan, Matto 4:1–11; 5:33; 19:18–19).

Yangi Ahd matnida ham Qonun kitobidan ko'plab oyatlar va iqtiboslar berilgan.

Qonunlar kitobidagi xabar Eski Ahd davrida yashagan Isroilliklar uchun yozilgan bo'lsa-da, bugungi kunda yashayotgan hamma odamlar uchun ham yuksak ahamiyatga ega. Biz bu kitobni o'rganar ekanmiz, Xudoyimizning Kim ekanligini va U biz uchun nimalar qilganini tushunib, bilimda o'sib boraveramiz.

Ushbu darsligimiz 14 ta darsdan tashkil topgan bo'lib, Qonunlar kitobi bilan yaqindan tanishishingizga yordam beradi!

Agar siz Muqaddas Kitobning asoslarini o'rgatuvchi «Alfa va Omega» kursini o'tmagan bo'lsangiz, ushbu darslikdan oldin «Alfa va Omega» kursini o'rganishni tavsiya qilgan bo'lardik.

Har bir darsimiz tarkibida siz javob berishingiz kerak bo'lgan ko'plab savollar mavjud. Har bir savoldan keyin, qavs ichida son berilgan, siz savolga to'g'ri yoki noto'g'ri javob berganingizni tekshirish uchun, dars oxirida ilova qilingan to'g'ri javoblar bor. Savol va javobning soni bir xil. Lekin savolga o'zingiz javob berganingizdan keyingina, o'z javobingizni berilgan to'g'ri javob bilan solishtiring.

Har bir darsda Muqaddas Kitobning boshqa qismlaridan keltirilgan oyatlar mavjud. Agar oyatlar **qalin harflar** bilan yozilgan bo'lsa, ularni albatta Muqaddas Kitobdan topib, o'qishingiz kerak. Agar oyatlar qalin harflar bilan ajratilmagan bo'lsa, oyatlarni vaqtingiz bo'lganida topib o'qishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

«Qo'shimcha ma'lumot» qismlari bobdagi mavzuni yanada chuqurroq o'rganmoqchi bo'lganlar uchun mo'ljallangan. Siz ularni dars davomida o'rganishingiz yoki uy vazifasi tariqasida bajarishingiz mumkin.

Siz ushbu ajoyib kitobni zavq olib o'rganishingizni, undagi haqiqatni boshqalar bilan baham ko'rishingizni Xudodan tilab qolaman!



Qonunlar, 1-dars:

# Payg'ambar va Xudoning va'dasi



## Kirish

### Ma'lumot

Qonunlar kitobi Xudo Muso payg'ambar orqali Isroil xalqiga yetkazgan bebaho xabarlardan tashkil topgan. Kitobdagi bu xabarlarni Muso payg'ambar Isroil xalqiga Kan'on yurtiga kirishlaridan oldin aytgan. Xudo Kan'on yurtini O'z xalqiga mulk qilib berishga va'da qilgan edi.



Kan'on yurti haqidagi ma'lumotlarni biz Ibtido, Chiqish va Sahroda kitoblarida o'qishimiz mumkin.

Quyidagi gaplarni o'qing, so'ng kitobga qaramay ularni aytib bering:

- Xudo butun borliqni yaratdi, U ikkita inson — Odam Ato va Momo Havoni ajoyib qilib yaratdi.

- Shayton ularni vasvasaga soldi, ular Xudoga itoatsizlik qilishdi.
- Shu sababdan Xudo ularni O'z huzuridan quvib chiqardi. Natijada Xudoning barakasidan va abadiy hayotdan mahrum bo'ldilar.
- Oradan ko'p yillar o'tdi. Xudo Kan'on yurtining sharqida yashagan Ibrohimga O'zini ayon qildi. U qarib qolgan, farzandsiz, yeri yo'q Ibrohimga quyidagilarni va'da qildi:
  - Sendan buyuk bir xalq bunyod qilaman.
  - Avlodingga Kan'on yurtini mulk qilib beraman
  - Sen orqali jamiki xalqlarga baraka beraman.
- Biroq Ibrohimning avlodlari dahshatli qahatchilikdan omon qolishlari uchun Misrga ko'chib bordilar. Xudo buni va'da QILMAGAN EDI. Misrda ular qul bo'ldilar.
- Shunda Xudo ularni Misrdagi qullikdan olib chiqish uchun Musoni yubordi. Qullikdan najot Eski Ahd davrida Xudoning xalqi uchun eng muhim hodisa hisoblanadi. Bu najotning nomi **chiqish** edi.

Ushbu hodisa haqida siz Ibtido kitobida va Chiqish kitobining 1–19-oyatlarida o'qishingiz mumkin.

Qonunlar kitobida esa Xudo Isroil xalqini O'zi va'da qilgan yurtga olib kirishi haqida yozilgan.

## 1. Ahd

Qadimgi davrlarda shohlar o'zlari zabt etgan shohliklar bilan o'zaro kelishuv yoki ahd tuzishardi. Qonunlar kitobi ham Xudo va Uning xalqi orasidagi ahddir. Ushbu ahd beshta asosiy qismdan iborat:

1. Tarixiy sahna (Qonunlar 1:1–4:49)
2. Ahdning asosiy shartlari (Qonunlar 5–11-oyatlar)
3. Zabt etilgan xalqlarga oid ko'rsatmalar (Qonunlar 12–26-oyatlar)
4. Barakalar va la'natlar (Qonunlar 27–28-boblar)
5. Guvohlar (Qonunlar 30:19–31:19, 32-bob)

Demak, Qonunlar kitobi Xudoning O'z xalqi Isroil bilan tuzgan ahddir. Xudo Isroil xalqining Shohi bo'ldi (Qonunlar 33:5). Ushbu kitobda Isroil xalqi Xudoning shartlari va talablari bilan tanishadi.

## 2. Geografiya

Qonunlar kitobining dastlabki uchta bobida Isroil xalqining sahrodagi safari juda batafsil tasvirlangan. Ko'pdan ko'p joylar tilga olingan. Aynan shu sababdan ham, kitobda tilga olingan voqealar haqiqatan ham yuz berganini bilamiz. Bu boblarning tub ma'nosini anglab olishimiz uchun, bu joylarning qayerda joylashganini bilishimiz shart emas. Muhim joylarni biz xaritada ko'rsatib qo'yganmiz.

Mana endi, biz darsimizni boshlashga tayyormiz!

## Payg'ambar va xudoning va'dasi

Ushbu birinchi darsimizda biz quyidagilarni o'rganamiz:

- Eski Ahddagi eng muhim payg'ambar va Xudoning va'dasi.

- Yangi Ahddagi eng muhim payg'ambar va Xudoning va'dasi.

Kelinglar, Eski Ahddan boshlaylik.

## Eski Ahddagi eng muhim payg'ambar, bu — Muso payg'ambar.

**Qonunlar 1-bob, 1–5-oyatlarni** o'qing.

Bu oyatlarda biz Musoning beshta xislatini payqashimiz mumkin:

### 1. Muso Xudoga tayanadi

Muso **Chiqish kitobi 4-bob, 10-oyatda** o'zi haqida nima deb aytdi? [1]

Xudo Musoga **4-bob, 11–12-oyatlarda** nima deb javob berdi? [2]

Buning natijasini biz Qonunlar kitobida ko'ramiz! Xudo Musoni sadoqatli notiq qildi, u Xudoning so'zini aniq va tushunarli qilib xalqqa yetkazdi. Xudo Musoning kamchiligiga qaramay, u orqali buyuk ishlar qildi, O'z xalqini Misrdagi qullikdan olib chiqib, va'da qilingan yurtida istiqomat qilish uchun tayyorladi. Muso har bir vaziyatda Xudoga tayanardi (Qonunlar 34:10).

### 2. Yaxshi o'qituvchi

Qonunlar kitobining 4-bob, 1-oyatida Muso kimga murojaat qilyapti? [3]

Muso payg'ambar faqat yo'l boshchilarga emas, balki **butun** Isroil xalqiga murojaat qilmoqda. Bu degani, Musoning nutqi barcha odamlarga qaratilgan! Demak, Qonunlar kitobi nafaqat yo'l boshchi va yetakchilar uchun, balki hamma imonlilar uchun juda muhim kitob hisoblanadi.

4-bob, 2-oyatga ko'ra Musoning ta'limotini bizga Kim bergan? [4]


Muqaddas Kitob tarkibidagi barcha so'zlar ilohiy bo'lib, inson orqali berilgan.

5-oyatda Muso nima deb aytmoqda? [5]

Muso Xudoning so'zini odamlarga o'rgatibgina qolmay, ularning ma'nosini tushuntirib berardi. Xalq Xudoning so'zini bilishi va ma'nosini anglashi shart edi. Muso juda yaxshi o'qituvchi va muallim edi.

### 3. Xudo Shohligining sadoqatli voizi

Xudoning payg'ambari sifatida Muso xalqni o'z Shohi — Xudoga (Qonunlar 33:5) sadoqatli bo'lishga undardi. Zotan, Xudo ularni qullikdan qutqargan edi. Shu bois, sadoqat mavzusi Qonunlar kitobida markaziy o'rin tutgan. Isroil xalqi Xudoning mulki edi. Aynan shuning uchun ham xalq Xudoga itoat qilishi muhim edi!



Qonunlar kitobining 1-bob, 1-oyatida Muso nutqini xalqqa qayerda aytgan edi? [6]

Bu joyni yuqoridagi xaritadan toping.

Muso bu nutqini aytganida Misrdan chiqqanlariga necha yil bo'lgan edi (Qonunlar 1:3)? [7]

Sinay tog'idan Kadesh-Barnagacha bo'lgan yo'lga odatda qancha vaqt ketar edi (1:2)? [8]

11 kunlik yo'lga 40 yil ketdi-ya! Itoatsizlikning bahosi ana shudir! Xalq itoatsizlik qilgani uchun sahroda 40 yil sarson-sargardon bo'ldi.

**Qonunlar 30:16**ni o'qing. Agar xalq Xudoga itoat qilsa, buning natijasi qanday bo'ladi? [9]

**Qonunlar 30:17–18**ni o'qing. Agar xalq Xudoga itoat qilmasa, buning natijasi qanday bo'ladi? [10]

Eski Ahd qiziqarli voqealarga juda boydir! Eski Ahdda biz quydagilarga guvoh bo'lamiz:

- Xudoning xalqi Xudoga ko'p itoatsizlik qilgan.
- Xudo doimiy tarzda O'z xalqi bilan munosabatini tiklagan.

Xudo haqiqatan ham rahmdil va inoyatli Xudodir! Qonunlar kitobida Muso doimo buni xalqiga eslatib turadi.

Muso odamlarga ilohiy Shohga itoat qilishni doimiy tarzda eslatib turadi, Xudo Shohligining sadoqatli fuqarolari bo'lishga ularni chaqiradi.

**Xudoning Eski Ahddagi eng muhim va'dasi, bu — va'da qilingan yurtidir**

**Qonunlar 1-bob, 6–8-oyatlarni** o'qing.



Xaritadan quyidagi joylarni toping:

- Sinay tog'i (Qonunlar kitobida bu tog' Xorev tog'i deb ham nomlangan)
- Amor xalqining qirlari
- Iordan vodiysi
- G'arbdagi qir etaklari
- Nagav
- Lubnon
- Furot daryosi

Muso tug'ilishidan 500 yil oldin Xudo Ibrohim payg'ambarga, naslingga Kan'on yurtini beraman, deb va'da qilgan edi (Ibtido 15:18–21). Nihoyat, Xudo Ibrohimning nasliga va'da qilgan yurtni berishga tayyor.

Qonunlar kitobi 1-bob, 6-oyatda Muso Sinay tog'idagi vaqtni esga olmoqda (Sinay tog'i Xorev, deb ham atalardi). Bu voqea Muso nutqini aytishdan va Qonunlar kitobi yozilishidan 40 yil oldin yuz bergan edi.

40 yil oldin Xudo xalqqa nima qilishni buyurgan edi (1:7)? [11]

Qirq yil oldin Xudo O'z xalqiga va'da qilingan yurtga kirishni amr qilgan edi. Lekin ular u yerga borishdan bosh tortdilar, biz bu haqda keyingi darsda o'qiyimiz. Xudo xalqqa ajoyib, farovon yurtni bergan edi, biroq ular o'sha yurtga kirishni istamadilar!

## Yangi Ahd

Dars davomida biz quyidagilarni bilib oldik:

- Eski Ahddagi eng muhim **payg'ambar**, bu — Muso. Uning vazifasi xalqni ilohiy Shohi bo'lgan Xudoga itoat qilishga chaqirish edi.
- Eski Ahddagi eng muhim **va'da**, bu — va'da qilingan yurt. Bu va'da faqat Isroil xalqiga berilgan, ular itoatkorlik orqaligina uni qo'lga kiritishlari mumkin edi.

Kelinglar, endi Yangi Ahddagi eng muhim payg'ambar va eng muhim va'da bilan tanishib chiqaylik.

## Yangi Ahddagi eng muhim payg'ambar

**Ibroniylar 1:1–2**ni o'qing. Yangi Ahddagi eng muhim payg'ambar kim? [12]

U ham Muso singari Xudoning payg'ambari bo'lgan (Mark 6:4):

- U Xudoning so'zlarini gapirardi (Yuhanno 8:28)
- U juda yaxshi O'qituvchi edi (Matto 7:28)
- U Xudoning Shohligini e'lon qilardi (Luqo 8:1)

Muso Iso Masih haqida bashorat qilib, shunday so'zlarni aytgan edi:

*«Egangiz Xudo sizlar uchun o'z xalqingiz orasidan menga o'xshagan bir payg'ambar chiqaradi. Unga quloq solinglar»* (Qonunlar 18:15).

Hosil bayrami kuni Butrus o'z nutqida va'da qilingan Masih, aynan Iso ekanligi haqida gapiradi, Muso ham u haqda bashorat qilganini aytib o'tadi (Havoriylar 3:20–22).

Yuhanno bayon etgan Xushxabarda Iso Unga ishonmaganlar haqida shunday deydi: *«Agar Musoga ishonganingizda edi, Menga ham ishongan bo'lar edingizlar. Axir, u Men haqimda yozgan edi»* (Yuhanno 5:46).

Xudo Muso orqali O'z xalqiga juda muhim bir KIMSA kelayotgani haqida aytgandi. Shu tariqa, Eski Ahd bizni dunyo tarixidagi eng muhim payg'ambarning kelishiga tayyorlamoqda.

## Yangi Ahddagi eng muhim va'da

**Yuhannoning birinchi maktubi 2:25**ni o'qing. Xudo bizga Yangi Ahdda bergan eng muhim va'da nima? [13]

Xudo bizga O'zining va'da qilingan yurtidagi, ya'ni Yangi Quddusdagi abadiy hayotni va'da qilgan!

**Yuhanno bayon etgan Xushxabar 1:12**ni o'qing. Biz Xudoning abadiy hayot haqidagi va'dasini qabul qilishimiz uchun nima qilishimiz kerak? [14]

Biz faqat Iso Masih orqaligina Xudoga yaqinlashishimiz mumkin (Yuhanno 14:6).

Biz sovg'ani qabul qilmagunimizcha, u bizniki bo'lmaydi. Kelinglar, Isroil xalqiga taqlid qilmaylik, axir, ular Xudoning ajoyib sovg'asini rad etgan edilar!

Eski Ahdda Xudo Muso payg'ambar orqali xalqini va'da qilgan yurtning chegarasiga olib kelgan edi, shundan keyin Muso bu dunyodan ko'z yumdi. Boshqa yo'l boshchilar xalqni va'da qilingan yurtga olib kirdilar va ularni boshqardilar. Yangi Ahdda esa Iso Masihning O'zi bizni abadiy maskaniga olib kiradi va to abad biz bilan birga qoladi (Yuhanno 14:1–6). Muso payg'ambardan va Isroilliklarga va'da qilingan yurtdan farqli o'laroq, Iso Masihning O'zi bizni abadiy maskaniga olib kiradi va biz bilan to abad qoladi!

Biz ham Isroil xalqi singari va'da qilingan abadiy hayot sari qadam tashlamoqdamiz! Bizning Isroil xalqidan farqimiz shundaki, biz boradigan yurt mukammal va abadiydir (Vahiy 21:1–4)!

Sizning abadiy hayot sari safaringiz Isroil xalqining va'da qilingan yurtga bo'lgan safaridan ikki jihatni bilan farq qiladi. Bu ikkita jihatni ayting. [15]

## Qo'shimcha ma'lumot: Nega Isroil xalqi va'da qilingan yurtga kirish uchun uzoq vaqt kutdi?

1. Xudoning xalqi (ya'ni Ibrohimning avlodlari) Yusuf davrida Misrga ko'chib borganlarida necha kishi edilar (**Ibtido 46:27**)? [16]

Ular Kan'on yurtini to'ldira olmas edilar!

Xudoning xalqi Misrdan chiqib ketganida, ularning soni qanchaga yetdi (**Sahroda 1:46**)? [17]

Agar biz bu songa ayol va bola-chaqalarni qo'shsak, qariyb 2 million odam bo'ladi! Mana, endi ularning soni va'da qilingan yurt uchun yetarlicha bo'ldi!

2. Nega Amor xalqi Kan'on yurtini qo'ldan boy berdi? **Ibtido 15:16**ni o'qing. [18]

Xudo Amor xalqiga ko'p sabr-toqat qildi. Ular tavba qilishlari uchun, ularga keragidan ortiq vaqtni berdi. Ularning qabihligi haddan oshib ketganidan keyingina, Xudo ularni yo'q qildi.

## Chaqiriq

Muso payg'ambar biz uchun a'lo namunadir! Uning tili chuchuk bo'lsa ham, u juda yaxshi muallim va yetakchi bo'ldi! Albatta, bizning so'zlarimiz Muqaddas Kitob tarkibiga kiritilmaydi. Zero, Xudoning Kalomi mukammal va uni o'zgartirib bo'lmaydi. Lekin odamlar Xudoning aytgan so'zlarini eshitishlari kerak. Biz odamlarga Xushxabar aytishimiz uchun gapga chechan, donishmand suxandon bo'lishimiz shart emas.

Yangi Ahdda, hattoki, havoriy Pavlusning o'ziga yetarli ishonchi bo'lmagan! U Korinfliklarga shunday so'zlarni yozgan: «*Oldingizga zaiifligu qo'rquv hissi bilan titrab bordim. Men sizlarga Xushxabar aytib, va'z qilganimda, donolik qilib ishontirishga urinmadim, balki Xudoning Ruhi va qudratiga asoslandim*» (1-Korinfliklarga 2:3–4).

Keyinchalik u yana shunday yozdi: «*Shu sababdan Masih haqi o'jizlikni... shodlik bilan qabul qilaman. Ayniqsa, o'jiz bo'lgan paytimda Masihning qudrati bilan kuchli bo'laman*» (2-Korinfliklarga 12:10).

Kelinglar, Muso payg'ambar va havoriy Pavlusdan o'rnak olaylik.

Bizning vazifamiz qo'yidagicha:

- **Xudoga tayanish:** Biz ibodat qilib, Muqaddas Ruhdan yaqinlarimizning va do'stlarimizning ko'zlarini haqiqatga ochishini so'rashimiz kerak.

- **Yaxshi o'qituvchilar bo'lishimiz:** Biz yaqinlarimizga Xudo O'zini Masih orqali qanday namoyon qilganini o'rgatishimiz kerak.
- **Xudoning Shohligini e'lon qilishimiz kerak:** Biz yaqinlarimizga Muqaddas Kitobni o'qishni va Xudoning amrlariga rioya qilishni o'rgatishimiz kerak.

Biz odamlarga buyuk Xudoyimiz haqida aytar ekanmiz, Muqaddas Ruh bizga Xushxabar in'omini rivojlantirishimizga yordam beradi.

Muso payg'ambar va havoriy Pavlusning qaysi jihatlaridan biz namuna olishimiz mumkin? [19]

Siz bu darsni kimga o'rgata olasiz?

**Xudo bu dars orqali sizga nima dedi?**

**Siz bugun bularni kimga aytishingiz mumkin?**

## Uyga vazifa

Navbatdagi darsga tayyorlanib, **Qonunlar 1:6–3:11**ni o'qing.

## Javoblar

- 1 – Muso Xudoga shunday degan: «Men hech qachon gapga chechan bo'lmaganman... tilim chuchuk, sekin gapiraman».
- 2 – Xudo Musoga: «Gaplashganingda, Men sen bilan birga bo'laman. Nimani gapirishingni Men senga o'rgatib turaman», — deb javob bergan edi.
- 3 – Butun Isroil xalqiga.
- 4 – Musoning ta'limoti Egamiz tomonidan berilgan.
- 5 – Muso Xudoning farmonlari va qonun-qoidalarini xalqqa **o'rgatmoqda**.
- 6 – Muso nutqini Iordan daryosining sharq tomonidagi cho'lda aytgan edi.
- 7 – Misrdan chiqqandan keyin qirqinchi yilda.
- 8 – Sinay tog'idan Kadesh-Barnagacha o'n bir kunlik yo'l.
- 9 – Agar xalq itoat qilsa, Xudo shunday va'da bergan: «...sizlar yashaysizlar, ko'payasizlar, mulk qilib oladigan yurtingizda Egangiz Xudo sizlarga baraka beradi».
- 10 – Agar xalq itoat qilmasa, Xudo shunday degan: «...sizlar albatta yo'q bo'lasizlar. Iordanni kechib, mulk qilib oladigan yurtda ko'p yashamaysizlar».
- 11 – Ular va'da qilingan yurtga kirishlari kerak edi.
- 12 – Xudoning O'g'li Iso Masih.
- 13 – Xudo bizga abadiy hayotni va'da qildi.
- 14 – Biz Iso Masihni qabul qilishimiz va Unga imon keltirishimiz kerak.
- 15 – Iso Masihning O'zi bizni abadiy maskaniga olib kiradi va biz bilan to'ab qoladi. Biz boradigan o'sha yurt mukammal va abadiydir.
- 16 – Yetmish nafar odam.
- 17 – Ularning soni 600 000dan oshiq edi.
- 18 – Amor xalqining qabihligi haddan oshib ketgani uchun, ular o'z yurtidan mahrum bo'ldilar.
- 19 – Ular odamlarga Xudo haqida aytishga qo'rqar edilar, lekin Xudo ularni buyuk o'qituvchi va muallim qilib yetishtirdi.

Qonunlar, 2-dars:

# Yo'lboshchilar va izdoshlar



Ushbu dars davomida biz quyidagilar haqida mulohaza qilamiz:

- Yaxshi yetakchilik sirlari
- Yaxshi izdoshlik sirlari
- Biz itoat qilishni qanday o'rganamiz

## Yo'lboshchilar

**Qonunlar 1:9–18**ni o'qing.

10–15-oyatlarga ko'ra, Muso payg'ambar qanday muammoga duch kelgan va uni qaysi yo'l bilan hal qilgan? [1]

**Mingboshi, yuzboshi, ellikboshi va o'nboshilar** (15-oyat): jangchilarga qo'mondonlik qiladigan harbiylar bo'lib, turli hajmdagi jangchi guruhlarni boshqarib, har xil vazifalarni bajarishardi.

**Nazoratchilar** (15-oyat): harbiy bo'lmagan amaldorlar bo'lib, xalqning manfaati uchun xizmat qilar edilar.


**Hakamlar** (16-oyat): amaldorlar bo'lib, adolatsizlik sodir bo'lganda adolat o'rnatish uchun mas'ul edilar.

Qonunlar kitobining 5-bobida va uning davomida Muso payg'ambar odamlarga Xudoning qonunlarini eslatadi. Xudo bu qonunlarni xalqqa 40 yil oldin Sinay tog'ida (Xorev degan nom bilan ham tanilgan) bergan edi. Yo'lboshchilar xalqni to'g'ri boshqarishlari va adolatga rioya qilishlari uchun **bu qonunlarni bilishlari va ularga amal qilishlari** kerak edi. Ular kambag'al va nochorlarga g'amxo'rlik qilishlari shart edi (Qonunlar 15:7, 24:14). Pora olish ularga man etilgandi. Ular boy-badavlat odamlardan qo'rqmasliklari kerak edi, hukmda ularga yon bosishlari, tarafkashlik, adolatsizlik qilishlari mumkin emasdi (Qonunlar 16:19).

Mingboshilar, yuzboshilar, nazoratchilar va hakamlar o'z vazifalarini to'g'ri bajarishlari uchun nima qilishlari shart edi? [2]

## Izdoshlar

**Qonunlar 1:19–28**ni o'qing.



19–21-oyatlarga ko'ra, Isroil xalqi qayerga yetib bordi? [3]

22–28-oyatlarda nima yuz berdi? [4]

28-oyatda qanday muammo paydo bo'ldi? [5]

**Qonunlar 29–46**ni o'qing.

29–30-oyatlarda Muso payg'ambar Isroil xalqiga nima deb aytdi? [6]

31-oyatda Muso Isroil xalqiga Xudoning g'amxo'rligini tasvirlagan, u Xudoni kimga o'xshatgan? [7]

Isroil xalqi Xudoga ishonish mumkinligini juda yaxshi bilardi. Ular Misrdan chiqqanlarida 2 million kishini tashkil qilishardi! Biroq 32-oyatga ko'ra, odamlar Xudoga ishondilarmi? [8]

Bunga ishonish qiyin! Xudo O'z xalqi uchun ko'p mo'jizalar qilgan edi: ularni ajoyibotlar orqali Misrdagi qullikdan olib chiqqan edi. Ularga sahroda yo'l ko'rsatib, boshlab borgandi. Kerakli ozuqalarni ularga yetkazib berardi. Biroq shularga qaramay, xalq Xudoga ishonmadi. Ular qo'rquvlarga berilib, Xudoning amrlariga itoat qilishmadi.

35–38-oyatlarda Xudo Isroil xalqiga nima dedi? [9]

Xalq bir marta itoatsizlik qilganidan keyin, ikkinchi marta itoatsizlik qilish ularga ancha oson bo'ldi. Isroil xalqining bir gunohi ikkinchi gunohga sabab bo'ldi. 41–46-oyatlarda xalq qanday ahmoqona ish qildi va buning natijasi nima bo'ldi? [10]

Ular mag'lub bo'ldilar, Xudoga faryod qildilar va eng yomoni, Xudo bilan munosabatni buzdilar.

Ko'rib turganimizday, Eski Ahd davrida yo'l boshchilardan ham, izdoshlardan ham sadoqat va itoatkorlik talab qilinardi. Yangi Ahdda ham talablar xuddi shundaydir!

## Yangi Ahd davridagi yo'l boshchilar

Xudo xalqining yo'l boshchilari Yangi Ahd davrida ham Muqaddas Kitobni yaxshi bilishlari, unga amal qilishlari va boshqalarga sadoqat bilan o'rgatishlari darkor (2-Timo'tiy 2:2).

**Mark 10:42–45**ni o'qing. Iso Masih shogirdlariga yetakchilar va boshliqlar haqida nima deb aytdi? [11]

**1-Butrus 5:2–3**ni o'qing. Havoriy Butrus jamoat yetakchilarini qanday so'zlar bilan tasvirlagan? [12]

### 1-Chaqiriq

Jamoat yetakchilari o'zlarini hukmdorlarday tutishlari kerak emas. Aksincha, nazoratidagi suruvga g'amxo'rlik qilishlari, ularga Xudoning sevgisida o'sishlariga, bilim orttirishlariga yordam berishlari darkor.

Muso bularning hammasini bir o'zi qila olmasligini tushungan edi. Shu singari, jamoat yetakchilari ham barcha vazifalarni o'zlari bajarishga tirishmasliklari kerak. Havoriy Pavlus Korinfliklarga birinchi maktubi 12-bobda jamoatni inson tanasiga o'xshatadi. Bu tana turli a'zolaridan iborat. Yaxshi yetakchi qo'li ostidagi odamlarda qanday in'omu qobiliyatlar borligini ko'radi. Ularga bu qobiliyatlarini jamoat va jamiyat manfaati uchun ishlatishlariga yordam va dalda beradi.

Agar siz yetakchi bo'lsangiz:

- Siz Muqaddas Kitobni o'rganishga, unga amal qilishga, uni boshqalarga o'rgatishga bag'ishlanganmisiz?
- Boshqalarni kamtarlik bilan boshqaryapsizmi? Ularga rahmdil cho'ponday xizmat qilyapsizmi?
- Jamoat a'zolariga Xudo bergan in'omlarni rivojlantirishlariga yordam beryapsizmi? Yoki hamma narsani o'zingiz qilishga tirishyapsizmi?
- Yuz-xotirchilik, tarafkashlik qilmay, hammaga birday dalda beryapsizmi (1-Timo'tiy 5:21)?

Bularning qaysi biri ustida ko'proq ishlashingiz kerak?



## Yangi Ahd davridagi izdoshlar

**Mark 8:34**ni o'qing. Bu oyatda Iso Masih shogirdlariga izdosh bo'lish haqida nimalarni aytmoqda? [13]

Jamoat a'zolari o'zlariga emas, Rabbimizga ulug'vorlik keltirishlari kerak. Ular qo'llaridan kelgancha, butun jamoat bilan birlik ruhida, Rabbimiz Isoning sodiq shohidlari bo'lishlari kerak. Biz hammamiz xizmat qilishga doim tayyor turishimiz shart.

## 2-Chaqiriq

Agar siz jamoat a'zosi bo'lsangiz:

- Siz imon bilan yashayapsizmi yoki qo'rquvga qulmisiz? Bu sizning hayotingizda o'z aksini topmoqdamiz?
- Siz jamoatingiz yetachilari uchun ibodat qilyapsizmi? Yoki shunchaki ulardan norozi bo'lib, shikoyat qilib yuribsizmi?
- Siz jamoat manfaati uchun xizmat qilishda o'z in'omu qobiliyatlaringizdan sidqidildan foydalanyapsizmi?

Bularning qaysi biri ustida ko'proq ishlashingiz kerak?

## Itoat qilishni o'rganish

Isroil xalqi Kan'on yurtini zabt etishini Xudo xohlagan edi.

### Nega Xudoning xalqi Kan'on yurtini zabt etishi kerak edi?

Ibtido kitobida Xudo Ibrohimni tanlaganini va undan maxsus bir xalq yaratganini o'qiymiz. Xudo Ibrohimga, Kan'on yurtini naslingga beraman, deb va'da qilgandi. Oradan 500 yil o'tdi. Xudo o'sha va'dasini bajarishga kirishdi.

Kan'on yurtida yashagan xalq o'ta qabih edi. Ular hatto o'g'il-qizlarini butlarga qurbonlik qilib kuydirishardi (Qonunlar 12:31). Xudo bu xalqlarni o'taketgan qabihliklari uchun yo'q qilishga qaror qildi.

Xudo Kan'on yurtini O'z xalqiga berib, ularni boshqalarga namuna qilmoqchi edi. Boshqa xalqlar Isroil xalqidan o'rnak olishlari, yashashda, donolik va aql-idrokda ularga taqlid qilishlari lozim edi. Shu orqali ular Xudoning ezguligini bilib, Uni tanib bilishlari kerak edi (Qonunlar 4:6–8).

Xudo bu yurtni aynan O'z xalqiga berishining boshqa bir sababi ham bor edi. Xudoning xalqi va'da qilingan yurtda yashab, Xaloskor Masihning kelishiga yo'l hozirlashi kerak edi. Xudoning O'g'li bu dunyoga kelib, odamzodni gunoh qulligidan, shayton va o'lim changalidan ozod qilishi lozim edi. Agar Xudoning xalqi va'da qilingan yurtda yashamaganida, Xudoning qonunlarini joriy qilib, ularga amal qilmaganida, hech kim Masihning Kimligini va U nimalar qilmoqchi ekanini tushunmagan bo'lardi.

Kan'on yurtining vayron bo'lishi insoniyat tarixida olamshumul bir voqea bo'ldi. Lekin biz bundan namuna olmasligimiz va boshqa davlatga bostirib bormasligimiz kerak!

Bugungi kunda va'da qilingan yurt yo'q. Biz uchib borishimiz kerak bo'lgan boshqa bir maskan ham bizga va'da qilinmagan. Masihiylar faqat ma'lum bir mamlakatda yashamaydilar, ular dunyo bo'ylab, barcha mamlakatlarda borlar!

Biz Iso Masihning qaytib keladigan kuniga ko'z tikkanmiz, U bilan birga samoviy yurtda — Yangi Quddusda bo'lish orzusi bilan yashamoqdamiz!

Keyingi parchaga o'tishimizdan oldin, xaritadan quyidagi joylarni toping:

- Edom (Edomliklar Yoqubning tug'ishgan akasi Esodan kelib chiqqanlar)
- Mo'ab (Mo'abliklar Ibrohimning jiyani Lutdan kelib chiqqanlar)
- Ommon (Ommonliklar ham Ibrohimning jiyani Lutdan kelib chiqqanlar)
- Zarad soyligi
- Arnon soyligi

**Qonunlar 2:1–13**ni o'qing.

Muso payg'ambar Isroil xalqiga 40 yil sahroda yurganlarida nimalar yuz berganini eslatadi. 40 yildan keyin Isroil xaqi Xudoga itoat qilishni o'rganmoqda!

**Qonunlar 2:24–37**ni o'qing.

Va'da qilingan yurt da zabardast, kuchli odamlar yashardi, ularning shaharlari osmono'par devorlar bilan o'ralgandi. 25-oyatga ko'ra, qanday qilib Isroil xalqi va'da qilingan yurtga kirishga muvaffaq bo'ldi? [14]

24-oyatga ko'ra, Isroil xalqi va'da qilingan yurtga kirishi uchun Xudoning qanday ko'rsatmalariga rioya qilishi kerak edi? [15]

Va'da qilingan yurt Xudodan sovg'a edi. Lekin xalq uni qo'lga kiritishi uchun jang qilishi kerak edi.

26–30-oyatlarda Muso Xashbon shohi Sixo'nga qanday mazmundagi maktubni yubordi? Shoh bu maktubga nima deb javob berdi? [16]

32–33-oyatlarda qanday voqealar yuz berdi? [17]

Isroil xalqi va'da qilingan yurt da erishgan birinchi g'alaba aynan shu edi! Ular bu g'alabadan o'zlariga katta saboq olishdi: Xudoga itoat qilish zafar keltirishini va Xudo O'z va'dasida sodiq ekanini ular o'rganib olishdi.


**Qonunlar 3:1–11**ni o'qing.

3-oyatga ko'ra, Xudo O'z xalqiga yana kim ustidan g'alaba ato qildi? [18]

Ular nechta shaharni qo'lga kiritishdi (4-oyat)? [19]

Bu olamshumul bir g'alaba edi!

Ular kimlarni yo'q qilishdi va nimalarni qoldirishdi (6–7-oyatlar)? [20]



Bu yurtda yashagan xalq o'ta qabih edi. Ular boshqalarni ham yo'ldan urmasliklari uchun Xudo ularning hammasini, bitta qoldirmay qirib tashlashni buyurgan edi (Muso bu haqda 7:3–4-oyatlarda gapirgan).

Jangda o'lja qilib olingan narsalar esa Xudodan xalqqa sovg'a edi. Shu yo'l bilan Xudo xalqining safardagi ehtiyojlarini qondirardi.

Xalq Xudoga itoat qilganda Xudo ularga g'alaba ato qilardi. Natijada xalqda, va'da qilingan yurtga albatta kiramiz, degan ishonch ortib borardi.

## Qo'shimcha ma'lumot: Shoh O'g

Shoh O'g Rafa xalqidan edi. Ular baland bo'yli, zabardast odamlar edilar (Qonunlar 2:20–21ga qarang).

U davrlarda faqat juda boy odamlarda temir bor edi. Shoh O'gning bo'yi basti juda baland bo'lgani uchun uning yotadigan o'rni juda katta bo'lib, termirdan yasalgan edi (*Tarjimondan izoh: faqatgina juda boy hukmdorlar o'zlari uchun temir karavot qildirishga qurbi yetardi. Shoh O'gning tobuti ham juda katta edi*). Isroil jangchilari zabardast shohni mag'lub qilgan edilar!



## Yangi Ahdda itoat qilishni o'rganish mavzusi

Eski Ahd davrida Isroil xalqiga Xudo yo'l ko'rsatgan. Ular Xudoga itoat qilishni o'rganganlarida, Xudo ularga g'alaba berardi va va'da qilingan yurtda yashashga imkon yaratardi. Bugungi kunda ham Xudo bizga huddi shunday saboq bermoqda. Biz itoat qilishni o'rganar ekanmiz, Xudo bizga gunoh ustidan g'alaba qozonishimizga yordam beradi, toki biz va'da qilingan abadiy maskanga kirishga muvaffaq bo'laylik! Iso Masih yaqinda qaytib keladi va bizni O'zi bilan abadiy Shohligiga olib ketadi!

Abadiy hayot Xudodan sovg'adir. Biroq biz bo'shshmasligimiz kerak. Zotan, biz ham ruhiy jang maydonidamiz va Rabbimiz Xudoga daqiqqa sayin itoat qilishimiz shart!

## 3-Chaqiriq

**Efesliklar 6:10–18**ni o'qing.

12-oyatga ko'ra, biz kim bilan jang qilmoqdamiz? [21]

Isroil xalqi va'da qilingan yurtda istiqomat qilgan qabih odamlarga qarshi jang qilishlari kerak edi. Shu singari biz ham gunohga, shayton va uning jinlariga qarshi jang qilishimiz kerak.

Qanday qilib biz iblisga va uning jinlariga qarshi jang qila olamiz (11 va 18-oyatlar)? [22]

Har bir qurol-aslaha va uning vazifasi haqida mulohaza qiling. Agar masihiy odam bu qurol-aslahalardan foydalanishni unutsa, nimalar yuz berishi mumkin?



- Agar haqiqat kamarini taqishni unutsa, nima yuz beradi? [23]
- Agar solihlik sovutini kiymasa, nima yuz beradi? [24]
- Oyog'iga ildamlik poyabzalini kiymasa va Xushxabarni yoymasa, nima yuz beradi? [25]
- Imon qalqonini qo'liga olishni unutsa, nima yuz beradi? [26]
- Xudoning kalomini qattiq tutmasa, nima bo'ladi? [27]
- Agar boshiga najot dubulg'asini kiymasa, nima bo'ladi? [28]

Biz birgalikda iblisga va uning jinlariga qarshi tura olishimiz uchun nima qilishimiz kerak? [29]

**Xudo bu dars orqali sizga nimalar dedi?**

**Siz bugun o'rganganlaringizni kimga aytib berishingiz mumkin?**

## **Uyga vazifa**

Navbatdagi darsga tayyorgarlik sifatida **Qonunlar 3:12–29**ni o'qing.

## Javoblar

- 1 – Isroil xalqi shu darajada ko'payib ketdiki, Muso bir o'zi ularning muammolariyu janjallarini hal qila olmasdi. Shuning uchun u xalq orasidan dono, aql-idrokli odamlarni tanlab, ularni yo'lboshchilar qilib tayinladi.
- 2 – Ular Xudoning qonunini bilishlari va unga amal qilishlari shart edi.
- 3 – Ular Amor xalqining qirlari tomon yo'l olib, Kadesh-Barnaga yetib borishdi.
- 4 – Ular yurtni tekshirib kelish uchun ayg'oqchilarni yuborishdi. Ayg'oqchilarning aksariyat qismi borgan yurtni yaxshi deyishdi, lekin u yerdagi odamlar kuchli, baland bo'yli, shaharlari ulkan, devorlari juda baland ekanini aytishdi. Shu sababdan Isroil xalqi qo'rqib, u yerga borishdan bosh tortdi.
- 5 – Isroil xalqining qurquvdan yuragi yorilgan edi.
- 6 – Muso Isroil xalqini tinchlantirmoqchi bo'lib, ularga shunday dedi: «Vahimaga tushmanglar, ulardan qo'rqmanglar. Egangiz Xudoning O'zi oldingizda yuradi. Ko'zingiz oldida Misrda jang qilganday, sizlar uchun jang qiladi».
- 7 – Muso Xudoni o'g'lini opichlab ko'targan otaga o'xshatgan.
- 8 – Yo'q, ular Xudoga ishonmadilar.
- 9 – Xudo Isroil xalqiga shunday dedi: «Men va'da qilgan hosildor yurtga bu qabih naslning birontasi ham kirmaydi. O'sha yurtni faqat Xolib va Yoshua ko'radi».
- 10 – Isroil jangchilari Xudoga quloq solmay, o'zboshimchalik bilan qirlarga chiqib, dushman bilan jang qildilar. Ular mag'lub bo'lib, katta talafot ko'rdilar.
- 11 – Iso Masih hammaga xizmat qilib, O'z jonini fido qilgani singari, yetakchi bo'lishni xohlagan odam ham, boshqalarga o'z hukmini o'tkazishi emas, balki ularga xizmat qilishi kerak.
- 12 – Cho'ponlar Xudoning suruvini yaxshi boqishlari darkor.
- 13 – Izdoshlar o'zlaridan voz kechib, o'z xochini ko'tarib, Isoga ergashishlari kerak.
- 14 – Xudo u yerda yashaydigan xalqlarni Isroil xalqi oldida vahimaga soldi.
- 15 – Xalq va'da qilingan yurtga hujum qilib, jang qilishi kerak edi.
- 16 – Muso shoh Sixo'ndan yurtidan tinchgina o'tib ketishga ijozat so'radi. Lekin shoh ruxsat bermadi.
- 17 – Xudo shoh Sixo'nni Isroil xalqiga mag'lub qildi.
- 18 – Ular shoh O'g ustidan g'alaba qozonishdi.
- 19 – Oltmishta shaharni qo'lga kiritishdi.
- 20 – Ular hamma odamlarni yo'q qilishdi, ularning mol-mulklarini esa qoldirishdi.
- 21 – Bizning kurashimiz insonlarga qarshi emas, balki samoviy olamdagi yovuz ruhiy kuchlarga, ruhiy hokimiyat va hukmronlikka hamda bu qorong'i dunyoni boshqarayotgan ruhiy hukmronlarga qarshidir.
- 22 – Iblisning hiylalariga qarshi tura olishimiz uchun Xudo bergan barcha qurol-aslahalar bilan qurollanishimiz va **har qanday sharoitda** Muqaddas Ruhga tayanib, duo-ibodat qilishimiz kerak.
- 23 – Biz yolg'onlarga ishonib qolishimiz mumkin.
- 24 – Yomon ishlar qilish vasvasasiga tushib qolishimiz mumkin.
- 25 – Iso Masih haqida gapirishni yoqtirmay qolishimiz yoki qo'rqib qolishimiz mumkin.
- 26 – Hayotimizda yomon narsalar ro'y berganida biz Xudodan uzoqlashamiz, U bizni sevishiga ishonmay qolamiz. Qo'rqib qolamiz, tashvish va xavotirlarga berilib ketamiz.
- 27 – Xudo bizga Muqaddas Kitob orqali o'rgatmoqchi bo'lgan haqiqatdan quruq qolamiz.
- 28 – Najot sovg'a ekanini unutib qo'yamiz. Biz savob ishlarimiz orqali Xudoning marhamatiga sazovor bo'lishga tirishadigan bo'lamiz.
- 29 – Birgalikda yig'ilib turishimiz, bir-birimiz uchun ibodat qilishimiz, dalda berishimiz va ruhiy qurol-aslahalar bilan qurollanishni bir-birimizga eslatib turishimiz kerak.


Qonunlar, 3-dars:

# Birlik va yangi yetakchilar



Ushbu dars davomida biz birlik va yangi yetakchilarni tayyorlash haqida mulohaza qilamiz.

## Birlik



Qonunlar 3:12–13 va 18–20ni o'qing.

Iordan daryosi shimoldagi Jalila ko‘lidan janubga — O‘lik dengiz tomon qarab oqadi. Xaritada Iordan daryosini toping.

Ushbu oyatlarda tilga olingan joylar Iordan daryosining sharq tomonida joylashgan. Isroil xalqi Yoshua boshchiligida Yerixo shahriga hujum qilishdan oldin, Iordanning sharq tomoniga kelgan edi (Yoshua 6-bob).

**Sahroda 32:1–5**ni o‘qing. Ruben va Gad qabilalari Musoga nima deb aytishdi? [1]

**Sahroda 32:16–22**ni o‘qing. Ruben va Gad qabilalari Iordanning sharq tomonida joylashib olmoqchi bo‘ldilar. Qanday qilib ular Musoni bunga ruxsat berishiga ko‘ndirdilar? [2]

**Sahroda 32:33**ni o‘qing. Iordanning sharqiy tomonidagi yerlardan yana qaysi qabila yerni mulk qilib oldi? [3]

Muso bu ikki yarim qabilaga Iordan daryosining sharq tomonida istiqomat qilishlariga izn berdi. Buning uchun ularga bir shart qo‘ydi: bu qabilalarning barcha erkaklari qolgan qabilalarga Iordanning g‘arbidagi Kan‘on yurtini zabt etishga yordam berishlari kerak edi.

Ruben, Gad va Manashe qabilalari boshqa qabilalar bilan birlik saqlab qolishlari juda muhim edi. Agar Ruben, Gad, va Manashe qabilasining yarmi qolgan Isroil xalqi bilan Iordan daryosini kechib o‘tishdan va jang qilishdan bosh torganlarida edi, birlik yo‘qolib, Xudoning xalqi parokanda bo‘lardi. Shunda qabilalar haqiqiy dushman bilan jang qilmay, o‘zaro jang qilishga kirishgan bo‘lardi.

## Yangi yetakchilar

**Qonunlar 3:23–29**ni o‘qing.

**25-oyatda** Muso Xudodan nima so‘ramoqda? [4]

O‘tgan 40 yil davomida va‘da qilingan yurtni ko‘rish Musoning ardoqlagan orzusi edi! Afsuski, Xudoning eng buyuk yetakchilari ham, eng ko‘zga ko‘ringan payg‘ambarlar ham ranjiydilar!

**Sahroda 20:1–3**ni o‘qing. Nega Xudo Musoga xalqni va‘da qilingan yurtga olib kirishga izn bermadi? [5]

Eski Ahddagi eng buyuk insonlar ham ba‘zan Xudoga pand berganlar. Lekin shu yerda ham biz Xudoning mehr-shafqatini ko‘ramiz, Xudo Musoga va‘da qilingan yurtni uzoqdan bo‘lsa ham ko‘rsatdi (Qonunlar 3:27).

Isroil xalqining navbatdagi yetakchisi kim bo‘ldi (Qonunlar 3:28)? [6]

Muso Yoshuaga nima dyeb aytdi (Qonunlar 3:21–22)? [7]

Va‘da qilingan yurtni qo‘lga kiritish murakkab vazifa edi, buning uchun ko‘p jang qilish kerak edi. Xudo O‘z xalqiga ular uchun O‘zi jang qilishini bildirmoqchi edi. Jang maydonlarida g‘alaba qozonish Xudoning ishi edi. Zero, Xudo ularning Egasi va Shohidir! Xudo Yoshua orqali xalqni O‘zi va‘da qilgan yurtga olib kiradi (28-oyat).

Qanday qilib Muso Yoshuani navbatdagi yetakchi qilib tayyorlashi kerak (3:28)? [8]

Qanday qilib Muso Yoshuaga dalda berib, uni ruhlantirishi mumkin edi? [9]

Tavrot (Eski Ahdning birinchi beshta kitobi) Muso tomonidan yozilgan. Muso bu kitobni Yoshuaga va Isroil xalqiga sovg'a qildi.

**Yoshua 1:8**da Xudo Yoshuaga Tavrot kitobini o'qish haqida nima deb aytdi? [10]

## Yangi Ahd

Kelinglar, Yangi Ahdda birlik va yangi yetakchilar kabi o'ta muhim mavzular haqida nimalar yozilganini ko'rib chiqaylik.

### Birlik

Eski Ahd davrida birlik Xudoning xalqi uchun juda muhim ahamiyatga ega edi. Yangi Ahd davrida ham bu mavzu o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

**Yuhanno 17:20–21**da Iso Masih o'z shogirdlari uchun nima deb ibodat qilmoqda? [11]

Iso Masih shogirdlari orasidagi birlik uchun ibodat qilgan.

Bugungi kunda jamoat shaytonga va gunohga qarshi jang qilishi darkor. Xudo jamoatning bir bo'lishini va **birgalikda** xizmat qilib, o'sib borishini xohlaydi. Biz jamoatimiz ichida ham, jamoatlararo ham birlikka ega bo'lishimiz kerak, buning uchun jon-jahdimiz bilan harakat qilishimiz darkor.

## 1-Chaqiriq

Qanday qilib biz birlikni yo'qotamiz? [12]

Birlikka ega bo'lishimiz uchun nima qilishimiz kerak? [13]

## Yangi yetakchilar

Xudo Isroil xalqining haqiqiy Shohi va Hukmdori edi. Shu singari Iso Masih ham bizning haqiqiy Shohimiz va Hukmdorimizdir (Vahiy 17:14)

Eski Ahd davrida Xudo O'z xalqi uchun yetakchi va yo'lboshchilarni tayinlagan, U bugungi kunda ham O'z xalqi uchun yetakchilar tayinlamoqda.

Biz 2-darsimizda ko'rganimizday, yetakchilarning zimmasiga muhim vazifalar yuklangan! Ular quyidagilarni bajarishlari kerak:

- Ular Xudoning Kalomini o'rganishlari va barcha amrlarga amal qilishlari shart.
- Suruvga kamtarlik bilan xizmat qilishlari, rahm-shafqat bilan ularga g'amxo'rlik qilishlari kerak.
- Qo'li ostidagi odamlarga Xudo bergan in'om-qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishlari lozim.
- Odamlarni ajratmay, hammaga dalda berishlari kerak.

Yetakchilar o'zlarini yetakchilik vazifasini topshiradigan vaqtga ham tayyorlashlari kerak.

Yuqorida Muso Yoshuani yangi yetakchi qilib tayyorlaganini ko'rdik. Kelinglar, endi e'tiborimizni Pavlusga qarataylik. U Yangi Ahdda Timo'tiyga yetakchilar haqida nimalar yozganini o'qib chiqaylik.

**Timo'tiyga ikkinchi maktub, 2:2**ni o'qing. Havoriy Pavlus Timo'tiyga qanday ko'rsatma bermoqda? [14]

## Yangi yetakchilarni tayyorlash

Hamma o'qituvchilar o'z shogirdlarini boshqalarga ta'lim berishga tayyorlashlari kerak.

Muso Yoshuani Xudo xalqining navbatdagi yetakchisi qilib tayyorladi. Shu singari jamoatdagi hamma yetakchi va cho'ponlar o'zlari uchun o'rinbosarlarni tayyorlashlari kerak!

Dono yetakchi o'lmasidan **oldin** o'rinbosariga o'z joyini bo'shatib beradi! Bunday holatda yangi yetakchi zarur vaqtda tajribali yetakchidan maslahatu nasihatlarini olib turadi. Oldingi yetakchi yangisiga joyini bo'shatib berganidan keyin, o'z o'rnini bilishi va sidqidildan yangi yetakchini qo'llab-quvvatlashi kerak, shundagina bu ish beradi. Jamoat ham eski yetakchini qay tarzda qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, yangi yetakchini ham shunday qo'llab-quvvatlashi kerak bo'ladi.

Jamoat yetakchilari qo'li ostidagi odamlarni, jamoat yo'q joylarda jamoat boshlashga undashlari va ularni bu vazifa uchun tayyorlashlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

## Jamoat yetakchilariga qanday munosabatda bo'lish haqida eslatma

Jamoat a'zolari yetakchilarga qilgan munosabatida odatda ikkita xatoga yo'l qo'yishadi:

### 1. Odatda biz yetakchilarni mukammal deb bilamiz va ular bizning hamma muammolarimizni yechib bera olishiga ishonamiz.

Biroq biz quyidagilarni esda tutishimiz kerak:

- Yetakchilar ham shunchaki insonlar, ular ham xatolarga yo'l qo'yishadi.
- Hattoki Muso ham xato qilgan.
- Faqatgina Iso Masih mukammal inson bo'lgan. Faqatgina U bizga muammolarimizni yechishga yordam bera oladi.

## 2. Biz yetakchilarimizni hurmat qilmaymiz.

- Yangi Ahd bizga jamoatdagi yetakchilarmizni hurmat qilishimiz, ularga itoat qilishimiz kerakligini ochiq-ravshan o'rgatadi (1-Salonikaliklarga 5:12–13, Ibroniylarga 13:17).
- Biz jamoatimizdagi yetakchilarni hurmat qilmasak va ularga itoat qilmasak, jamoatdagi birlik yo'qoladi va jamoat xizmati samarasiz bo'ladi.

Jamoat a'zolari yetakchilariga nisbatan qanday ikkita xatoga yo'l qo'yishadi? [15]

## 2-Chaqiriq

Biz jamoatda yetakchilik qilamizmi yoki yo'qmi, hammamiz Muqaddas Kitobni o'qib o'rganishimiz kerak. Siz o'zingiz Xudoning Yoshuaga 1:8 da aytgan ko'rsatmasiga rioya qilyapsizmi?



Siz Muqaddas Kitobni ko'proq o'qishingiz va u haqda mulohaza qilishingiz uchun o'z kun tartibingizga qanday o'zgartirishlar kiritishingiz kerak?

Birlik va yangi yetakchilar mavzusini bir-biridan ajratib bo'lmaydi:

- Zero, jamoatda birlik bo'lsa, yetakchilar o'z vazifasini osonlik bilan bajaradilar. Birlik yo'q joyda esa, yetakchilik mashaqqatli mehnatga aylanadi.
- Yaxshi yetakchilik bo'lsa, birlikka erishish ancha oson bo'ladi. Yomon yetakchilik esa birlikka putur yetkazadi.

Har bir jamoat sevgi va muqaddaslikka erishishga harakat qiladi. Biroq bu foni dunyoda hech bir jamoat mukammal emas! Shunga qarmay, biz qo'limizdan kelgancha, sevgi va muqaddaslikda o'sish uchun jon kuydirishimiz kerak!

Shunday ekan, doim jamoatingiz uchun ibodat qiling:

- Yetakchilaringiz suruvni yaxshi boshqarishsin.
- Jamoatingiz a'zolari Masihga va bir-birlariga bo'lgan samimiy sevgida o'sib borishsin.

## Bu dars davomida Xudo sizga qanday chaqiriq berdi?

### Uyga vazifa

Navbatdagi darsga tayyorgarlik sifatida **Qonunlar 4-bobni** o'qing.

## Javoblar

- 1 – Ular Musodan Iordan daryosining sharq tomonida joylashib olishga izn soʻradilar. Ular Iordan daryosining gʻarbiy tomonida yashashni istamadilar. Xudo esa Isroil xalqiga Iordan daryosining gʻarb tomonini vaʼda qilgan edi.
- 2 – Ruben va Gad qabilalarining sipohlari Isroil lashkarining old saflarida borib, Iordan daryosining gʻarb tomonida ular uchun jang qilishga vaʼda berdilar. Gʻalaba qozonganlaridan keyingina, ular daryoning sharq tomoniga, xotin, bola-chaqalarining oldiga qaytishlarini aytdilar.
- 3 – Manashe qabilasining yarmi.
- 4 – Muso Xudodan Iordan daryosidan oʻtishga va vaʼda qilingan yurtni koʻrishga izn soʻrayapti.
- 5 – Muso Xudoning koʻrsatmalariga aynan rioya qilmay, Unga hurmatsizligini koʻrsatdi: u qoyaga buyruq berishning oʻrniga, unga ikki marta tayogʻi bilan urdi.
- 6 – Yoshua.
- 7 – Muso Yoshuaga shunday dedi: «Egang Xudo Iordanning sharqidagi ikkala shohni nima qilganini oʻz koʻzing bilan koʻrding. Sen bosib oʻtadigan barcha shohliklarni ham Egamiz xuddi shunday ahvolga soladi. Ulardan qoʻrqma. Sizlar uchun jang qiladigan Egang Xudodir».
- 8 – Muso Yoshuaga dalda berib, uni ruhlantirishi kerak edi.
- 9 – Muso Yoshuaga Xudoning qilgan moʻjizalarini eslatib, Tavrotni oʻqishni tavsiya qilgan boʻlard.
- 10 – Tavrot kitobida yozilganlarni oʻqigin, ularni bitta qoldirmay bajarishing uchun kechayu kunduz ular haqida fikr yuritgin. Shunda ishlaring yurishib, oʻngidan keladi.
- 11 – Iso Masih shogirdlari uchun ibodat qilib, ular bir boʻlishsin, deb Xudodan soʻragan.
- 12 – Misol uchun,
  - biz eʼtiborimizni Iso Masihga emas, jamoat yetakchilariga qaratamiz.
  - Magʻrurlanib ketamiz.
  - Biz Masihning tanasi boʻlmish jamoatning ehtiyojlariga eʼtibor bermay, faqat oʻz ehtiyojlarimizni qondirish bilan band boʻlamiz.
  - Mish-mishlar tarqatamiz.
  - Boshqalarni hukm qilamiz.
  - Qoʻrs javob beramiz.
  - Oʻzimizni baland tutamiz.
  - Kimdandir xafa boʻlib, jamoatga bormay qoʻyamiz.
- 13 – Misol uchun,
  - Biz eʼtiborimizni jamoat yetakchilariga emas, Iso Masihning Oʻziga qaratamiz.
  - Oʻzimizni kamtarin tutib, bilmagan narsalarni oʻrganamiz.
  - Oʻz ehtiyojlarimiz uchun emas, birinchi navbatda jamoatning ehtiyojlari haqida gʻam chekamiz.
  - Mish-mishlarga va gʻiybatlarga quloq tutmaymiz.
  - Boshqalar haqida yaxshi fikrda boʻlamiz.
  - Oʻzimizni ulardan ustun qoʻymaymiz.
  - Biz charchagan boʻlsak ham, kimdandir xafa boʻlsak ham, baribir jamoat yigʻilishlariga boraveramiz.
- 14 – Bu taʼlimotni boshqalarga ham oʻrgatishga qobiliyati bor, ishonchli odamlarga topshirgin.
- 15 – Birinchi xato: odatda odamlar jamoat yetakchilarini mukammal deb bilishadi va ularning hamma muammoalarini yechib bera olishlariga ishonishadi. Ikkinchi xato: ular jamoat yetakchilarini hurmat qilishmaydi.

# Qonunlar, 4-dars:

# Hayotni tanlang!



## 4-bob, 1–40-oyatlar (birinchi qism)

Ushbu darsda biz itoatkorlik hayot-mamot masalasi ekanini ko'rib chiqamiz.

Mazkur parcha Muso payg'ambar Isroil xalqiga aytgan go'zal bir nutq. Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan olib chiqib, ularni O'zi uchun tanlab olgan xalq qildi. Va'zni o'rganishga kirishishdan oldin, keling, uning asosiy uch mavzusiga e'tiborimizni qarataylik.

Va'zni besh qismga bo'lishimiz mumkin. Birinchi va oxirgi qismlar bir xil mavzuda. Ikkinchi va to'rtinchi qismlarda ham bir xil narsa haqida so'z yuritiladi. Ko'plab Ibroniycha she'rlar va va'zlar shu uslubda bo'lib, eng muhim mavzu o'rtada keladi.

- 1–4-oyatlar: **Itoatkorlik** — Isroil xalqi Xudodan baraka olishi uchun Unga itoat qilishi kerak edi.
- 5–20-oyatlar: **Isroil o'zgacha** — Isroil xalqi atrofidagi hamma xalqlardan ajralib turadi, chunki ularning Xudosi boshqa xudolarga o'xshagan emas.
- 21–31-oyatlar: **Hukm va mehr-shafqat.**
- 32–38-oyatlar: (takror) **Isroil o'zgacha.**
- 39–40-oyatlar: (takror) **Itoatkorlik.**

Va'zdagi eng muhim qism qaysi biri? (Va'zning o'rta qismi qaysi mavzuni yoritgan?) [1]

Biz Muqaddas Kitobning har bir sahifasida Xudoning hukmi va rahm-shafqatiga guvoh bo'lamiz. Biz Xudoni tushunmoqchi bo'lsak, Uning shu tomonlarini tushunib olishimiz shart. U muqaddas va pok bo'lgani uchun gunohni jazosiz qoldira olmaydi. Biroq, U hukm qilganda ham o'ta rahmdil va mehribondir.

Odamlarda Xudo haqida ikkita noto'g'ri fikr bor:

- Ba'zi odamlar, Xudo gunohlarimizga aslo e'tibor bermaydi, deb o'ylashsa,
- Boshqalar, Xudo gunohlarimizni kechirmaydi, biz uchun umid yo'q, deb aytishadi.

Nima sababdan Xudo hukm va rahm-shafqatga ko'p urg'u bergan? [2]

Xudo Isroil xalqini qutqargani uchun endi ular, o'zimiz istaganday yashaymiz, deb o'ylashlari mumkin edi. Lekin Xudo ularga O'zining mukammal qonunini berdi. Ular bu qonunga rioya qilib yashashlari shart edi!

Bugungi darsimiz davomida biz Muso va'zining birinchi qismini ko'rib chiqamiz. Xalq Xudoning barakalariga ega bo'lishi uchun Unga itoat qilishi kerak edi. Navbatdagi ikkita mavzuni biz keyingi darsda o'tamiz.

## Itoatkorlik

**Qonunlar 4:1–4**ni o'qing.

Ushbu oyatlarni o'qir ekanmiz, u yerda bir-biriga zid bo'lgan ikki fikr berilganini ko'ramiz:

- Xudo Isroil xalqiga yurtni bergan.
- Xalq bu yurtga egalik qila olishi uchun Xudoga itoat qilishi kerak.

1-oyatga ko'ra, Xudo Isroil xalqiga nima bermoqchi? [3]

Qanday qilib Isroil xalqi va'da qilingan yurtni qo'lga kirita oladi (1-oyat)? [4]

Demak, va'da qilingan yurt sovg'ami? Yoki uni itoatkorlik orqali qo'lga kiritish kerakmi?

Muqaddas Kitob sahifalarida biz bir-biriga zid bo'lgan bu ikkita fikrni ko'p uchratamiz: Qullikdan ozod bo'lish va va'da qilingan yurt — **sovg'a**, lekin xalq Xudoga **itoat qilish** orqaligina bularga egalik qila olardi.

Xudo Isroil xalqini Misrdan olib chiqishidan oldin, ularni o'lim farishtasidan — Azroildan xalos qildi. Isroil xalqi Azroildan omon qolishi uchun nima qilishi kerak edi? **Chiqish 12:21–23**ni o'qing. [5]

Xudoga itoat qilmaganlarning hammasi halok bo'ldilar.

## Yangi Ahd

Yangi Ahdda Xudo najotni sovg'a va inoyat qilib beradi, lekin biz Xudoning qonuniga itoat qilib yashashimiz kerak. Biz Xudo va'da qilgan abadiy maskanga — Yangi Quddusga borganimizda Xudoning qonuni asosida yashaymiz!

**Rimliklarga 6:17–18**ni o'qing. Rimliklar nimaga qul edilar? [6]

Endi esa ular kimga qul bo'ldilar? [7]

Rimliklar ilgari gunohga qul edilar, ular gunoh qilmay yashay olmasdilar. Lekin Iso Masih ularni gunoh changalidan ozod qildi. Ularni poklab, Muqaddas Ruhga to'ldirdi. Endi ular Masihga ergashib, pok, solihona hayot kechira oladilar.

## Chaqiriq

Siz solihlikka qul ekaningizni atrofingizdagi odamlar ko'ryaptilarmi? Yoki ular sizni o'zlari kabi, gunohga qul deb biladilarmi?

Sizning hayotingiz boshqa gunohkor odamlarning hayotidan nimasi bilan farq qiladi?

## Hayot

Qonunlar 4:1ga ko'ra, agar Isroil xalqi Xudoning farmonlari va qonun-qoidalariga rioya qilsa, buning natijasi nima bo'ladi? [8]

40-oyatga qarang. Agar Isroil xalqi Xudoning amrlariga rioya qilsa, buning evaziga Xudo ularga nimani va'da qilyapti? [9]



**Qonunlar 8:7–9**ni o'qing. Xudo O'z xalqiga qanday yurtni beryapti? [10]

Xudo ularga O'zi va'da qilgan yurtda mo'l-ko'l, farovon hayot bermoqchi. Lekin ular Xudoga itoat qilmasalar, hammasidan mahrum bo'ladilar.

**Qonunlar 4:3**ni o'qing.

Piyordagi but Baal Mo'ab xalqi sig'inadigan hosildorlik xudosi edi. Kan'onliklar o'taketgan axloqsizliklar qilib, bu xudoga sajda qilishardi. Piyordagi Baalga sajda qilgan odamlarni Xudo nima qildi? [11]

Qonunlar kitobining oxirida Muso Isroil xalqiga murojaat qilib, to'g'ri qaror chiqaringlar, deb o'tinib so'raydi.

**Qonunlar 30:15–20**ni o'qing. Muso odamlarga nimalar orasida tanlov qilishni so'rayapti? [12]

Xudoga itoat qilish qarori shunchaki muhim qaror emas, bu — hayot-mamot qaroridir! Qonunlar kitobida, Xudo O'z xalqini hayotni tanlashga chaqiradi.

## Yangi Ahd

**1-Yuhanno 5:11–12**ni o'qing. Xudo bizga nimani berdi? [13]

Kimda abadiy hayot bor? [14]

## Hayot

Qonunlar kitobida «hayot» soʻzi muhim oʻrin tutgani kabi Yuhanno Xushxabarida ham bu soʻz muhim oʻrin tutgan. Misol uchun:

*Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, Oʻzining yagona Oʻgʻlini berdi. Toki Unga ishonganlardan biron tasi halok boʻlmasin, balki abadiy **hayotga** ega boʻlsin* (Yuhanno 3:16).

*Iso dedi: «Men **hayot** noniman»* (Yuhanno 6:35).

*Iso unga dedi: «Men yoʻl, haqiqat va **hayotdirman**. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa yoʻl yoʻq»* (Yuhanno 14:6).

**Abadiy hayotni bizga Iso Masihdan boshqa hech kim bera olmaydi!**

Yangi Ahdda Xudo Oʻz xalqiga abadiy hayotni baraka qilib beradi. Bu baraka Eski Ahdda Isroil xalqiga itoatkorlik evaziga berilgan moddiy barakalardan ancha ustundir. Biz bu haqda 12-darsda batafsilroq gaplashamiz.

11-darsda esa biz bugungi kunda qaysi qonun-qoidalarga rioya qilishimiz kerakligi haqida gaplashamiz. Biz hammamiz butun qalbimiz, jonu dilimiz, butun ongimiz bilan Xudoni sevishimiz va oʻzгани oʻzimizni sevqanday yaxshi koʻrishimiz darkor (Matto 22:37–39).

## 1-Ogohlantirish: Xudoning soʻzini oʻzgartirmang!

**Qonunlar 4:2**ga koʻra, biz Xudoning soʻziga qanday munosabatda boʻlishimiz kerak? [15]

Baʼzi odamlar Xudoning soʻzini oʻzgartirmoqchi boʻladilar. Unga rioya qilishni osonlashtirish uchun, Xudoning amrlarini soddalashtirishga urinadilar. Xudoni oʻzlari sajda qilmoqchi boʻlgan but tasviriga soladilar. Lekin biz Xudoning oʻzimiz yoqtirgan amrlariga rioya qilib, yoqtirmaganlarni eʼtibordan chetda qoldira olmaymiz-ku!

Xudoning Kalomi mukammal va toʻliqdir. Biz unga hech narsa qoʻsha olmaymiz va undan hech narsa olib tashlay olmaymiz. Muqaddas Kitobda Xudo haqida biz zaminiy hayotimiz davomida va abadiyat davomida bilishimiz kerak boʻlgan barcha maʼlumotlar bor!

**Vahiy 22:18–19**ni oʻqing. Xudoning soʻzlariga biron narsa qoʻshmoqchi boʻlgan yoki ulardan biron narsa chiqarib tashlamoqchi boʻlgan odamlarni Xudo nima deb ogohlantirmoqda? [16]

**Muhokama qiling:** Muqaddas Kitobdagi qaysi amrlarga rioya qilish eng koʻp qiyinchilik tugʻdiradi?

## 2-Ogohlantirish: Yangi vahiylarni qabul qilmang!

- Asrlar davomida soxta din o'qituvchilari ko'p bo'lgan, ular xalqqa yangi kitoblarni taqdim qilishardi. Muqaddas Kitob Xudoning mukammal Kalomidir. U yerda Xudo bilan yarashishimiz, najot topishimiz va abadiy hayotga ega bo'lishimiz uchun kerakli barcha ma'lumotlar berilgan.
- Tarixda yana shunday odamlar bo'lganki, ular Muqaddas Kitob xabarini o'zlarining g'oyalariga moslashtirib o'zgartirishgan. Sizdagi Muqaddas Kitob esa qadimiy qo'lyozmalarga asoslangan to'g'ri tarjimadir.



Agar kimdir sizga Xudo yangi vahiy berdi, deb aytsa ishonmang. Odamlar bizga o'rgatayotgan har qanday ta'limotni biz Muqaddas Kitob haqiqati bilan **solishtirishimiz** darkor.

Shu bilan birga biz **butun Muqaddas Kitobni bilishimiz kerak**. Asrlar davomida ba'zi jamoatlar Muqaddas Kitobning faqat bitta (yoki bir nechta) oyatiga e'tibor qaratib, o'sha oyatdan qoida yasab olganlar. Ular o'zlarining yangi qoidasi Muqaddas Kitob amrlariga to'g'ri kelishi yoki kelmasligini tekshirmaganlar.

**Muhokama qiling:** Shunday oqimlar va odamlar borki, ular o'zlarining kitobini muqaddas deb ataydilar, lekin ularning kitobi Muqaddas Kitobga aslo to'g'ri kelmaydi. Siz shunday odamlarni taniysizmi?

**Siz bu dars davomida Xudoning Kalomi haqida nimalarni o'rganib oldingiz?**

**O'zini masihiy deb atagan, ammo Xudoning amrlariga rioya qilmagan odamga siz nima deb aytgan bo'lardingiz?**

**Kelinglar, hammamiz hayotni tanlaylik va bir-birimiz uchun ibodat qilaylik!**

## Uyga vazifa

**Qonunlar 4:1–40**ni o'qing. Biz bu parcha haqida keyingi darsda gaplashamiz.

## Javoblar

- 1 – Xudo hukm qiladigan, lekin shu bilan birga rahm-shafqatli Xudo.
- 2 – Xudo bu mavzuga atayin urg‘u bermoqda, chunki ayrim odamlar:
  - Xudo gunohlarimizga e‘tibor bermaydi, deyishadi.
  - Boshqalar esa, Xudo gunohlarimizni kechirmaydi, biz uchun umid yo‘q, deyishadi.
- 3 – Xudo Isroil xalqiga va‘da qilgan yurtni beryapti.
- 4 – Isroil xalqi Xudoning farmonlari va qonun-qoidalariga rioya qilish orqali va‘da qilingan yurtni mulk qilib oladi.
- 5 – Isroil xonadonlari qo‘zichoq yoki uloqchani qurbonlik qilib, qonidan eshikning kesaklariga surtishlari, so‘ng qo‘zichoqning go‘shini pishirib, uylarida yeyishlari kerak edi.
- 6 – Ular gunohga qul edilar.
- 7 – Endi esa ular solihlikning quli bo‘ldilar.
- 8 – Ular yashaydilar va ota-bobolarining Xudosi — Egamiz berayotgan yerni mulk qilib oladilar.
- 9 – Xudo ularga abadiy qilib berayotgan o‘sha yurtda uzoq yashashlarini va‘da qilyapti.
- 10 – Xudo xalqiga hosildor, irmoq va buloqlarga boy, temir va mis qazib olsa bo‘ladigan farovon yurtni beryapti.
- 11 – Xudo ularning hammasini yo‘q qilgan edi.
- 12 – Hayot bilan farovonlik yoki o‘lim bilan kulfat orasida tanlash imkoniyatini beryapti.
- 13 – Xudo bizga abadiy hayotni berdi.
- 14 – Kim Xudoning O‘g‘liga ega bo‘lsa, hayotga egadir.
- 15 – Ular Xudoning so‘zlariga hech narsa qo‘shmasligi va ulardan hech narsa chiqarib tashlamasligi kerak.
- 16 – Xudo ularni jazolaydi va Yangi Quddusda yashashdan benasib qiladi.

Qonunlar, 5-dars:

# Hukm va rahm-shafqat



## Qonunlar 4:1–10 (ikkinchi qism)

Mazkur darsda biz Xudoning xalqi haqida soʻz yuritamiz. Xudoning xalqi boshqa xalqlardan nimasi bilan farq qilishini oʻrganamiz. Bundan tashqari biz Xudoning solih hukmi va aql bovar qilmas rahm-shafqati haqidagi mavzular bilan tanishamiz.

Oldingi darsda biz itoatkorlik mavzusini koʻrib chiqdik; Isroil xalqi Xudodan baraka olishi uchun Unga itoat qilishi kerakligini bildik. Xudo Isroil xalqini qullikdan ozod qildi. Ularga vaʼda qilingan yurtni berish arafasida edi. Lekin Isroil xalqi vaʼda qilingan yurtga kirib, u yerda yashay olishi uchun Xudoning farmonlari va qonun-qoidalariga bekamu koʻst rioya qilishi shart edi.

### *Qoʻshimcha maʼlumot: Takrorlash*

Qonunlar 4:1–40 beshta mavzudan iborat ekanligini koʻrdik. Birinchi va oxirgi mavzular, shuningdek ikkinchi va toʻrtinchi mavzular bir xil mazmunda. Ibroniycha sheʼrlar va vaʼzlar aynan shu uslubda yoziladi, matning eng muhim, yaʼni kulminatsion qismi oʻrtadan joy oladi.

- 1–4-oyatlar: **Itoatkorlik** — Isroil xalqi Xudodan baraka olishi uchun Unga itoat qilishi kerak edi.
- 5–20-oyatlar: **Isroil oʻzgacha** — Isroil xalqi atrofdagi hamma xalqlardan ajralib turadi, chunki ularning Xudosi boshqa xudolarga oʻxshagan emas.
- 21–31-oyatlar: **Hukm va rahm-shafqat** — Xudo hukm qiladigan Xudo, lekin shu bilan birga oʻta rahm-shafqatlidir.
- 32–38-oyatlar: (takror) **Isroil oʻzgacha**.
- 39–40-oyatlar: (takror) **Itoatkorlik**.

Vaʼzdagi eng muhim qism qaysi biri? (Vaʼzning oʻrta qismi qaysi mavzuni yoritgan?) [1]

Nima sababdan Xudo hukm va rahm-shafqatga ko'p urg'u bergan? [2]

Xudo Isroil xalqini qutqargani uchun endi ular, o'zimiz istaganday yashaymiz, deb o'ylashlari mumkin edi. Lekin Xudo ularga O'zining mukammal qonunlarini berdi. Ular bu qonunlarga rioya qilib yashashlari shart edi!

Muso va'zida Isroil xalqiga uchta narsani o'rgatdi, ular nima? [3]

Ushbu darsimizda biz Muso va'zining ikkinchi va uchinchi mavzularini ko'rib chiqamiz.

## Isroil o'zgacha

**Qonunlar 4:5–20**ni o'qing.

Isroil xalqi atrofidagi boshqa barcha xalqlardan ajralib turar edi, chunki ular sig'inadigan Xudoni boshqa xalqlarning xudolari bilan qiyoslab ham bo'lmasdi.

Haq Xudo boshqa xalqlar sig'inadigan soxta xudolardan nimasi bilan ajralib turardi (7,8,12,20-oyatlar)? [4]

7-oyat:

8-oyat:

12-oyat:

20-oyat:

Agar xalq Xudoning qonun-qoidalariga rioya qilsa, buning natijasi nima bo'ladi (6–7-oyatlar)? [5]

Xudo Isroil xalqining sajdalari bilan cheklanib qolmadi. U Isroil xalqini dunyodagi boshqa xalqlar uchun namuna qilmoqchi edi, bu xalq orqali boshqalarni O'ziga jalb qilmoqchi bo'ldi!

Xudoning azaldagi rejasi aynan shu edi. Xudo O'zining ajoyib va'dalarini Ibrohim payg'ambarga berganda, unga shunday degandi: «*Ey Ibrohim, sen orqali baraka toparlar yer yuzidagi jamiki xalqlar!*» (Ibtido 12:3).

Shu tariqa, bizning Xudoga bo'lgan sevgimiz atrofimizdagi odamlar uchun kuchli namuna bo'ladi. Ular bizdagi Masihni ko'rib, Unga ergashishni istab qolishadi!

## 1-Chaqiriq

Ko'p odamlar masihiylarning hayotida quyidagi tomonlarni ko'rganlaridan keyingina, Iso Masihga kelishadi:

- Masihiylar orasidagi sevgi
- Ijobat bo'lgan ibodatlari



Bordi-yu, odamlar masihiylarda quyidagicha illatlarni ko'rishsa, Masihdan qochishadi:

- Masihiylar orasidagi adovat;
- Xasad va boshqalarning narsalariga ko'z olaytirish;
- G'iybat;
- Ibodatning yo'qligi.

Bunday odamlar abadiy hayotdan **benasib** qoladilar.

Biz Xudoning amrlariga amal qilganimizda, bu atrofimizdagi odamlarga qanday ta'sir ko'rsatadi? [6]

Biz Xudoning amrlariga rioya qilmaganimizda, bu atrofimizdagi odamlarga qanday ta'sir qiladi? [7]

Qonunlar 4:10–14da Xudo O'z xalqiga O'nta amr bergani haqidagi voqea esga olinadi, bu voqea 40 yil oldin yuz bergan edi. Qonunlar 5-bobda Muso payg'ambar Isroil xalqiga O'nta amrni batafsil tanishtiradi. Insoniyat tarixida shu paytgacha bironta xalqda bu kabi adolatli qonunlar bo'lmagan. O'sha paytdan beri ham hech bir inson bu qonunlardan a'lorog'ini o'ylab topmagan.

Xudoning xalqiga nima qat'iyman etilgandi (15–19-oyatlar)? [8]

Xudo butlardan nimasi bilan farq qiladi? Xudo qiladigan qanday narsalarni butlar qila olmaydi? [9]

Xudo o'z xalqini butparast Misrliklar orasidan olib chiqdi. Endi esa ularga boshqa butparast xalqlarning yurtlarini mulk qilib bermoqda. Shu sababdan Isroil xalqi butparast xalqlarning odatlariga taqlid qilmasligi va butlarga sig'inmasligi kerak edi.

## 2-Chaqiriq

Hayotimizdagi qanday narsalar biz uchun butlarga aylanishi mumkin? Nimalarni biz Xudodan ustun qo'yamiz? [10]

Xudo bilan munosabat siz uchun quyidagilardan muhiroqmi:

- Oilangizdan?
- Uyingizdan?
- Ishingizdan?
- Puldan?
- Telefoningizdan?
- Kiyim-kechakdan?
- Imtihon natijasidan?
- Obro'-e'tibordan?

Biz «sajda» qiladigan narsalar kundalik hayotimizda qanday o'rin tutgan? [11]

## Xudo-hukm va rahm-shafqat Xudosi

**Qonunlar 4:21–31**ni o'qing. Bu parcha Muso va'zining eng muhim joyi.

21–24-oyatlarda Xudo Musoni gunohi uchun jazolashi haqida yozilgan. Agar Muso qilgan gunohi uchun jazo olayotgan bo'lsa, demak Isroil xalqi ham gunoh qilsa, jazodan qochib qutula olmaydi.

25–30-oyatlarda Muso Isroil xalqiga bashorat so'zlarini aytmoqda. Isroil xalqi kelajakda Xudoga qarshi bosh ko'taradi, buning uchun azob tortadi, begona xalqlarning orasiga tarqalib ketadi, lekin Xudo ularni o'z yurtiga qaytarib olib keladi. Musoning bu bashorati keyinchalik Isroil xalqi tarixida yuz berdi.

25-oyatda Muso Isroil xalqini qanday gunohlar haqida ogohlantirmoqda? [12]

Agar odamlar bu gunohlarga qo'l ursalar, Xudo ularni qanday jazolaydi (26–28-oyatlar)? [13]

Xudo O'z xalqiga qanday va'da bermoqda (29–31-oyatlar)? [14]

Siz bu voqealar haqida Eski Ahdning tarixiy kitoblarida o'qishingiz mumkin (Yoshua, Hakamlar, 1–4-Shohlar, 1–2-Solnomalar, Ezra va Naximiyo kitoblarida).

Isroil xalqi gunohga qo'l urishini Xudo oldindan bilardi. Xudo ularning gunoh qilishlarini bila turib, ularga rahmdil edi. Ular gunohlaridan tavba qilganlarida ularni kechirishga doim tayyor edi. Zotan, Xudo mehr-shafqatli, rahmdil Xudodir.

Muqaddas va pok bo'lgan Xudo O'z xalqiga nisbatan kechirimli, sodiq va rahmdil ekanligi e'tiborga molik bir dalildir!

Isroil xalqi uzoq yillar davomida surgunda yashagan bo'lsa-da, gunoh qilishda davom etdi. Ular Xudoning mukammal qonunlariga to'liq rioya qilmas edilar.

Eski Ahd davrida Isroil xalqi doim najot va yordamga muhtoj edi, ularga nafaqat Misrdagi qullikdan, dushmanlardan, surgundan, balki gunoh qulligidan ham najot kerak edi.

### Yangi Ahd


Yangi Ahd davrida Xudo Isroil xalqiga shunday Najotkorni yubordi!

**Matto 1:20–21**ni o'qing. Farishta Yusufga zohir bo'lganida Maryamning O'g'li qanday vazifa bajarishini aytdi? [15]

## Qo'shimcha ma'lumot: Iso Masih-bizga najot bera oladigan yagona Zot!

Iso Masih Xudoning O'g'li! Biz buni bilamiz, chunki:

- U Muqaddas Ruh orqali paydo bo'lgan, Uning zaminiy otasi yo'q edi;
- U hech qachon gunoh qilmagan;
- U ko'p mo'jizalarni qilgan, bunga ko'p odamlar guvoh bo'lgan;
- Uni xochga mixlab, o'ldirishganidan keyin, uchinchi kuni U tirildi.



Biz Iso Masihning xochda jon berganini ko'rganimizda Xudoning hukmi va rahm-shafqatini ko'ramiz. Iso bizning gunohlarimiz uchun jazolandi. Masih gunohlarimiz badalini to'ladi, shuning uchun Xudo bizga rahm-shafqat qildi!

Iso Masihning o'likdan tirilgani — U bizni gunohlarimizdan, o'lim va shaytondan ozod qilganidan dalolat beradi!

Iso tirilganidan keyin qirq kun o'tgach, osmonga ko'tarilib, Xudoning o'ng tomoniga o'tirdi. U bizga kechirim va mehr-shafqat eshigini ochdi, biroq vaqt juda qisqa! Ko'p o'tmay, U yana qaytib keladi va butun dunyoni hukm qiladi!

Iso Masih osmonga ko'tarilib ketmasidan oldin, O'z shogirdlariga Qonunlar 4-bobdagi so'zlarni iqtibos qilib, oxirgi ko'rsatmalarni bergan. Iso shogirdlariga Xudoning O'g'li ekanini ta'kidlab aytgan!

**Qonunlar 4:39–40**ni o'qing. Yeru samodagi barcha hokimiyat Kimga berilgan? [16]

Isroil xalqi nima qilishi kerak edi (40-oyat)? [17]

Ular itoat qilishlari shart edi!

**Matto 28:18–20**ni o'qing. Yeru osmondagi barcha hokimiyat Kimga berilgan? [18]

Bugungi kunda Rabbimizning izdoshlari nima qilishlari kerak (20-oyat)? [19]

### 3-Chaqiriq

Biz odamlarga Masihga itoat qilishni o'rgatishimiz kerak. Zero, yeru osmondagi butun hokimiyat Unga berilgan! U qaytib kelganida butun dunyoni hukm qiladi!

Butun borliqni hukm qiladigan Qoziga itoat qilishni siz boshqalarga qanday o'rgatyapsiz?

O'tgan hafta davomida siz kimga Iso Masih haqida aytdingiz?

## Mazkur darsdagi uchta chaqiriqdan qaysi birini bajarish uchun sizga Xudodan yordam kerak?

### Uyga vazifa

Navbatdagi darsga tayyorgarlik tariqasida **Qonunlar 5:1–15**ni o'qing.

## Javoblar

- 1 – Xudo hukm qiladigan, lekin shu bilan birga rahm-shafqatli Xudodir.
- 2 – Xudo bu mavzuga atayin urg'u bermoqda, chunki ayrim odamlar:
  - Xudo gunohlarimizga e'tibor bermaydi, deyishadi.
  - Boshqalar esa, Xudo gunohlarimizni kechirmaydi, biz uchun umid yo'q, deyishadi.
- 3 – **Itoatkorlik** — Isroil xalqi Xudodan baraka olishi uchun Unga itoat qilishi shart edi.  
**Isroil o'zgacha** — Isroil xalqi atrofidagi boshqa barcha xalqlardan ajralib turar edi, chunki ular sig'inadigan Xudo boshqa xalqlarning butlaridan boshqacha edi.  
**Hukm va rahm-shafqat** — Xudo hukm qiladigan, lekin shu bilan birga rahm-shafqatli Xudodir.
- 4 – Xudo bizga yaqin va U ibodatlarimizni eshitadi (7-oyat).  
 Xudo O'z xalqiga adolatli qonun-qoidalarini bergan (8, 13-oyatlar).  
 Xudo O'z xalqiga gapiradi, lekin ular Xudoning qiyofasini ko'rmaydilar (12-oyat).  
 Xudo O'z xalqini dahshatli qullikdan ozod qilgan (20-oyat).
- 5 – Isroil xalqi dono va aql-idrokli bo'ladi.  
 Boshqa xalqlar Xudodan va Isroil xalqidan hayratda qolishadi.  
 Ular Xudoning Isroil xalqiga yaqin ekanini ko'rishadi.
- 6 – Biz Xudoning amrlariga itoat qilganimizda atrofimizdagi imonsiz odamlar Masihga intiladilar va abadiy hayotdan bahramand bo'ladilar.
- 7 – Biz Xudoning amrlariga itoat qilmasak, atrofimizdagi imonsiz odamlar o'zlarini Masihdan olib qochadilar va oqibatda abadiy hayotdan bebahra qoladilar.
- 8 – Isroil xalqiga butlar yasash va ularga sajda qilish qat'iyan man qilingan edi.
- 9 – Butlardan farqli o'laroq Xudo ko'radi, eshitadi, gapiradi, harakat qiladi, najot beradi, O'ziga umid bog'lagan odamlarning hayotini o'zgartiradi, ularning ibodatlariga javob beradi.
- 10 – Misol uchun, biz quyidagilarni Xudodan ustun qo'yishimiz mumkin:
  - Farzandlarimizni;
  - Muhim, mashhur yulduzlarni;
  - Futbol jamoalarini;
  - Dunyodan ko'z yumgan yaqinlarimizni;
  - Telefonni;
  - Uy-joyini;
  - Obro'imizni (internetda olgan layklarimiz ham shu jumlagacha kiradi).

- 11 – Biz kun davomida shu haqda o'ylaymiz, doim shular haqida gapiramiz, ularni maqtaymiz, ularga ko'p vaqtimizni sarflaymiz, vaqtimiz yetmasa jahl qilamiz.
- 12 – Isroil xalqi yo'ldan ozishi, Egamiz oldida qabihliklar qilishi va o'ziga butlar yasab olishi mumkin.
- 13 – Agar xalq bu gunohlarga qo'l ura, ular qirilib ketadi, Xudo bergan yurtda uzoq yashamaydilar; Xudo ularni boshqa xalqlar orasiga tarqatib yuboradi; u yerda yordam berishga ojiz bo'lgan tosh va yog'och xudolarga sajda qiladilar.
- 14 – Agar ular Xudoga yuz bursalar, Uni butun qalbi bilan, jonu dili bilan izlasalar, topadilar. Agar Xudoga qaytsalar, Xudo ularni tark etmaydi, yo'q qilmaydi, ota-bobolari bilan qilgan ahdini unutmaydi (Ibtido 12:1–3; 26:3–4; 28:14–15; 50:24).
- 15 – U O'z xalqini gunohlardan qutqaradi.
- 16 – Yeru samodagi barcha hokimiyat Egamiz Xudonikidir.
- 17 – Ular Egamizning farmonlari va amrlariga rioya qilishlari kerak edi.
- 18 – Iso Masih.
- 19 – Rabbimiz buyurgan hamma narsaga amal qilishni biz barcha xalqlarga o'rgatishimiz kerak.

# Qonunlar, 6-dars:

## O'nta amr (1-qism)



Mazkur darsda biz Xudoni qanday sevishimiz kerakligi haqida mulohaza qilamiz.

### Nega biz itoat qilamiz?

**Qonunlar 5:1–15**ni o'qing.

Isroil xalqi fir'avning qo'li ostida ojiz qullar edilar. Ular o'zlarini qutqara olmas edilar. Najotga arzigulik biron narsa qilmagan edilar. Biroq Xudo ularga najot berishni lozim topdi va ularga yurtni mulk qilib berishni istadi.

Xudo Isroil xalqini O'zi uchun tanlab oldi, ularni qullikdan ozod qilib, amrlar berdi. Endi ular Xudoga itoat qilishga majbur edilar, chunki Xudo ularning Egasi va Shohi bo'ldi!

Xudo O'z xalqiga amrlar berishdan oldin, ularga nima dedi (6-oyat)? [1]

Nega Xudo bu gaplarni aytdi? [2]

Chunki Xudo endi ularning Egasi va Shohi bo'ldi!

### Yangi Ahd

Biz ham Isroil xalqi singari najot topishga arzigulik biron narsa qilganimiz yo'q. Biz iblis changalida qolgan ojiz gunohkorlar edik. O'zimizni ozod qilishga kuchimiz ham, madorimiz ham yo'q edi. Biroq Iso Masih bizga najot berishni lozim ko'rdi, U bizni gunoh tuzog'idan qutqarib, bizga abadiy hayotni in'om etdi! Endi bizning Egamiz va Shohimiz bor!

Qaysi jahatdan bizning vaziyatimiz Isroil xalqining vaziyatiga o'xshaydi? [3]

**Matto 22:37–40**ni o'qing.

Rabbimiz va Xo'jayinimiz Iso Masih bizga qaysi ikkita eng buyuk amrga amal qilishimizni buyurdi? [4]

Yaxshi xabar shundan iboratki, Rabbimiz Iso bizga Muqaddas Ruhini berdi! Muqaddas Ruhning madadi bilan biz Uning hamma amrlariga rioya qila olamiz!

Ushbu darsimizda biz Xudoning Muso payg'ambarga bergan o'nta amri bilan tanishamiz. Bu amrlarning hammasi Xudoni va odamlarni yaxshi ko'rishimizga qaratilgan. Shunday ekan, barcha masihiylar bu amlarga bekamu ko'st rioya qilishlari kerak, zotan bu amrlar o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

## Dastlabki to'rtta amr

Dastlabki to'rtta amrda Xudoni qanday sevishimiz kerakligi yozilgan.

Birinchi amrda nima deb yozilgan (Qonunlar 5:7)? [5]

Biz to'liqligimizcha Xudoga bag'ishlanishimiz kerak, U bunga loyiqdir.

Agar hayotimizdagi biron narsa yoki biron kimsa biz uchun Xudodan muhimroq o'rin tutsa, o'sha narsa yoki kimsa biz uchun butga aylanadi.

Qanday qilib biz Xudoning birinchi amrini buzishimiz mumkin?

### 1-Chaqiriq

**O'zingizni sinab ko'ring, siz uchun telefoningiz muhimmi yoki Xudomi:** Siz ibodat qilayotganingizda yoki jamoat yig'ilishida bo'lganingizda, kimdir sizga telefon qilib qolsa, telefonga javob berasizmi? YAngi kelgan xabarlarini o'qiysizmi? Agar telefonga yoki xabarlarga javob bersangiz, demak, sizning o'sha odamlar bilan bo'lgan munosabatingiz Xudo bilan bo'lgan munosabatdan ancha ustun ekan. Telefoningiz Xudo bilan o'tkazgan vaqtingizga xalaqit bermasin! Uni o'chirib qo'ying — u nafaqat sizning, balki atrofingizdagi odamlarning ham e'tiborini chalg'itadi.

Boshqa xudolarga sajda qilmang. Boshqa hamma xudolar soxta xudolar, ular gung butlardir.

### Soxta xudolar

- Soxta xudoni **shaxsan tanib bo'lmaydi**. Haq Xudo esa yaxshi otaga o'xshaydi, yaxshi ota o'z farzandlari bilan vaqt o'tkazadi. Shu singari Xudo ham biz bilan vaqt o'tkazadi. Biz Xudoni Muqaddas Kitob va Muqaddas Ruh orqali tanib bilamiz.
- Soxta xudoning iltifotini **pulga sotib olsa bo'ladi**. Ba'zi odamlar shunday deb o'ylashadi: «Agar men Xudo uchun biron narsa qilsam, demak Xudo ham men uchun biron narsa qilishi kerak». Muqaddas Kitobda yozilishicha, Xudo bizni mukammal tarzda sevadi, Uning sevgisi eng mehribon zaminiy otaning sevgisidan ham a'loroqdir.

Ba'zi odamlar jamoatga pul berib, buning evaziga Xudodan iltifot kutishadi: endi Xudo ibodatlarimizga javob beradi yoki berganimizdan ham ko'proq pulni bizga qaytaradi, deb o'ylashadi.

Agar biz Xudoning barakasini pulga sotib olmoqchi bo'lsak, demak, Rabbimiz biz uchun qilgan mo'jizani tushunmagan bo'lamiz. Demak, biz haqiqiy Xudoga emas, soxta xudoga sig'inyapmiz.



Agar biz haq Xudoga sig'inayotgan bo'lsak, uning xizmatiga saxiylik bilan pul ajratamiz. Biz Xudoni sevamiz, chunki U bizga eng a'lo sovg'ani bergan, bu sovg'a: Rabbimiz Iso Masihdagi abadiy hayotdir!

Biz qo'limizdan kelgancha, Xudoni tanib bilishga harakat qilishimiz kerak! Shunda biz soxta xudoga emas, Haq Xudoga sajda qilamiz!

Xudo Musoga bergan **ikkinchi amr** nima (Qonunlar 5:8–10)? [6]

- Atrofimizda **inson o'z qo'li bilan yasagan** xudolar juda ko'p. Biz Xudoning suratini chizishimiz yoki Uning qiyofasidagi biron butni yasashimiz kerak emas. Haykal ulug'vor Xudoyimizni to'liqligicha aks ettira olmaydi. Biz Xudoni qandaydir shaklga solganimizda Xudo bundan ranjiydi. Bunday qilish noto'g'ridir.

Nima sababdan inson qo'li bilan yasalgan butlarga sajda qilish noto'g'ri? [7]

- Bu dunyoda Xudoning suratida yaratilgan qanday mavjudot bor (**Ibtido 1:26**)? [8]

Biz **odamga** sajda qilishimiz kerak emas. U prezident bo'ladimi, xonanda bo'ladimi, Hajga borib kelgan hoji ota yoki hoji ona bo'ladimi, avliyo bo'ladimi, o'tib ketganlarning ruhi bo'ladimi, farqi yo'q.

## 2-Chaqiriq

Bizning butlarimiz bormi? Ko'zmunchoq, qalampirmunchoq yoki tumor taqib yuramizmi? Bu narsalar butlardir. Chunki faqat Xudo bizni himoya qila oladi. Bunday narsalarni taqib, Xudoga shak keltirmang!

Qanday qilib biz ikkinchi amrni buzishimiz mumkin? [9]

## Qo'shimcha ma'lumot: Bolalarning boshiga tushadigan oqibatlar

**Qonunlar 5:9–10**ni o'qing. Xudo gunohlarimizning oqibatini farzandlarimiz, nabiralarimiz, evara-chevaralarimiz boshiga to'rtinchi avlodgacha soladi, buni eshitish naqadar dahshatli! O'sha davrlarda bu avlodlar bir uyda yashashardi,



hozirgi kunda ham bu udum ko'p davlatlarda saqlanib qolgan. Xudo ota-onalarning gunohi oqibatini farzandlarining boshiga soladi. Shu bois, gunoh balosi bir avloddan, keyingi avlodga ko'chib o'taveradi. Farzandlar ota-onasi qilgan gunohga qo'l urishadi!

Bizning gunohlarimiz nafaqat bizning hayotimizni, balki farzandlarimiz va nabiralarimiz hayotini zaqqumga aylantiradi. Bunga birona misol keltira olasizmi?

Biroq, Xudoning sodiq sevgisi nechanchi avlodgacha davom etadi? [10]

Xudo O'zini sevgan odamlarning ming-ming avlodlariga sodiq sevgisini ko'rsatadi. Bu degani, Uning sodiq sevgisi abadiydir, u aslo ado bo'lmas, zero minglab avlodlarni sanab bo'lmas!

### Uchinchi amr nima (Qonunlar 5:11)? [11]

Muso payg'ambar Xudodan «Sening noming nima?» deb so'raganida, Xudo unga nima deb javob berdi (Chiqish 3:13–14)? [12]

Ibroniychada, Xudoning nomi *Yahveh*. Eski Ahdda bu nom Egamiz, deb tarjima qilingan.

Xudo Musoga O'z ismini ayon qilgani Muso uchun katta sharaf edi. Insonning ismi va shaxsiyati hayotda juda muhim o'rin tutadi. Birovning ismi yoki shaxsiyatiga til tekkizilsa yoki haqorat qilinsa, bu juda yomon oqibatlarga olib keladi.

Xudoning ismi ham o'ta muqaddas va sharaflidir! Isroil xalqi Xudoga izzat-hurmat yuzasidan Uning ismini aytishmasdi.

Biz uchinchi amrni bir nechta yo'l bilan buzishimiz mumkin:

- Kan'on xalqlari o'z xudolarining nomlarini la'nat, qarg'ishlarda va fol ochishlarda ko'p ishlatishardi. Xudo esa Isroil xalqiga O'z ismini bunday vaziyatlarda qo'llashni qat'iyan man etgan. Bunday jirkanch odatlardan ular nafatlanishlari kerak edi (Qonunlar 18:9–13).
- **Biz aytgan gapimiz va qilgan ishimiz** bilan uchinchi amrni buzishimiz mumkin. Havoriy Pavlus shunday yozgandi: «*Qonunni bilaman, deb maqtanasan-u, lekin qonunni buzib, Xudoning nomiga dog' tushirasanmi?! Axir, Muqaddas bitiklarda shunday yozilgan-ku: «Sizlarni deb, xalqlar orasida Xudoning nomi haqorat qilinmoqda»»* (Rimliklar 2:23–24). Agar biz o'zimizni Xudoning xalqi deb atasak, biz buni Xudoga va boshqalarga bo'lgan sevgimiz orqali namoyon qilishimiz kerak. Aytgan gapimiz bilan qilgan ishimiz bir-biriga mos kelishi shart.
- Odamlarning ishi yurishmaganda, ular yana qanday qilib Xudoning ismini suiiste'mol qilishlari mumkin? [13]

Odamlarning ishi yurishganda, ular odatda Xudoni ulug'lamaydilar.

Qaysi vaziyatlarda biz Xudoning ismini suiiste'mol qilmasligimiz kerak? [14]

## Qo'shimcha ma'lumot: Qasam

Eski Ahd davrida qozixonalarda ish ko'rib chiqilayotganda odamlar haqiqatni aytayotganini tasdiqlash maqsadida, o'z xudolarining nomi bilan qasam ichishardi. Kan'onliklar ko'pincha o'z xudolarining nomi bilan qasam ichib, yolg'on gapirishardi.

Lekin Xudo Isroil xalqiga faqat haqiqatni gapirishni va faqat Uning ismi bilan ont ichishni amr qilgan edi (Qonunlar 6:13, 5:20).

Yangi Ahdda esa Iso Masih «umuman qasam ichmanglar» deb aytadi: «Sizlarning so'zingiz faqat «ha» yoki «yo'q» bo'lsin. Bundan ortig'i esa yovuz shaytondandir» (Matto 5:37). Iso har kungi hayotda qasam ichmaslikni nazarda tutgan. Odamlar bilan munosabatda biz faqat «ha, qilaman» yoki «yo'q, qilmayman» deb aytsak kifoya (Matto 5:37). Biroq sud mahkamasida yoki harbiy xizmatda qasamyod qilishimiz maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin, chunki qasamyod orqali biz haqiqatni aytishga yoki chin dildan vatanga xizmat qilishga va'da bergan bo'lamiz. Bunday vaziyatlarda vataningizga yoki hukumatigizga qasamyod qilish gunoh bo'lmaydi. Havoriy Pavlus shunday deb yozgan: «Har bir inson o'zining ustidan hukmron bo'lgan hokimiyatga bo'ysunsin. Chunki Xudo buyurmagan hokimiyat yo'q, mavjud bo'lgan har bir hokimiyatni esa Xudo tayin etgan» (Rimliklarga 13:1).

**To'rtinchi amr** nima (Qonunlar 5:12–15)? [15]

Xalq nimani yodda tutishi kerak edi (15-oyat)? [16]

Qullar tinmay mehnat qilishlari kerak edi. Lekin Xudo O'z xalqini qullikdan OZOD qildi, endi ular qul emas! Endi ular dam olish huquqiga ham egalar. Har hafta ular ozodligini bayram qilib, bir to'liq kun dam olishlari kerak edi.

Biz ham hafta davomida dam olganimizda, o'z kuchimizga emas, Xudoning kuchiga tayanganimizni ko'rsatgan bo'lamiz. Agar biz tinmay, haftada yetti kun ishlasak, biz Xudoga emas, o'z kuchimizga tayangan bo'lamiz. Lekin biz barcha ehtiyojlarimizni Xudoning qo'llariga topshirishimiz kerak, o'z kuchimizga tayanmasligimiz darkor!

Dam olish kunini biz maroqli o'tkazishimiz mumkin. Bu kuni biz imondagi birodarlarimiz, do'stu jo'ralarimiz, qarindosh-urug'imiz bilan o'tkazishimiz mumkin.

Jamoat yetakchilari ham har hafta bir kun dam olishlari joiz. Ular yakshanba kuni ko'p ishlaydilar, shu bois haftaning boshqa kuni dam olishlari darkor. Jamoatdagilar va boshqa do'st-birodarlar, agar shoshilinch masala bo'lmasa, cho'ponni bu kuni bezovta qilmasliklari shart. Agar cho'pon shunday yo'l tutsa, o'zini holdan toyishdan va tushkunlikdan asrab qoladi. Cho'pon har hafta bir kun dam olsa, samarali xizmat qila oladi.

Bizning Xudo va yaqinlarimiz bilan bo'lgan munosabatimiz ishimizdan ancha muhim!

Agar biz Shabbat kuniga rioya qilsak, uni muqaddas deb bilsak, Xudoni yanada ko'proq seva olamizmi? [17]

### 3-Chaqiriq

Siz har hafta bir kun ishingizdan dam olasizmi? Agar dam olsangiz, o'sha kuni siz Xudo bilan vaqt o'tkazasizmi? U bilan munosabatingizni yanada mustahkam qilasizmi?

**Ushbu to'rtta amrdan qaysi biriga amal qilish masihiylar uchun eng qiyin?**

**Uchta chaqiriqdan qaysi birini bajarish uchun sizga Xudoning yordami kerak?**

**Xudo sizga qaysi gunohingizni ko'rsatdi? Siz undan tavba qilishga tayyormisiz?**

Xudoga shukurki, gunohlarini e'tirof etib, tavba qilgan har bir insonni Xudo kechirishga doim tayyordir! (1-Yuhanno 1:8–9)

*Egangiz Xudoni **butun** qalbingiz bilan, **jonu dilingiz** bilan, **butun** vujudingiz bilan sevishingiz uchun, birgalikda ibodat qiling (Qonunlar 6:5).*

### Uyga vazifa

Navbatdagi dars uchun **Qonunlar 5:16–21**ni o'qing.

## Javoblar

- 1 – Xudo ularga shunday dedi: «*Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman*».
- 2 – Isroil xalqi Xudoga itoat qilishga majbur edi, chunki ular Xudoga tegishli edi va Xudo ularni Misrdagi qullikdan ozod qildi.
- 3 – Biz ham Isroil xalqi singari najot topishga arzigulik biron narsa qilganimiz yo'q. Biz iblis changalida qolgan ojiz gunohkorlar edik. O'zimizni ozod qilishga kuchimiz ham, madorimiz ham yo'q edi. Biroq Iso Masih bizga najot berishni lozim ko'rdi, U bizni gunoh tuzog'idan qutqarib, bizga abadiy hayotni in'om etdi! Endi bizning Egamiz va Shohimiz bor!
- 4 – Iso dedi: «*Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan seving*», va «*O'zгани o'zingizni sevganday seving*».
- 5 – *Mendan boshqa xudolarga sajda qilmang.*
- 6 – O'zingiz uchun but yasamang, unga sajda qilmang.
- 7 – Haykal ulug'vor Xudoyimizni to'liqligicha aks ettira olmaydi. Biz Xudoni qandaydir shaklga solganimizda Xudo bundan ranjiydi. Bunday qilish noto'g'ridir.
- 8 – Inson zoti Xudoning suratida yaratilgan.
- 9 – Biz inson yaratgan haykallarga, butlarga sig'inganimizda, tirik yoki o'lik odamlarga sajda qilganimizda, bizni himoya qiladi deb, turli xil tumor va ko'zmunchoqlarni taqqanimizda ikkinchi amrni buzgan bo'lamiz.
- 10 – Ming ming avlodlargacha.
- 11 – *Men, Egangiz Xudoning ismini suiiste'mol qilmang.*
- 12 – Xudoning nomi «*Men Borman*».
- 13 – Odamlarning ishi yurishmaganda, ular odatda buni Xudodan ko'radilar.
- 14 – Biz Xudoning ismini qarg'ish va la'natlarda, follarda ishlatmasligimiz kerak. Gunoh qilib Xudoni badnom qilmasligimiz kerak. Haqoratlarda va qasam ichganda Xudoning ismini tilga olmasligimiz kerak.
- 15 – Shabbat kunini muqaddas deb biling, bu kunga rioya qilib yuring.
- 16 – Xudo Isroil xalqiga Misrda qul bo'lishganini va Xudo ularni u yerdan ozod qilganini esda tutishlarini buyurdi.
- 17 – Biz Xudo bilan va imonli birodarlarimiz bilan vaqt o'tkazishimiz mumkin.

# Qonunlar, 7-dars:

## O'nta amr (2-qism)



**Ushbu darsni erkak va ayollar alohida-alohida guruhlarda o'tishlari kerak.**

Oldingi darsda biz Xudoni sevishni o'rgatadigan o'nta amrning to'rttasini ko'rib chiqdik. Bu darsda esa keyingi oltita amr bilan tanishamiz. Ushbu amrlar odamlarga qaratilgan bo'lib, ularni sevishni o'rgatadi.

Agar biz Xudoni sevmasak (birinchi to'rtta amr), yonimizdagi odamlarni ham yaxshi ko'ra olmaymiz (navbatdagi oltita amr).

**Qonunlar 5:16–21**ni o'qing.

### Ketma-ketlikning muhimligi

O'nta amrning ketma-ketligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bizga Xudoning qadriyatlarini oshkor qiladi:

- Xudo uchun birinchi navbatda bizning U bilan munosabatimiz muhim.
- Bundan keyin odamlar bilan o'zaro munosabatlarimiz muhim o'rin tutadi.
- Shundan keyingina mulk va boshqa moddiy narsalar o'rin olgan.



Afsuski, ko'pincha bizda bu qadriyatlarning o'rni **almashib** qoladi:

- Bizning mol-mulkimiz va narsalarimiz hammasidan ustun bo'ladi.
- So'ng bizni odamlarning fikri va ular bilan bo'lgan munosabat qiziqtiradi.
- Xudo bilan munosabat to'g'risida esa biz deyarli o'ylamaymiz ham.

Agar biz Xudoning qadriyatlari bo'yicha yashasak, qalbimizda tinchlik va xursandchilik hukm suradi. Bordi-yu, ilohiy qadriyatlar hayotimizda ostin-ustun bo'lsa, biz tinchlik va xursandchilik nimaligini bilmaymiz.

Demak, ilohiy qadriyatlar hayotimizda qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak? [1]

**Qonunlar 5:16**ni o'qing. Beshinchi amr nima? [2]

Farzandlar ota-onasiga itoat qilishlari kerak (Efesliklar 6:1). Voyaga yetgan farzandlar ota-onasini hurmat qilishlari shart (Qonunlar 5:16) va ularning barcha ehtiyojlarini qondirishlari lozim (1-Timo'tiy 5:8).

Farzandlar otasiga ham, onasiga ham yoshlikdan quloq solishni o'rganishlari maqsadga muvofiqdir. Buni ularga o'rgatish ota-onaning burchi. Tarbiyani bola tug'ilishi bilan oq boshlash lozim, o'g'il bolaga ham, qiz bolaga ham go'dakligidan tarbiya berish darkor.

Mehribon ota-ona farzandlariga yaxshilikni ravo ko'radi, ular farzandlarining manfaatini ko'zlashadi. Yaxshi ota-ona bo'lish uchun, ular bir-birini sevishlari va hurmat qilishlari kerak. Agar ota doim onaga baqirsa, unga hurmatsizlik qilsa, bolalar ham otasidan o'rnak olishadi. Agar ona otasi haqida doim yomon gapirsa, uni tanqid qilsa, mensimasa, bolalar ham xuddi shunday qilishadi.

Mukammal ota-ona yo'q, buni hammamiz juda yaxshi bilamiz. Ammo ming afsuski, shunday ota-onalar ham borki, ular bolalariga yomon ishlar qilishni o'rgatishadi. Bunday vaziyatda Havoriylar 4:19 bizga nimani o'rgatadi? [3]

## Muhokama uchun

Imonli birodarlar ota-onalariga qanday munosabatda bo'lishlari kerak?

### 1. Pul masalasida:

- Agar ota-onamiz bizga, ko'proq pul ishlashing uchun haftasiga 7 kun ishla, deb aytishsa nima qilishimiz kerak?
- Agar ota-onamiz ko'proq pul ishlashimiz va ularga yuborib turishimiz uchun, Rossiyaga borib ishlashimizni talab qilsa, biz nima qilishimiz kerak?
- Agar ota-onamiz o'zimiz uchun muhim bo'lmagan narsalar uchun ko'proq pul topishimizni xohlashsa, biz nima qilishimiz kerak?

Bunday hollarda biz ota-onamiz bilan ochiqchasiga gaplashishimiz, o'z fikrimizni ularga aytishimiz kerak. Misol uchun, ota, ona, men sizlarni juda yaxshi ko'raman, lekin ko'proq pul ishlash uchun uzoq yurtga borishni xohlamayman. Men uchun xotinim va farzandlarimning yonida bo'lishim muhimroq.

Qanday qilib siz ota-onangizga moddiy tomondan yordam bera olasiz?

Quyidagi misollarni ko'ring:

- Balki ota-onangizning uyi oldiga kichkinagina do'kon qurib berib, uni ijaraga berarsiz?
- Yoki biron odamni ishga olib, o'sha do'konni o'zingiz yurg'izarsiz?
- Balki ota-onangiz boshqalarga biror fandan repetitorlik qila olishar?
- Sizda yana qanday fikrlar bor?

### 2. Oilada zo'ravonlik holatlari bo'lsa:

- Agar oilamizda bir odam boshqasiga zo'ravonlik qilsa, biz nima qilishimiz kerak?

Yaxshi xonadon har bir oila a'zosi uchun xavfsiz joy bo'lishi darkor. Siz o'zingizni va oilangizning boshqa a'zolarini xavfli vaziyatlarda himoya qilishingiz lozim.

Agar jamoat a'zosi o'z oilasida xavfsiz bo'lmasa, jamoat bunday odam uchun xavfsizlikni ta'minlash vazifasini o'z bo'yniga olishi va buni muhokama qilishi shart.

**Qonunlar 5:17**ni o'qing. Oltinchi amr nima? [4]

Balki siz «Men hech qachon bu amrni buzmaganiman», deb o'ylashingiz mumkin, ammo...

**Matto 5:21–22**ni o'qing. Bu oyatlarda g'azab haqida nima yozilgan? [5]

## 1-Chaqiriq

siz bironta odamdan g'azabdamisiz? Xudoga yolvoring, o'sha odamni kechira olishingiz uchun Xudo sizga yordam bersin. Shunda siz yuragingizni asir qilgan g'azab zanjiridan ozod bo'lasiz.

Abort ham, har qanday vaziyatda qotillik hisoblanadi. Misol uchun, bir qizning nomusiga tegishdi. Dyeylik, buning oqibatida qiz homilador bo'lib qoldi, bunday bolani olib tashlash gunoh. Agar ona qornidagi bola nuqsonli bo'lsa, uni olib tashlash ham gunoh. Zero, farzandlar Xudodan sovg'adir. Xudo bizga qanday farzand bermasin, bu farzandga g'amho'rlik qilish, uni voyaga yetkazish, bizning burchimizdir.

Bordiyu, turmush o'rtog'imiz yoki o'zimiz homilani abort qilgan bo'lsak, quyidagilarni bilishimiz shart:

- Xudo bizni baribir sevadi va bizni kechirishga tayyor.
- Biz abort qilgan farzandimizni Xudo sevadi va o'sha farzandimiz bizni samoviy maskanda kutmoqda.
- Xudo bizni o'tmishdagi gunohlarimiz va ayblarimizdan xalos qilmoqchi.

Farzandingizni abort qilgan bo'lsangiz, umr bo'yi xafalik va aybdorlik hissi bilan yashamang.

Kelinglar, bir muddat jim bo'lib, qilgan qilmishlarimiz uchun Xudodan kechirim so'raylik:

- Qalbimizda kimnidir kechira olmagan bo'lsak yoki kimgadir nisbatan gina-kudurat saqlagan bo'lsak.
- Agar farzandimizni abort qilib, olib tashlagan bo'lsak.

Ibodot qilib, Xudodan kechirim so'raylik, Xudoning kechirimi va sevgisidan bahramand bo'laylik.



**Qonunlar 5:18**ni o'qing. Yettinchi amr nima? [6]

Nikohdan tashqarida bo'lgan har qanday jinsiy aloqa gunohdir!

Yoshlar turmush qurmaslaridan oldin o'pishishlari yoki bir-biriga suykalishlari mumkin emas. Pavlus bu borada shunday yozgan edi: «Sizlarning orangizda fahsh, zinokorlik, ifloslik yoki xasisligu ochko'zlik hatto tilga ham olinmasin. Bular Xudoning azizlariga munosib emas» (Efesliklar 5:3).

Yigit fohishaning oldiga borib, erkak bo'lishni o'rganmasligi kerak. Erning eng muhim fazilati bu xotiniga sodiq qolishdir. Fohishaning oldiga borgan yigit aslida, yaxshi er bo'lish imkoniyatidan voz kechgan bo'ladi. Bu degani, u xotiniga to'y kuni eng katta sovg'ani, ya'ni pokizaligini in'om qila olmaydi. U hattoki o'z xotinini fohisha bilan solishtirishi ham mumkin. Bundan tashqari, fohishadan yomon kasallik orttirib olishi ham mumkin.

Er o'z xotini bilan jinsiy aloqa qila olmagan kunlari fohishaning oldiga bormasligi kerak. Misol uchun, xotin farzand tuqqanidan keyin, chilla saqlagan paytida yoki hayz ko'rganida, betob bo'lganida yoki er yohud xotin safarga ketganda, erkak o'zini tiyib yurishi kerak. Muqaddas Ruh bizga ehtiroslarimizni jilovlashimizga yordam beradi (Galatyaliklarga 5:22–23). Er va xotin uzoq vaqtga bir-biridan ajralmasliklari kerak (1-Korinfliklarga 7:5). Ko'p oilalar mana shu sababdan buzilib ketganlar. Er va xotin orasidagi vafodorlik baxtli oilaning asosi hisoblanadi. Havoriy Pavlus shunday deb yozgan: «Bilmaysizlarmi, axir?! A'zoyi badaningiz Masih tanasining a'zosi-ku! Shunday ekan, men Masih tanasining a'zolarini olib, fohisha tanasining a'zolari qilib qo'yarmikanman? Yo'q, aslo! Fohisha bilan qovushgan u bilan bir tan bo'lishini bilmaysizlarmi?! Muqaddas bitiklarda: «Ikkalasi bir tan bo'ladilar», deb yozilgan-ku!» (1 Korinfliklarga 6:15–16).

Fohishaning oldiga borish qanday muammoni keltirib chiqaradi? [7]

Xudo uchun nafaqat bizning ishlarimiz, balki o'y-fikrlarimiz ham muhim.

**Matto 5:27–30**ni o'qing. Bu oyatlarda bizning o'y-fikrlarimiz va xayollarimiz haqida nimalar yozilgan? [8]

## 2-Chaqiriq

Siz qanday kino va videolarni tomosha qilasiz?

Erotik kinolarni tomosha qilish quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- Ular o'y-xayollarimizni nopoklikka to'ldiradi.
- Biz ko'rgan sahnalar to'abada miyamizda muhrlanib qoladi.
- Bizni axloqsiz ishlar qilishga undaydi.
- Turmush o'rtog'imizdan qoniqmaslik hissini paydo qiladi.
- Agar yigit turmush qurishdan oldin bunday kinolarni tomosha qilsa, u oilaviy munosabatlarni oldindan xavf ostiga qo'yadi, chunki qoniqish hissidan mahrum bo'ladi.
- Bunday kino va videolarni ko'rganimizda masturbatsiya illatiga qul bo'lamiz, chunki o'zimizni o'zimiz qondirishga harakat qilamiz. Jinsiy aloqa bu faqat er-xotin orasida ishlatilishi kerak bo'lgan ilohiy sovg'adir. Xudo bizni xudbin istaklarimizga erk bermaslikka chaqiradi (Galatyaliklarga 5:13).



Siz qaysi kino va videolardan voz kechishingiz kerak?



Kelinglar, bir muddatga to'xtab, ichimizda ibodat qilaylik. Qilgan har qanday axloqsizlik uchun tavba qilaylik.

Pornografik videolar ko'rganimiz uchun tavba qilaylik, chunki o'sha videolar tufayli ongimiz va o'y-xayollarimiz bulg'angan. Xudodan o'y-xayollarimizni va yuragimizni poklashini so'raylik.

Hammamiz Xudoning kechirimi va sevgisidan bahramand bo'la olishimiz uchun ibodat qiling!

Muqaddas Ruhning madadi bilan biz bunday iflos kino va videolarni boshqa ko'rmaylik.

### **Qonunlar 5:19**ni o'qing. Sakkizinchi amr nima? [9]

Biz bu amrga qachon itoat qilmaymiz?

Biz o'z ishimizni puxta bajarmay turib, buning uchun oylik olsak, bu o'g'rilikdir. Agar boshlig'ingiz sizga biron bir ishini buyurgan bo'lsa, siz uni yaxshi bajarishingiz kerak, xo'jako'rsinga emas, chin yurakdan qilishingiz kerak (Efesliklarga 6:5-8).

Biz birovdan biror narsani (kitob, idish-tovoq, o'yinchoq va hokazolarni) olganimizda, ularni albatta qaytarib berishimiz kerak. Ular bizga sovg'a qilib berilgan bo'lsagina, ularni o'zimizda olib qolishimiz mumkin. Biz birovning narsasini qaytarib bermasak, uni o'g'irlagan bo'lamiz.

Agar biz kimdandir pul olgan bo'lsak, uni albatta qaytarishimiz kerak. Bordi-yu, biz ayrim sabablarga ko'ra, pulni qaytara olmayotgan bo'lsak, biz pulni bergan odam bilan ochiqchasiga gaplashib, qarzimizni qay tarzda qaytarishimiz haqida kelishib olishimiz shart. Ko'pincha biz pulni jamoatdagi birodarimizga qarz qilib bersak, qarz olgan odam qarzini to'lay olmagan uchun jamoatga kelmay qo'yadi.

Kelinglar, quyidagi holatlar uchun ibodat qilib, tavba qilaylik:

- Agar sifatli ish qilmay boshlig'imizni aldab yurgan bo'lsak.
- Birovning narsasini o'g'irlagan bo'lsak.
- Qarzimizni qaytarib bermagan bo'lsak.



Ibodot qilib, Xudodan buni hal qilishga yordam berishini so'raylik.

Qarz tufayli buzilgan har qanday munosabat tiklanishi uchun ibodat qilaylik.

Hammamiz Xudoning kechirimi va sevgisidan bahramand bo'laylik.

### **Qonunlar 5:20**ni o'qing. To'qqizinchi amr nima? [10]

Biz boshqa odamlar haqida yomon gaplar aytganimizda, ular haqida g'iybat qilganimizda ularning hayotlarini barbod qilgan bo'lamiz. Agar jamoatda g'iybat avj olsa, odamlar bunday jamoatga bormay qo'yishadi.



Kelinglar, ibodat qilib, g'iybat qilganimiz uchun, boshqa odamlar haqida yomon gaplar aytganimiz uchun tavba qilaylik.

G'iybat tufayli jamoatga kelmay qolgan birodarlarimiz va opa-singillarimiz uchun ibodat qilaylik.

Muqaddas Ruhdan yordam so'raylik, U bizga o'zgarishimizga yordam bersin.

Xudoning kechirimi va sevgisidan bahramand bo'la olaylik!

**Qonunlar 5:21**ni o'qing. O'ninchi amr nima? [11]

Ko'z olaytirish nimani bildiradi? [12]

**Ibroniylarga 13:5** bizga nimani o'rgatyapti? Biz pulga qanday munosabatda bo'lishimiz kerak? [13]

Agar biz bori bilan qanoatlansak:

- Xudo bizga bergan narsalardan mamnun bo'lamiz.
- O'zimizda yo'q narsani deb, Xudoga shikoyat qilmaymiz.
- Birovning narsasiga ko'z olaytirmaymiz, hasad qilmaymiz.

Odamlar hech boylikka to'yadimi? [14]

Ko'p odamlar bolalari bilan deyarli vaqt o'tkazishmaydi, chunki juda ko'p vaqt ishlashadi.

Ayrim odamlar pul ishlash uchun oilalarini tashlab, boshqa yurtga ketishadi. Ular yillar davomida oilasini ko'rishmaydi.

Agar siz pul ishlash uchun begona yurtga ketgan bo'lsangiz, Xudodan donolik so'rang, qancha vaqt qolib ishlashingizni Xudo sizga aytsin.

Biron narsani xarid qilish uchun yoki qarzlarni yopish uchun ketib ishlash oson. Lekin farzandlaringiz uchun eng qimmatbaho narsa, bu — ota-onaning bag'rida o'sish. Ota-onalar farzandlariga mehr berishlari va Xudoga itoat qilishni o'rgatishlari darkor.



Xudoga ibodat qiling, U kimga hasad qilayotganingizni, nimaga ko'z olaytirganingizni ko'rsatsin.

Hasad va ko'z olaytirish, sizning istak-xohishlaringizga qanday ta'sir qilyapti? Ichingizdagi hasad kimga salbiy ta'sir ko'rsatyapti?

Bu orqali Xudo sizga nima aytmoqchi?

## Qanday qilib kechirim olish mumkin?

**1-Yuhanno 1:8–9**ni o'qing.

Agar gunohimiz yo'q desak, haqiqatni aytgan bo'lamizmi (8-oyat)? [15]

Xudodan kechirim olish uchun nima qilishimiz kerak (9-oyat)? [16]

Albatta, siz gunohlaringizni Xudoning O'ziga aytib, e'tirof qilishingiz mumkin. Lekin o'zingiz ishongan do'stingiz bo'lsa, gunohingizni uning oldida e'tirof qiling, bu kuchli quroldir, u hayotingizdagi gunohni yengishga yordam beradi.

Siz gunohni guruhingizga e'tirof qilishingiz mumkin. Lekin guruhda aytilgan narsalar guruhning ichida qolsin, **uni tashqariga chiqarmang**. Boshqalarning ishonchini suiiste'mol qilmaylik!

### Muhokama uchun

Jamoatingizdagi odamlar uchun bajariladigan eng qiyin amr nima?

Siz uchun eng qiyin amr qaysi biri?

**Xudoga hamdu sanolar bo'lsin, U bizga Muqaddas Ruhini berdi! Muqaddas Ruhning madadi bilan biz Xudoga manzur hayot kechira olamiz.**

**Bir-biringiz uchun ibodat qiling, Xudo bugun sizlarni Muqaddas Ruhga to'ldirishini so'rang.**

### Uyga vazifa

Navbatdagi darsga tayyorgarlik ko'rib, **Qonunlar 6-bobni** o'qing.

## Javoblar

- 1 – Xudo uchun birinchi navbatda bizning U bilan munosabatimiz muhim, keyin odamlar bilan munosabatimiz. Undan keyingina bizni mol-mulk va boshqa narsalar qiziqtirishi kerak.
- 2 – Ota-onangizni hurmat qiling.
- 3 – Odamlarga emas, Xudoga itoat qilishni o'rgatadi.
- 4 – Oltinchi amr «Qotillik qilmang».
- 5 – U yerda shunday yozilgan: *...o'z yaqinidan hatto g'azablangan odam ham hukm qilinadi. Yaqinini haqoratlagan odam oliy mahkamada javob beradi. Yaqiniga: «Ahmoqsan» degan odam esa, do'zax oloviga tashlanadi.* Demak, g'azab qotillik bilan barobar ekan.
- 6 – Yettinchi amr «Zino qilmang».
- 7 – Fohishaning oldiga borgan odam oilasini barbod qiladi, o'y-xayollari va tanasini bulg'aydi, tuzalmas xastalikka duchor bo'ladi.
- 8 – Xayolda qilingan ish, amalda qilingan ish bilan barobardir.
- 9 – Sakkizinchi amr «O'g'rilik qilmang».
- 10 – To'qqizinchi amr: «Qo'shningizga qarshi yolg'on guvohlik bermang».
- 11 – O'ninchi amr: «Birovning narsasiga ko'z olaytirmang».
- 12 – Ko'z olaytirish — o'zimizga tegishli bo'lmagan narsani kuchli istash deganidir.
- 13 – Biz pulga ko'ngil bog'lamasligimiz va bori bilan qanoatlanishimiz kerak.
- 14 – Hech qachon! Ko'pincha odamlar yanada ko'proq boylikka ega bo'lishni xohlashadi.
- 15 – Yo'q! O'zimizni aldagan bo'lamiz.
- 16 – Gunohlarimizni e'tirof qilishimiz kerak.

Qonunlar, 8-dars:

# Egangiz Xudoni seving



Ushbu dars davomida bizning Xudoga bo'lgan sevgimiz o'z hayotimizda qanday o'z aksini topishini o'rganamiz.

**Qonunlar 6-bobni** o'qing.

## Tanho Xudo

4-oyatda Xudo haqida nima yozilgan? [1]

Ibroniyl tilidan so'zma-so'z tarjimada mazkur oyatda shunday deb yozilgan: *YAHVEH bizning Xudo tanho YAHVEHdir.*

Ibroniyl tilida «tanho» so'zi — ehad. Bu so'zning ma'nosi «birlik». Ehad so'zi yana quyidagi oyatlarda ishlatilgan:

- Xudo Musoga Uchrashuv chodirining choyshabi haqida shunday ko'rsatmalar bergan edi: *Keyin oltindan ellikta ilgak yasattir, ikkala choyshabning halqalarini ilgaklar bilan bir-biriga ulat. Shunda Chodirning ichki qavati **bir butun** bo'ladi* (Chiqish 26:6).
- Xudo Hizqiyol payg'ambarga Isroil va Yahudo xalqlarini birlashtirishi haqida shunday degandi: «*Egamiz Rabbiiy demoqda: Men Isroil shohligini bildiruvchi tayoqni olaman. Uni Yahudo shohligining tayog'i bilan birlashtiraman. Ikkala tayoqni **bitta qilib**, qo'limda ushlayman*» (Hizqiyol 37:19).

Ayrim odamlar masihiylar uchta Xudoga sig'inadi, deb aytishadi. Bizning Xudoyimiz tanho, yagona Xudodir. YAHVEH yagona, barhayot, haq Xudodir. U yagona, «tanho» Xudo. Xudo odamlarning boshqa xudolarga sig'inishlarini istamaydi. Ayol kishining faqat bitta eri bo'lishi mumkin, shu singari bizning ham bittagina Egamiz Xudo bor. Boshqa ilohlarga sig'inish o'taketgan bevafoqlikdir. Shuning uchun Qonunlar 6-bobda shunday yozilgan: *Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun vujudingiz bilan sevinglar* (5-oyat).

Nega biz faqat Xudoga sajda qilishimiz kerak? [2]

## Bizning Xudoyimiz uchta shaxsdan iborat

Eski Ahdda ham, Yangi Ahdda ham Xudoning Uchbirlik tabiatini ko'rishimiz mumkin. Misol uchun,

- **Ibtido 1:26:** Bu oyatda Xudo O'ziga nisbatan «biz» deb aytadi, «men» emas. Bu yerda ham Xudoning uchbirlik tabiatini ko'rishimiz mumkin.
- **Ibtido 18:22:** Egamiz Xudo ham osmonda, ham yerdadir! Albatta, Otamiz Xudo osmonda, shunga qaramay Xudo yer yuzida Ibrohimga inson qiyofasida ko'rinib, u bilan yuzma-yuz gaplashdi. Biz Xudoning tanho ekanligini tushunsak, lekin U bizga turli tarzda ayon bo'lishini anglasak, Xudoning uchbirlik tabiati bizga tushunarliroq bo'ladi. Xudo Ibrohimning oldiga farishta yoki inson qiyofasida kelganda, shunday degandi: «*Egamiz: «Men qilmoqchi bo'lgan ishlarimni Ibrohimdan sir tutmayman», dedi O'ziga»* (Ibtido 18:17). Iso Masih bu dunyoda chaqaloq bo'lib tug'ilmasidan oldin, Eski Ahdda bir necha bor inson qiyofasida odamlarga zohir bo'lgan (Ibtido 32:22–31; Doniyor 3:24–25).
- **Chiqish 24:9–11:** Xudoning yuzini hech kim ko'ra olmaydi, chunki Uning yuzini ko'rgan odam tirik qolmaydi (Chiqish 33:20). U holda, nega bu odamlar Xudoni ko'rib turib, tirik qolishgan? Ular ilohiy Uchbirlikning ikkinchi shaxsini ko'rishgan, buni anglasak, hammasi tushunarli bo'ladi. Bir kun kelib U bu dunyoga qaytib keladi va barcha tirik jon uni ko'radi.
- **Matto 22:43–45:** Iso Zabur kitobi, 109-sanoni iqtibos qilganida, Masih Xudoning tabiatiga ega ekanligini ko'rsatmoqchi edi. Xudo bir vaqtning o'zida ham osmonda, ham yer yuzidadir.
- **Yuhanno 14:16–17:** Xudoning O'g'li Iso Masih, Otasi Xudoga murojaat qilib, yer yuziga Muqaddas Ruhni yuborishni iltimos qilmoqchi. Samodagi Xudo yer yuzidagi O'g'lining iltijolariga quloq solgan. U bizga Muqaddas Ruhni yuborgan, Muqaddas Ruh biz aro maskan qurgan. Ushbu oyatlarda biz ilohiy Uchbirlikning barcha shaxsiyatlarini ko'ramiz.

Yangi Ahdda biz Xudoning Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh ekanligini ko'ramiz. Xudo Uch shaxsiyatning mukammal birligidir. Xudoning Uchbirlik tabiatini tushunish g'oyat ajibdir! Xudo uzoqdagi Xudo emas, aksincha U bizga juda yaqin. Koinotni boshqarib turgan qudratli Xudo, inson qalbini O'ziga maskan qilgan!

Xudo — Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh ekanligi nega shu qadar ajib? [3]

### Qo'shimcha ma'lumot: Kimning nomi bilan?

**Matto 28:18–20**ni o'qing. Biz odamlarni Kimning nomi bilan suvga cho'mdiramiz? [4]

**Yuhanno 14:13**ni o'qing. Biz Xudoga ibodat qilganimizda, Kimning nomidan so'rashimiz kerak? [5]

**Ibroniylarga 10:19**ni o'qing. Nega biz Iso Masih nomi bilan ibodat qilamiz? [6]

Bu biz uchun katta sharafdir! Biz Rabbimiz Iso Masih tufayli Xudoning huzuriga kira olamiz!

Qonunlar 6:21, 23da Xudo haqida nima yozilgan? [7]

Faqatgina Rabbimiz Xudo Isroil xalqini Misrdagi qullikdan ozod qila olardi. Boshqa xudolar bunda aslo yordam bera olishmasdi.

Qonunlar 6:10–12da Xudoning fe'l-atvori haqida nimalar yozilgan? [8]

Xudo saxiy Xudodir!

## Xudoning xalqi qanday yashashi kerak?

Xudoning sadoqati va saxiyligiga javoban Uning xalqi qanday yashamog'i darkor (Qonunlar 6:5)? [9]

Xudoning xalqi faqat Egasi Xudoni sevishi kerak! Boshqa hech kim yoki hech narsa ularning hayotida birinchi o'rinni egallashi kerak emas. Agar ular Xudodan boshqa bir narsani yoki kimsani sevishsa, demak ular butparastlikka berilgan bo'ladi. Oqibatda ular itoatkorlikdan keladigan barakalardan mahrum bo'ladilar.

### 1-Chaqiriq

Eski Ahdga ko'ra, inson **yuragi** bilan qaror qiladi. Misol uchun, Hikmatlar 3:1–3da shunday yozilgan: *O'g'lim...amrlarimni **yuragingda** saqla...sevgi va sadoqatni **yuraging** qa'riga yozib qo'y.*

Biz qarorlar qilganimizda, Xudoni mamnun qilishga harakat qilamizmi?

- Siz har kuni ertalab ishga ketishdan oldin ibodat qilasizmi? Muqaddas Kitobni o'qiysizmi?
- Siz do'stlaringiz va ulfatlaringizning oldiga borishdan ko'ra, jamoatga borishni afzal ko'rasizmi?
- Sizning jahlingizni chiqargan, jig'ingizga tekkan oilangiz a'zolari va hamkasabalarangiz uchun ibodat qilasizmi?
- Telefonangizni titkilashni xohlasangiz ham, uni bir chetga surib, boshqalarga xizmat qilasizmi?
- Siz telefon va televizorda faqat ijobiy va foydali narsalarni ko'rasizmi?

Egangiz Xudoni butun **qalbingiz** bilan seving (Qonunlar 6:5).

Eski Ahdga ko'ra, barcha his-tuyg'ularimiz bizning **jonimizda** jamlangan. Misol uchun, 102-sanoda shunay yozilgan: *Egamizni olqishlagin, ey **jonim**,..*

Biz his-tuyg'ularimiz va istaklarimiz bilan Xudoni mamnun qilishga harakat qilamizmi?

Biz qaysi birini **istagan** bo'lardik:

- Ko'proq pul ishlashnimi yoki birodarlarimiz bilan vaqt o'tkazishnimi?
- Ko'proq pul ishlashnimi yoki oilamiz va farzandlarimiz bilan vaqt o'tkazishnimi?
- Oxirgi yangiliklarni eshitishnimi yoki Muqaddas Kitob orqali Xudo bilan muloqot qilishnimi?
- Birinchi duch kelgan imonsiz odam bilan turmush qurishnimi yoki Xudo biz uchun atab qo'ygan imonli insonni kutishnimi?
- Jahlimiz chiqqanida g'azab sochishnimi yoki o'zimizni idora qilishni mashq qilishnimi?

Egangiz Xudoni **jonu dilingiz** bilan seving (Qonunlar 6:5)

Biz Xudoni bor kuchimiz bilan, ya'ni butun **vujudimiz** bilan sevishimiz kerak!

Egangiz Xudoni **butun qalbingiz** bilan, **jonu dilingiz** bilan, **butun vujudingiz** bilan sevinglar (Qonunlar 6:5)

Demak, biz kimni mamnun qilmoqchimiz: o'zimiznimi yoki Xudonimi?

Xudoni sevish deganda — Xudodan qo'rqish, butlardan esa qo'rqmaslik tushuniladi. Isroil xalqi Kan'on yurtida odamlar sig'inadigan butlardan qo'rqmasligi kerak edi.

**Qonunlar 6:13–17**ga ko'ra, Isroil xalqi Xudodan qay tarzda qo'rqishi kerak edi? [10]

Biz odamlardan va ularning qarg'ishlaridan qo'rqishimiz kerak emas. Biz folbinlar oldiga bormasligimiz, «avliyolarni» ziyorat qilmasligimiz, «nafasi kuchli» odamlarga maslahat solmasligimiz va qabristonga borib duo qilganlarga qo'shilmasligimiz kerak.

### Massaxda yuz bergan voqea (Qonunlar 6:16)

Isroil xalqi Xudodan va Musodan norozi edi. Ularning ichadigan suvi qolmagan edi. Xudo ularga suv berishiga ular ishonmagan edilar. G'azabga mingan xalq Musoni toshbo'ron qilish arafasida edi. Xudo ular uchun ko'p mo'jizalar qilgan bo'lsa-da, ular Xudodan shubhada edilar. Shu sababdan Xudo ulardan qattiq ranjigan edi (Chiqish 17:1–7).

Bu oyatlarga ko'ra, qanday qilib xalq *Xudoni sinagan* edi? [11]

*Biz ham Xudoni sinaymizmi?* Bunga misollar keltiring. [12]

**Qonunlar 6:6–9**ni o'qing.

***Bugun men sizlarga bergan bu amrlarni yuragingizda saqlanglar:*** Demak, biz har qanday qaror chiqarganimizda Xudoning amrlariga tayanishimiz kerak.

Isroil halqi Xudoning amrlarini yuraklarida saqlashlari uchun nima qilishlari kerak edi (Qonunlar 6:7–9)? [13]

## 2-Chaqiriq

Qanday qilib biz Xudoning amrlarini yuragimizda saqlay olamiz? [14]



Qanday qilib biz Muqaddas Kitobni farzandlarimizga o'rgata olamiz? [15]

***Xudoning amrlarini qo'llarimizga belgi qilib bog'lab olishimiz:*** Biz qo'llarimiz bilan mehnat qilamiz. Demak, biz nimaiki qilsak, Xudoning amrlariga tayanishimiz kerak.

### 3-Chaqiriq

Biz qo'llarimiz bilan qanday yaxshi ishlar qila olishimizga misollar keltiring. [16]

Biron bir ish qilishdan oldin doim Xudodan: «Bu vaziyatda men qanday qilib Senga xizmat qila olaman?» — deb so'rang.

Biz qo'llarimiz bilan qanday yomon ishlar qila olamiz? Bunga misollar keltiring. [17]

O'zingizga: «Bu vaziyatda Iso nima qilgan bo'lardi?» — degan savolni berib turing.

**Xudoning amrlarini peshanamizga nishon qilib taqib olishimiz:** Bu degani biz qayerga borsak ham Xudoning amrlari bizga yo'l qo'rsatishi kerak. Biz Xudoning Kalomini muntazam ravishda o'rganar ekanmiz, Iso Masihning irodasini bilib olamiz, qayerga borishimiz kerakligini va qayerga bormasligimiz kerakligini tushunamiz.

### 4-Chaqiriq

Biz bora oladigan yaxshi joylarni misol qilib keltiring. [18]

Biz borishimiz kerak bo'lmagan yomon joylarni misol qilib keltiring. [19]

**Eshigi kesakisiga... yozib olishlari kerak:** Bu degani uyimizda yashagan va uyimizga kelgan har bir odam xonadonimizda Masih istiqomat qilishini bilishlari kerak.

### 5-Chaqiriq

Uyingizda yashagan va uyingizga kelgan har bir odam siz Xudoni sevishingizni bilishi uchun nima qilishingiz kerak? [20]



Muqaddas Kitobdan oyatlarni odamning ko'zi tushadigan joylarga yozib qo'yishingiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bular odamlarga Xudoning Kalomini esga soladi. Oyatlarini ko'zgu oldiga yoki eshik oldiga yozib qo'yish ham juda yaxshi.

Siz qaysi oyatlarni uyingiz devorlariga osib qo'ygan bo'ladingiz, bir nechta misol keltiring. [21]

Muqaddas Kitob oilangiz va xonadoningizda muhim o'rin tutishi uchun siz nima qilishingiz mumkin?

**Darvozalariga yozib olishlari kerak:** Qonunlar kitobi yozilgan davrda shahar darvozalari muhim ahamiyatga ega edi, chunki barcha muhim masalalar aynan darvoza binosida joylashgan mahkamalarda hal qilinardi. O'sha joylar hozirgi hokimiyat yoki parlament vazifasini bajarardi (**Rut 4:1–4**ga qarang).

Xudoning amrlarini shahar darvozalariga yozish degani, aholiga taalluqli barcha masalalar faqat ilohiy amrlar asosida hal qilinishi kerakligini bildirardi.

Bugungi kunda Xudoning xalqi bir davlatga qarashli fuqarolar emas, ular butun dunyo bo'ylab yoyilganlar. Masihiylar o'z jamiyatlarining farovonligi uchun bel bog'lab mehnat qilishmoqda: yetim-yesirlarga g'amxo'rlik qilishmoqda, nochor-kambag'allarga yordam berishmoqda, musofirlarga oziq-ovqat, qamoqdagilarga umid, qullikdagi ayollarga ozodlik, nogironlarga mehr ulashmoqda; tobelikka duchor bo'lganlarni ozodlikka chiqarishmoqda, istirohat bog'lari va ko'chalarni axlatdan tozalashmoqda va shunga o'xshash ko'plab xayrli ishlar qilishmoqda.

Xudoning odamlari mehrga boy odamlardir: ular o'zgalarga sevgi ulashmoqda, o'zlariga o'xshamagan odamlarga yordam berishmoqda, hatto dushmanlariga yaxshilik qilishmoqda. Ular qayerda muhtojlik ko'rishsa, o'sha yerga borib yordam berishmoqda (Rimliklarga 12:14–21).

## 6-Chaqiriq

Qanday qilib siz o'zingiz yashagan joyda sevgini amalda ko'rsatishingiz mumkin?

**Siz bugun Xudo haqida nimalarni bilib oldingiz?**

**Bu dars ta'sirida siz o'z hayotingizda nimalarni o'zgartirmoqchisiz?**

## Uyga vazifa

Keyingi darsga tayyorgarlik sifatida **Qonunlar 7:1–11**ni o'qing. So'ng 9-darsdagi ikkita jadvalni to'ldiring (5 va 6-savollar). Keyingi safar guruhingiz bilan ko'rishganingizda javoblaringizni birgalikda muhokama qiling.

## Javoblar

- 1 – Egamiz Xudo tanho Egadir.
- 2 – *YAHVEH* yagona, barhayot, haq Xudodir. Boshqa ilohlarga sig'inish o'taketgan bevafoqlikdir.
- 3 – Xudo uzoqdagi Xudo emas, U doimo yonimizda. U butun koinotning Sarvari bo'la turib, bizning ichimizda yashamoqda.
- 4 – Biz odamlarni Ota, O'g'il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho'mdiramiz.
- 5 – Xudodan hammasini Iso Masih nomi bilan so'raymiz.
- 6 – Biz Iso Masihning nomi bilan ibodat qilamiz, chunki Iso Masihning to'kkan qoni orqaligina Xudoning huzuriga dadillik bilan kira olamiz.
- 7 – Xudo Isroil xalqini va'da qilgan yurtga olib kirishi uchun, ularni Misrdagi qullikdan ozod qildi.
- 8 – Xudo saxiy Xudodir, U O'z xalqiga va'da qilingan yurtda kerakli hamma narsani ortig'i bilan beradi.
- 9 – Bunga javoban ular Egasi Xudoni butun qalbi bilan, jonu dili bilan, butun vujudi bilan sevishlari kerak edi.
- 10 – Isroil xalqi faqat Xudoga xizmat qilishlari, yolg'iz Uning nomi bilan qasam ichishlari va Uning qonunlariga rioya qilishlari kerak edi.
- 11 – Xalq Xudoga ishonmadi, Xudo ularga kerakli hamma narsani yetkazib berishiga shubha qilishdi, ularning jahli chiqdi.
- 12 – Biz Xudoga ishonmaganimizda, U bizga kerakli hamma narsani yetkazib berishiga shubha qilganimizda va Undan norozi bo'lganimizda Xudoni sinagan bo'lamiz.
- 13 – Ular Xudoning qonunlarini bolalariga o'rgatishlari. Uyda o'tirganda ham, yo'lda yurganda ham, yotganda ham, turganda ham shular haqida gapirishlari, qonunlarni qo'llariga belgi qilib bog'lashlari, peshanalariga nishona qilib taqib olishlari, eshigi kesakisiga, darvozalariga yozib olishlari kerak edi.
- 14 – Biz har kuni Muqaddas Kitobni o'qishimiz, u haqda mulohaza qilishimiz va uni yod olishimiz kerak. Kun davomida qarorlar chiqarishda Xudoning amrlariga tayanishimiz va Muqaddas Kitobga amal qilishimiz darkor.
- 15 – Biz yosh farzandlarimiz bilan birga «Bolalar uchun Muqaddas Kitob»ni o'qishimiz kerak. Yurganimizda, o'tirganimizda, suhbatlashganimizda Muqaddas Kitob oyatlarini qo'shiq qilib aytishimiz, Muqaddas Kitob hikoyalarini so'zlab berishimiz kerak. Xudo ibodatlarimizga qay tarzda javob berganini va Iso Masih hayotimizni qanday o'zgartirgani haqida guvohliklar aytishimiz lozim.
- 16 – Biz qo'llarimiz bilan turli ishlar qilishimiz mumkin. Misol uchun, sovg'alar berishimiz, qiyin vaziyatga tushgan tanishlarimizga ruhini ko'taradigan xatlar, xabarlar yozishimiz; uyda, jamoatda, jamiyatda zarur bo'lgan yordamni ko'rsatishimiz va shunga o'xshash ko'plab xayrli ishlar qilishimiz mumkin.
- 17 – Biz qilmasligimiz kerak bo'lgan yomon ishlar: o'g'rilik, urishish, dangasalik, internetda yomon, ahloqsiz narsalarni ko'rish va hokazolar.
- 18 – Jamoat yig'ilishiga borish, kasalni yo'qlash, azador uyga borish, Masihning sevgisini ulashish uchun birovni ko'rgani borish.
- 19 – Zo'ravonlik va ahloqsizlik haqidagi kinolarni ko'rmang; ishga borish uchun jamoatingiz yig'ilishini qoldirmang; yomon odamlarga ulfat bo'lmang, gunohkorlarning yig'inlarida o'tirmang.
- 20 – Eng muhim narsa — odamlar siz orqali Xudoning muhabbati nur sochayotganini ko'ra olishidir. Ovqatdan oldin duo qiling. Xudo haqida va U sizning duolaringizga qanday javob berganligi haqida gapiring. Odamlar uyingizdan chiqib ketayotganda ularga baraka tilang. Shuningdek, uyingizda Xudoning Kalomidan oyatlar ko'rinib tursa, odamlarga Xudoning Kalomi siz uchun muhim ekanligini ko'rsatadi.
- 21 – Misollar:
  - Ibroniylarga 13:6
  - 2-Korinfliklarga 12:9
  - Zabur 22
  - Hikmatlar 3:5–6
  - Zabur 39:1–3

Qonunlar, 9-dars:

# Va'da qilingan yurtni qo'lga kiritish



Ushbu darsda biz 5 ta savoldan iborat bo'lgan usul bilan tanishib olamiz, bu usul bizga Xudoyimiz naqadar ajoyib ekanligini ko'rsatadi.

**Qonunlar 7:1–11**ni o'qing.

## Kan'on xalqining yo'q qilinishi

Kan'on yurtida yashagan odamlar o'ta qabih va yovuz edilar. Ular hattoki o'z farzandlarini soxta xudolariga qurbonlik qilib, olovda kuydirishardi. Xudo bu qabih xalqni qilgan jirkanch ishlari uchun jazolamoqchi edi.

Xudo Kan'on yurtini O'zining xalqiga bermoqchi edi. Xudoning xalqi dunyodagi barcha xalqlar uchun o'rnak bo'lishi, turmush tarzi boshqalarga namuna bo'lishi kerak edi. Ular orqali odamlar Xudoning buyukligi va donoligini ko'ra olishlari va Xudoga muntazir bo'lishlari kerak edi.

Kan'on xalqining yo'q qilinishi, insoniyat tarixida boshqalar uchun saboq bo'ldi. Bundan biz qabihlikdan voz kechishni o'rganishimiz kerak, boshqa xalqlarni jazolashni emas.

Kan'on xalqining ayanchli taqdiri — Yaratgan Xudoga itoat qilmagan barcha xalqlar uchun **ogohlantirish** bo'lishi kerak edi. Qiyomat kuni Haq Xudo butun insoniyatni jazolaydi, U har qanday yovuzlikka chek qo'yadi.

Xudo Ibrohimga bergan va'dasi ustidan chiqdi, Ibrohimning avlodlarini va'da qilgan yurtga olib kirdi. Bu bizga **Xudo va'da qilgan abadiy maskanni** eslatib turadi. Xudoga sodiq bo'lgan odamlar o'sha abadiy maskanga yetishadi. Yaqinda Iso Masih qaytib keladi va O'z xalqini yangi Quddusga olib ketadi. Samoviy vatanimiz mukammal bir joy bo'ladi, u yerda hech kim ko'z yosh to'kmaydi, o'lim mavjud bo'lmaydi, hych kim qayg'urmaydi, kasal bo'lmaydi, azob chekmaydi (Vahiy 21:4)!

Nega Kan'on yurtida yashagan odamlar yo'q qilinishi kerak edi? [1]

Kan'onida yashagan qabih xalqning yo'q qilinishi bizga nimani eslatadi? [2]

Isroil xalqiga va'da qilingan yurt bugungi kunda bizga nimani eslatadi? [3]

**Yuhanno 3:16–17**ni o'qing. Qanday qilib biz abadiy hayotga ega bo'la olamiz? [4]

## Oyatni o'rganish

Quyidagi beshta savol bizga Muqaddas Kitobning har qanday oyatini o'rganishda yordam beradi:

1. Bu oyatlarda Xudo (ya'ni Ota, O'g'il yoki Muqaddas Ruh) haqida nimalar yozilgan?
2. Bu oyatlarda odamlar haqida nima yozilgan?
3. Oyatda quyidagilardan qaysi biri yoritilgan:
  - Bajarilishi kerak bo'lgan buyruq,
  - Quloq solish kerak bo'lgan ko'rsatma,
  - Yoki o'rnak olish kerak bo'lgan namuna.
4. Ushbu oyat orqali Xudo bizga nimani o'rgatyapti?
5. Siz buni kim bilan o'rtoqlasha olasiz?

Qonunlar 7:1–11ni o'rganar ekanmiz, mana shu savollardan foydalanaylik.

## 1. Bu oyatlarda Xudo (ya'ni Ota, O'g'il yoki Muqaddas Ruh) haqida nimalar yozilgan? [5]

Quyidagi jadvalni to'ldiring. So'ng bergan javoblaringizni «Javoblar» ruknidagi 5-javob bilan solishtiring (ushbu dars oxirida berilgan).

Jadvalda qo'shimcha bir rukn berilgan, siz u yerga Yangi Ahddan ma'no jihatdan mos keladigan oyatni yozishingiz mumkin.

Agar siz bu vazifani uy ishi tariqasida bajargan bo'lsangiz, u holda bergan javoblaringiz bilan guruhingizda o'rtoqlashing.

<b>7:1–11-oyatlar</b>	<b>Bu oyatlardan biz Xudo haqida nimalarni bilib oldik?</b>	<b>Yangi Ahddan ma'no jihatdan mos keladigan oyatlar</b>

## 2. Bu oyatlarda odamlar haqida nima yozilgan? [6]

Quyidagi jadvalni to'ldiring. So'ng bergan javoblaringizni «Javoblar» ruknidagi 6-javob bilan solishtiring (ushbu dars oxirida berilgan).


<b>7:1–11-oyatlar</b>	<b>Bu oyatlardan biz odamlar haqida nimalarni bilib oldik?</b>	<b>Yangi Ahddan ma'no jihatdan mos keladigan oyatlar</b>


Eski Ahd Xudoning xalqini Yangi Ahd davrida keladigan Masihning kelishiga tayyorlagan edi. Yangi Ahddagi Xudo haqidagi ta'limot Eski Ahdnikidan aslo farq qilmaydi. Xudoning xalqi hech qachon o'z kuchi bilan muqaddas bo'la olmaydi, ular faqatgina Muqaddas Ruhning qudrati bilan Rabbimiz istaganday muqaddas bo'la oladilar!

Biz 3-savolga javob berishimizdan oldin, kontekstni hisobga olishimiz lozim.

## Kontekstni esda tuting

Biz Eski Ahdni o'rganar ekanmiz, **xochdan keyingi** davrda, ya'ni Iso Masih o'lib tirilganidan keyin yashayotganimizni esimizda tutishimiz kerak. Bular quyidagilarni bildiradi:



- Rabbimiz Iso Xudoning barcha amrlarini mukammal darajada bajardi va biz uchun mukammal qurbonlik bo'ldi. Endi U biz bilan Yangi Ahd tuzib, yangi amrlarni berdi.
- Bugungi kunda bizda va'da qilingan jismoniy yurt yo'q. Biz va'da qilingan yurt uchun jang qilishimiz shart emas. Masihiylar bir geografik hududda yashamaydi, balki dunyoning har bir mamlakatida istiqomat qiladilar. Biz kelajakka, Masihning qaytib kelishiga umid bilan boqamiz va U bilan abadiy maskanda yashashga ko'z tikkanmiz.

Shunday ekan, biz Eski Ahddagi Xudoning amrlarini o'qiganimizda, Yangi Ahdda ular haqida nimalar yozilganiga e'tibor qaratishimiz kerak.

## 3. Xudoning xalqi itoat qilishi kerak bo'lgan amrlar, quloq tutishi kerak bo'lgan ogohlantirishlar va o'rnak olishi kerak bo'lgan namunalar bormi? [7]

Quyidagi jadvalni to'ldiring. So'ng bergan javoblaringizni «Javoblar» ruknidagi 7-javob bilan solishtiring (ushbu dars oxirida berilgan).

7:1–11-oyatlar	Amr/ogohlantirish/ namuna	Bugungi kunda bularga rioya qilishimiz kerakmi?	Nimaga? Yangi Ahdda bu haqda nimalar yozilgan?

Ikki muhim masala:

1. Masihiy odam imonsiz bilan turmush qurganida, hayotning ko'p masalalarida qiyinchiliklarga duch keladi. Odatda masihiy turmush o'rtoq jamoatga bora olmaydi va farzandlariga Masihning ta'limotini o'rgata olmaydi. Ko'pincha qarashlardagi va qadriyatlardagi farq tufayli, bunday oilada ko'p tushunmovchiliklar bo'lib turadi. Bunday vaziyatda masihiy odamning Xudoga bo'lgan sevgisi sovib boradi.
2. Biz butlarga sajda qilishdan to'xtashimiz kerak, buning uchun ko'zmunchoqlardan, tumorlardan, munajjimlar bashoratlari va taqvimlardan, boshqa dinlarning muqaddas kitoblari va udumlaridan voz kechishimiz kerak. Albatta, agar siz xonadon boshi bo'lmasangiz, bulardan voz kechishingiz balki imkonsizdir. Xonadoningizdagilar uchun ibodat qiling, butparastlik Xudoni qanchalar xafa qilishini ular tushunishsin!

10-darsda biz Eski Ahdning qaysi amrlariga bugun ham amal qilishimiz kerakligi haqida gaplashamiz.

## 4. Ushbu oyat orqali Xudo bizga nimani o'rgatyapti?

## 5. Siz buni kimlar bilan o'ртоqlasha olasiz?

### Uyga vazifa

Bu hafta har kuni Qonunlar kitobidan quyida berilgan bittadan parchani o'qib, yuqoridagi beshta savolga javob bering:

1. 7:12–26
2. 8:1–20
3. 9:1–6
4. 9:7–29
5. 10:1–11
6. 10:12–22
7. 11:1–32

## Javoblar

- 1 – Qan'on xalqi o'ta qabih bo'lgani uchun yo'q qilinishi kerak edi.
- 2 – Qiyomatda hamma xalqlar jazolanadi va yovuzlik butkul yo'q qilinadi.
- 3 – Isroil xalqiga va'da qilingan yurt bizga abadiy maskanimizni eslatadi. Xudo bu joyni O'z xalqi uchun tayyorlagan, bu joyning nomi YAngi Quddus.
- 4 – Agar biz Iso Masihni Najotkorimiz deb qabul qilsak, abadiy hayotga ega bo'lamiz.
- 5 –

Oyatlar	Bu oyatlardan biz Xudo haqida nimalarni bilib oldik?	Yangi Ahddan ma'no jihatdan mos keladigan oyatlar
1-oyat	Xudo O'z xalqiga Kan'on yurtini mulk qilib berayotgan edi.	<i>Shundan so'ng Xudoning va'dasi amalga oshib, hamma narsa yangilanadi. Ha, biz yangi yeru osmonga, adolat hukm suradigan dunyoga ko'z tikkanmiz (2-Butrus 3:13).</i>
1–2,10-oyatlar	Xudo O'ziga qarshilik qilgan xalqlarni yo'q qilmoqchi edi.	<i>O'sha odamlar Rabbimiz Isoning huzuri va qudratli ulug'vorligidan ayrilib, abadiy halokat jazosini oladilar. O'sha kuni Rabbimizni Uning muqaddas xalqi ulug'laydi. Unga ishongan hamma odamlar Uni madh qiladi. Sizlar ham o'sha insonlarning qatoriga kirasiz, chunki biz aytgan xabarga ishondingiz (2-Sal.1:9–10).</i>
6-oyat	Xudo O'zi uchun ayrim odamlarni tanlab, ularni muqaddas xalq qildi.	<i>Ammo sizlar — tanlangan bir nasl... (1-Butrus 2:9)</i>
7–8-oyatlar	Xudo O'z xalqini shu qadar sevdiki, ularni Misrdagi qullikdan qutqardi. Ular bu sevgiga noloyiq edilar.	<i>Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O'zining yagona O'g'lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birontasi halok bo'lmasin, balki abadiy hayotga ega bo'lsin (Yuhanno 3:16).</i>
8-oyat	Xudo O'z va'dalariga sodiq Xudodir. U Ibrohim, Is'hoq va Yoqubga Ibtido kitobida bergan va'dalarini amalga oshirdi.	<i>Barnabo bilan men esa bu Xushxabarni sizlarga e'lon qilmoqdamiz: Xudo Isoni tiriltirdi! Shu orqali ota-bobolarimizga bergan va'dasini ularning farzandlari bo'lmish bizlar uchun bajardi. Bu haqda Zaburning ikkinchi sanosida shunday yozilgan: «Sen Mening O'g'linsan, bugun Men Senga Ota bo'ldim» (Havoriylar 13:32–33).</i>

<b>9–10-oyatlar</b>	Xudo sodiq Xudodir! Uni sevadigan, Uning amrlarini bajaradiganlarning minginchi avlodigacha ahdini sodiq saqlaydi. Undan nafratlanganlarni esa albatta jazolaydi.	<i>Kim bizni Masihning mehr-muhabbatidan ajrata oladi? (Rim. 8:35)</i>  <i>Hozirgi yeru osmonni esa Xudo O'z kalomi bilan qiyomat kunigacha asrab turibdi. Qiyomat kuni U hozirgi dunyoni olovga yem qilib, barcha betavfiqlarni halok etadi (2-Butrus 3:7).</i>
---------------------	---	--

6 –

<b>Oyatlar</b>	<b>Bu oyatlardan biz odamlar haqida nimalarni bilib oldik?</b>	<b>Yangi Ahddan ma'no jihatdan mos keladigan oyatlar</b>
<b>6-oyat</b>	Xudoning xalqi Uning uchun muqaddasdir (Xudo O'zi uchun tanlab, ajratib olgan bir xalqdir).	<i>Ammo sizlar — tanlangan bir nasl, ruhoniylar shohligi, muqaddas qavm, Xudoning aziz xalqisiz (1-Butrus 2:9).</i>
<b>7–8-oyatlar</b>	Isroil xalqi Xudoning inoyatiga noloyiq edi. Ular Xudoning ko'rsatgan sevgisi va mehriga loyiq bo'lish uchun arzigulik hech narsa qilmadilar.	<i>Ammo mehr-shafqatga boy Xudo O'zining bizga bo'lgan buyuk muhabbatini quyidagicha ko'rsatdi: garchi biz gunohlarimiz tufayli ruhan o'lik bo'lsak ham, Xudo bizni Masih bilan birga tiriltirdi (Efes. 2:4–5).</i>
<b>8-oyat</b>	Xudo Isroil xalqini qullikdan ozod qildi (yuksak baho evaziga ularni sotib oldi)	<i>Masih esa bizni qonun la'natidan xalos qildi. U xochga mixlanganda bizning o'rnimizga la'natlandi (Gal. 3:13).</i>


7 –

<b>Oyatlar</b>	<b>Amr/ogohlantirish/namuna</b>	<b>Bugungi kunda bularga rioya qilishimiz kerakmi?</b>	<b>Nimaga? Yangi Ahdda bu haqda nimalar yozilgan?</b>
<b>2-oyat</b>	Xudo Isroil xalqiga Kan'on yurtida yashagan barcha butparastlarni tamomila qirib yuborishni amr qilyapti.	Yo'q	<i>...dushmanlaringizni yaxshi ko'ringlar (Matto 5:43–44).</i>  Bizning haqiqiy dushmanimiz shaytondir (1-Butrus 5:8). Bu yerda shaytonni yaxshi ko'rish nazarda tutilmagan!
<b>3-oyat</b>	Xudo ularga mahalliy xalq bilan quda-andachilik qilishni qat'iy man qilyapti (chunki ularning hammasi butparast bo'lgan).	Ha	<i>Imonsizlar bilan sherik bo'lmanglar (2-Kor. 6:14).</i>  <i>Agar eri o'lsa, u istagan kishiga turmushga chiqishi mumkin, faqat u erkak Rabbimiz Isoga tegishli bo'lishi kerak (1-Kor 7:39).</i>

<b>5-oyat</b>	Isroil xalqi ularning qurbongohlarini buzishi, butsimon toshlarini parchalab tashlashi, Asheraga atalgan ustunlarni kesib, butlarini yondirishi shart edi.	Ha	<i>Afsungarlik bilan mashg'ul bo'lganlarning bir qanchasi kitoblarni to'plab, ommaning ko'zi oldida yoqib yubordilar. Bu kitoblarning qiymati hisoblanganda, ellik ming kumush tanga chiqdi (Havoriylar 19:19).</i>
<b>11-oyat</b>	Xalq Musoning bergan amrlarini, farmonlari va qonun-qoidalarini bitta qoldirmay bajarishi kerak edi.	Ha — Xudoning xalqi Yangi Ahdda tasdiqlangan barcha amrlarga amal qilishi kerak. Bu amrlar Xudoni sevish va o'zgani sevish amrlariga tayanadi.	<i>Meni, Tavrot yoki payg'ambarlarning bitiklarini bekor qilgani kelgan, deb o'ylamanglar. Men bekor qilgani emas, balki bajo keltirgani keldim (Matto 5:17).</i>  <i>«Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan seving». Bu birinchi va eng buyuk amr. Ikkinchisi esa shunga o'xshashdir: «O'zgani o'zingizni sevganday seving». Butun Tavrot va payg'ambarlarning hamma bitiklari mana shu ikki amrga tayanadi (Matto 22:37–40).</i>

## Qonunlar, 10-dars:

# Xudoning qonuni



Bugungi darsimizda biz Xudoning qonuni qanchalar ajoyib ekanligini tushunib olamiz!

Biz 12–26-boblarni o‘qiyimiz, u yerda Xudo Musoga qonunlar va ko‘rsatmalarni bergan.

Agar siz bu boblarni o‘qimagan bo‘lsangiz, shu hafta davomida bu boblarni albatta o‘qib chiqing.

**Qonunlar 26:16–19**ni o‘qing.

16-oyatda Xudo Isroil xalqiga nima qilishni buyurmoqda? [1]

Xudoga chala itoatkorlik kerak emas. Xudoning xalqi mukammal itoatkorlikdan keladigan xursandchilikni tatib ko‘rishi kerak edi.

Berilgan barcha farmon va qonun-qoidalarining maqsadi xalqqa Xudoni va boshqa odamlarni sevishni o‘rgatish edi.

Odatda biz qonun-qoidalariga rioya qilish qiyin deb o‘ylaymiz. Qonun bo‘yicha yashash odamning hayotini zerikarli qiladi, deb ishonamiz. Aslida esa, qonunga amal qilish odamga xursandchilik, xavfsizlik va hurmat-e‘tibor olib keladi!

Biz quyidagi oyatlardan Xudoning qonuni haqida nimalarni bilib olamiz?

**Zabur 18:8** [2]

**Zabur 118:97–99** [3]

## Qonunlar kitobidagi amrlar

Qonunlar kitobidagi amrlar Xudo xalqining hayotidagi deyarli barcha sohalarga taalluqlidir. Bularga quyidagilar kiradi:

- Xudoga qayerda sajda qilish
- Halol va harom yeguliklar
- Ushr
- Bayram va marosimlar
- Shohning vazifalari
- Adolat masalalari
- Xudoni mamnun qiladigan tarzda jang qilish usullari
- Nikoh va jinsiy poklik

### Xudoning qonunlari

#### Qayerda sajda qilish

Isroil xalqi Xudoga faqat bir joyda sajda qilishi kerak edi. Bu joyni ularga Xudoning O'zi ko'rsatgan (Qonunlar 12:1–14). Bu Kan'on xalqining sajda udumlaridan butkul farq qilardi, chunki ular har qanday joyda ko'plab xudolariga topinardilar. Isroilning Xudosi tanho bo'lgani uchun, Unga odamlar faqatgina bir joyda sajda qilishlari shart edi.



Isroil xalqi sahroda yashagan paytda Xudoga Uchrashuv chodirida sajda qilishardi. Ular bir joydan boshqa joyga ko'chib yurganlarida, Uchrashuv chodirini o'zlari bilan olib yurishardi (Chiqish 25–27-boblar).

Isroil xalqi va'da qilingan yurtga o'rnashib olganidan keyin shoh Sulaymon Xudoga atab hashamatli bir Ma'badni qurdi. Xudo O'z xalqi bilan aynan o'sha Ma'badda uchrashadigan bo'ldi (1-Shohlar 7–9-boblar).

Xudoning xalqi uchun eng muhim vazifa bu Xudoga sajda qilishdir.

Qonunga ko'ra, Isroil xalqi Xudoga qayerda sajda qilishi kerak edi? [4]

#### Oziq-ovqat

Isroil xalqiga ba'zi hayvonlarning go'shtini yeyish man etilgandi (Qonunlar 14:1–21). Bu muqaddaslikning ramzi edi, ya'ni xalq Xudo uchun ajratib olinganini bildirardi. Ular butparast xalqlarga o'xshamasliklari va ularga taqlid qilmasliklari kerak edi.



Qadimgi vaqtlarda faqat boylar go'sht yeya olishardi. Go'sht tansiq taom hisoblanib, faqat Xudoga qurbonlik keltirilgan paytda yeyiladigan maxsus bir taom edi.

Yovvoyi va etxo'r hayvonlar harom hisoblanib, ularning go'shtini yeyish man etilgandi.

Bunday qonun-qoidalarga amal qilgan xalq butparastlar bilan yaqin munosabat qila olmasdi, chunki ular butparastlarning uylarida taom yeya olishmasdi.

Qonunda ozuqa haqida nimalar yozilgan? [5]

## Ushr

Isroil xalqi olgan har qanday daromad va hosilning 10 foizini ushr qilib berishi kerak edi (Qonunlar 14:22–29). Ushr quyidagilarga ishlatilardi:

- Uchrashuv chodiri yoki Ma'badda belgilangan bayram yoki marosimlarni o'tkazish,
- Uchrashuv chodiri yoki Ma'badda xizmat qilgan Levilarga ish haqi qilib berish,
- Kambag'allarga yordam berish.



Muqaddas Kitobda Xudo kambag'allarga va yetim-yesirlarga yordam berish haqida juda ko'p aytadi. Qonun-qoidalar va amrlar berilgan bu kitobda kambag'allarga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish va ularga yordam berish haqida olti marta aytilgan (12–26-boblar).

Qonunda ushr haqida nimalar yozilgan? [6]

## Belgilangan bayramlar

Har yili Isroil xalqi uchta bayramni nishonlashi kerak edi:

- **Fisih bayrami** — bu bayram davomida xalq Misrdan chiqib ketganini bayram qilib nishonlardi.
- **Hosil bayrami** — bu bayram yetti haftadan keyin, bug'doy o'rimi paytida nishonlanardi, uning Yunoncha nomi *Pentekost* edi.
- **Chayla bayrami** — bu bayram kuzda yig'im-terim paytida nishonlanardi. Bu bayram davomida xalq sahodagi sargardonlik vaqtini eslardi.



Bayramlarni nishonlash orqali xalq Xudoning qilgan mo'jizalarini esga olardi. Xalq nafaqat Xudoni eslashini, balki maza qilib dam ham olib, bayram qilishini Xudo xohlagan edi (Qonunlar 16:1–17).

Qonunda bayramlar haqida nimalar yozilgan? [7]

## Shoh

Shoh Xudoga sajda qiladigan yahudiylar orasidan tanlanardi. Unga ko'p boylik yig'ish va ko'p xotinlarga uylanish man etilgandi. Buning o'rniga u Xudoning qonunini o'rganishi va unga itoat qilishi kerak edi. Bularga rioya qilgan shoh Xudoning xalqini to'g'ri boshqara olardi (Qonunlar 17:14–20).



Biz Eski Ahdni o'qir ekanmiz, Isroil shohlari qonunga itoat qilmaganiga guvoh bo'lamiz. Ular Xudoning xalqini Xudodan uzoqlashtirardi. Hattoki shoh Sulaymon, o'zining cheksiz donoligiga qaramay, Xudoning qonunlariga rioya qilmaganini ko'ramiz (3-Shohlar 11:1–8).

Qonunda shoh haqida nimalar yozilgan? [8]

## Adolat

Isroil xalqi mahkamalarda albatta adolat o'rnatishi kerak edi. Jinoyatchi albatta jazolanishi, aybsiz odam esa oqlanishi juda muhim edi. Jazo to'g'ri belgilanishi va qilingan jinoyatga mutanosib bo'lishi shart edi (Qonunlar 19:1–21).



Qonunda adolat haqida nimalar yozilgan? [9]

## Jang

Qadimgi dunyoda jang-jadal kundalik hayotning bir qismi edi. Shohlar doimo o'z shohliklarini kengaytirish payida yurishardi. Agar ular boshqa shohliklarga hujum qilishmasa, o'z hududini himoya qilish bilan band bo'lar edilar. Isroil xalqi jangga chiqqanida Xudoning ko'rsatmalari bo'yicha urush olib borishi kerak edi. Albatta, har qanday urush juda yomon narsa. Lekin Xudo hattoki urush bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatmalarni ham bergan (Qonunlar 20:1–10).



Isroil yo'l boshchilari harbiy saflaridagi jang qilishga tayyor bo'lmagan jangchilariga nisbatan mehr-shafqatli bo'lishlari kerak edi; Shu bilan birga ular bosib olgan shaharlardagi aholiga ham rahm qilishlari lozim edi.

Faqatgina Kan'on yurtida yashagan xalqlar batamom o'ldirilishi kerak edi, chunki ular asrlar davomida qabihlik qilgan edilar. Aynan shu sababdan Xudo ularning yurtini xalqi Isroilga berishga qaror qildi. Isroil xalqi Yaratgan Xudoga manzur hayot kechirib, bu borada boshqa barcha xalqlarga namuna bo'lishi kerak edi.

Qonunlarda jangga oid nimalar yozilgan? [10]

## Oila

Oila bu bir umrga tuziladigan ahddir, oilada ayol kishining haq-huquqlari himoya qilinishi zarur. Oila qurgan erkak va ayol o'z turmush o'rtog'idan boshqa hech kim bilan jinsiy munosabat qilishi mumkin emas. Zino, bachchabozlik va nomusga tegish kabi qabihliklar qonunda qat'iy man etilgan (Qonunlar 22:13–30). Jinsiy gunohlar nafaqat o'z qurbonini barbod qiladi, balki butun oila sha'niga dog' tushiradi. Hech qanday gunohni Xudodan yashirib bo'lmaydi.



Biz 7-darsdan bilamizki, qadimda Isroil xalqidan bo'lgan odamlar begona xalqlar bilan quda-andachilik qilmasliklari kerak edi, hozirgi kunda ham masihiylar imonsizlar bilan turmush qurmasliklari kerak. Chunki bunday oilada tug'ilgan bola Rabbimizning yo'lidan yurmaydi (Qonunlar 7:3–4).

Qonunlarda oila haqida nima yozilgan? [11]

Qadimgi dunyoda bunday qonun-qoidalar hech qaysi xalqda bo'lmagan. Bu yaxshi qonunlar bo'lib, ularni Xudo O'z xalqining farovon hayoti uchun bergan.

## Isroil xalqi Xudoning qonun-qoidalarini bajarmaganida

Xudo bergan qonun-qoidalar yaxshi bo'lishiga qaramay, xalq ularni hech qachon to'liqligicha bajara olmagan. Xudo O'z xalqiga Uchrashuv chodirida yoki Ma'badda qurbonliklar qilishni buyurgan. Xalq shuni qilganida quyidagilarni esda tutardi:

- Gunoh juda yomon, gunohkor odam esa o'lim jazosiga loyiq.
- Gunohni faqat qon yuvadi, demak, gunohkor odam kechirim olishi uchun birorta jonzot o'lishi kerak.

Bu qurbonliklar odamlarni Najotkorning kelishiga tayyorlar edi. Najotkor kelganida odamzodning gunohlarini yuvishi va barcha muammolarni hal qilishi kerak edi. Najotkor quyidagilarni qiladi:

- Xudoning hamma qonunlarini bekamu ko'st bajaradi,
- Barcha asrlar uchun mukammal qurbonlik bo'ladi,
- U «mukammal Ma'bad» bo'ladi, odamlar gunohlaridan forig' bo'lish uchun Uning oldiga kelishadi.
- Xudoning xalqi Xudoga to'liq itoat qila olishi uchun, Xudo Muqaddas Ruhi orqali odamlar aro maskan quradi!

**1-Yuhanno 4:9–10**ni o'qing. Xudo bir kuni yuboradigan Najotkor bo'lishga Kim loyiq? [12]

Bu mukammal Inson nima qiladi? [13]

## Eski Ahd va Yangi Ahd


Qonunlar kitobida Xudo Sinay, ya'ni Xorev tog'ida O'z xalqi bilan tuzgan ahdning shartlari tushuntirilgan (Qonunlar 5:2):

- Xudo Isroil xalqini qullikdan **qutqardi**.
- Agar xalq Xudoga **ishonib, Unga bo'ysunsa**, Xudo ularga va'da qilgan yurtda baraka beradi.
- Itoatsizlik evaziga kelgan la'natlardan ozod bo'lishning bir yo'li bu **qurbonliklar keltirish** edi.
- Agar xalq **doimiy tarzda itoatsizlik qilsa**, Xudoning la'natiga duchor bo'lib, begona yurtga surgun qilinadi.

Keyinchalik bu ahd — **Eski Ahd** deb nom oldi. Bu Muqaddas Kitobning birinchi qismidir.

Muqaddas Kitobning ikkinchi qismi **Yangi Ahddir**. Xudo O'z xalqi bilan yangi ahd tuzdi. Bu ahdga ko'ra:

- Xudoning O'g'li Iso Masih odamlarni gunoh qulligidan **qutqardi** (Rimliklarga 6:20–22).
- Agar biz **Xudoning O'g'liga ishonib, Unga bo'ysunsak**, Xudo bizni O'ziga farzand qilib oladi va bizga abadiy hayotni in'om qilib beradi (Yuhanno 1:12, 3:16).
- Agar biz gunohlarimizdan tavba qilsak, biz uchun mukammal **qurbonlik bo'lgan** Iso Masih bizni gunohlarimizdan forig' qiladi (1-Yuhanno 1:9).
- Agar biz doimiy tarzda **Xudoga itoatsizlik qilsak**, biz bu barakalardan mahrum bo'lishimiz mumkin (Ibromiyalarga 10:26–31).



Eski Ahdda ham, Yangi Ahdda ham odamlar Xudoga itoat qila olishlari uchun imonga ega bo'lishlari kerak edi. Ibroniylar maktubining 11-bobida bu muhim mavzu keng yoritilgan.

**Luqo 22:20**ni o'qing. Iso Masih to'kilgan qoni tufayli nima qildi? [14]

**Ibroniylarga 9:15**ni o'qing. Yangi Ahd nima? [15]

## Bugun biz Eski Ahdning qaysi qonunlariga rioya qilishimiz kerak?

Hozir biz Yangi Ahd davrida yashamoqdamiz.

### Biz nimalarni qilishimiz KERAK EMAS?

#### 1. Biz Ma'bad va qurbonliklarga oid qonun-qoidalarga rioya qilishimiz kerak emas:

- Iso Masih butun dunyoning gunohlari uchun mukammal qurbonlik (1-Yuhanno 2:2) va hammamiz uchun yangi Ma'bad bo'ldi (Yuhanno 2:19,21)!
- Biz endi jonivorlarni qurbonlik qilishimiz kerak emas, shu sababdan bizga zaminiy Ma'bad ham kerak emas. Quddusdagi Ma'bad milodiy 70 yilda Rimliklar tomonidan buzib tashlangan edi. Iso Masih o'lib tirilganidan keyin, zaminiy Ma'badga zarurat qolmagan edi, shu sababdan Xudo uning yakson qilinishiga yo'l qo'ygan edi.
- Jamoat (ya'ni Iso Masih izdoshlarining yig'ini) Masihning tanasidir va Xudoning yer yuzidagi Ma'badidir. Hozirgi kunda odamlar aynan shu yerda Xudo bilan uchrashadilar (1-Korinfliklarga 3:16).

#### 2. Biz ayrim oziq-ovqatlardan o'zimizni tiyishimiz shart emas.

- Iso Masih Butrusga zohir bo'lib, unga har qanday jonivorning go'shtini tanovul qilishiga izn berdi (Havoriylar 11:1–18). Endi Xudoning xalqi muqaddas bo'lishi uchun o'zini boshqa xalqlardan ajratishi shart emas. Endi xalqning muqaddasligi ularning muhabbati, sevinchi, xotirjamligi, sabr-toqati, mehribonligi, ezguligi, ishonchi, muloyimligi va o'zini idora qilishi orqali namoyon bo'lishi kerak edi (Galatyaliklarga 5:22–23).
- Bugungi kunda biz Eski Ahdning qaysi qonunlariga rioya qilishimiz shart emas? [16]

### Biz nima qilishimiz KERAK?

**Yeremiyo 31:31–33**ni o'qing. Bu oyatlarga ko'ra yangi ahd eskisidan nimasi bilan farq qilar ekan? [17]

Biz Iso Masihga ishonishni boshlaganimizda U qalbimizni Muqaddas Ruhga to'ldiradi. Muqaddas Ruh bizni fosh qilib, **bizga hayotimizdagi nimalarni o'zgartirishimiz kerakligini ko'rsatadi**. Siz Muqaddas Kitobni o'qir ekansiz, Uning sizga aytgan gaplariga diqqat bilan quloq soling.

- Iso Masih qaysi amrlarni eng buyuk amrlar deb atagan (**Mark 12:30–31**)? [18]

Bularni aytish oson, lekin qilish juda qiyin!

Eski Ahddagi barcha amr va ko'rsatmalar Xudoni va o'zgani sevishga qaratilgan.

- Biz bugungi kunda ham O'nta Amrga (Qonunlar 5:6–21) itoat qilishimiz o'ta muhim. Bular Xudoga va o'zgaga bo'lgan sevgimizning haqiqiy mezonidir.
- Yangi Ahd jinsiy poklikka kuchli urg'u beradi. Bu ham o'zgaga bo'lgan sevgimizning va O'nta Amrga bo'lgan itoatkorligimizning asl ko'rsatgichidir. **Ibroniylarga 13:4**ni o'qing. Fahshu zinoga yengil yondashmang, vafoning ahamiyati yo'q, deb hech qachon o'ylamang (1-Korinfliklarga 6:15–16). Shayton ko'p taniqli cho'ponlarni aynan shu sohada yo'ldan ozdirgan. Fahshu zino solihlarning hayotini barbod qiladi, xonadonlarini buzadi (Ibroniylarga 10:29).

Bugungi kunda biz qaysi amrlarga bo'ysunishimiz kerak? [19]

## Demak, nima sababdan biz Eski Ahd qonunlarini o'qishimiz kerak?

Biz Eski Ahd qonunlarini o'qishimiz shart, shunda biz quyidagilarni to'liqroq anglaydigan bo'lamiz:



- Xudoning fe'l-atvorini,
- Nima to'g'riyu nima noto'g'riligini,
- O'zimizning gunohkorligimizni,
- Bizning gunohlarimizni faqatgina qon orqali yuvish mumkinligini,
- Biz Najotkorga muhtoj ekanimizni!

Biz Eski Ahdni to'liqligicha o'kisakkina, Iso Masihning Kimligini va U biz uchun nimalar qilganini anglay olamiz.

Agar kimdir sizga «Eski Ahdni, Xudoning hamma qonunlarini o'qish shart emas», deb aytsa, siz unga nima deb javob qaytarasiz?

**Siz Iso Masihga hayotingizni o'zgaritirishga imkon beryapsizmi yoki hozirgi holatingizning o'zi yaxshimi?**

**Siz Iso Masihga ko'proq o'xshashingiz uchun nima qilishingiz kerak?**

## Uyga vazifa

Keyingi darsga tayyorgarlik sifatida **Qonunlar 27–28-boblarni** o'qing.

## Javoblar

- 1 – Egamiz Xudo Isroil xalqiga: *«Mana shu farmonlar va qonun-qoidalarga rioya qilinglar», deb buyuryapti. Bularni bitta qoldirmay, butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan bajaranglar, — deb aytyapti.*
- 2 – Xudoning buyruqlari qalblarimizni shodlikka to'ldiradi.
- 3 – Xudoning amrlari va qonun-qoidalari bizni dono qiladi.
- 4 – Isroil xalqi Kan'onliklardan farqli ravishda Xudoga faqat Uchrashuv chodirida yoki Ma'badda sajda qilishi kerak edi.
- 5 – Isroil xalqiga ayrim hayvonlarning go'shtini tanovul qilish man etilgandi. Bu ularning muqaddas ekanligini, ya'ni Xudo tomonidan ajratib olinganini bildirardi.
- 6 – Isroil xalqi har qanday daromadning o'n foizini Ma'badga olib kelishi kerak edi. Ushr Ma'badda o'tkaziladigan bayramlarga, Uchrashuv chodirida yoki Ma'badda xizmat qiladigan Levilarga ish haqi sifatida, yetim-yesirlarga yordam sifatida ishlatilardi.
- 7 – Har yili Isroil xalqi uchta bayramni nishonlashi shart edi: Fisih bayrami, Hosil bayrami va Chayla bayramini. Shu orqali ular Xudoning qilgan ajoyib ishlarini esga olishardi.
- 8 – Shoh Isroil xalqidan bo'lishi shart edi, u o'zi uchun boylik ko'paytirmasligi, ko'p xotin olmasligi kerak edi. Shoh har kuni Xudoning qonunlarini o'rganishi va ularga amal qilishi lozim edi, shundagina u Xudoning xalqini to'g'ri boshqara olardi.
- 9 – Qonunbuzarlar adolatli hukm qilinishlari kerak edi. Aybsiz odam esa birovning jinoyati uchun jazolanmasligi kerak edi.
- 10 – Ruhoniylar va nazoratchilar jangga borishga tayyor bo'lmagan jangchilarga nisbatan mehri bo'lishlari va ularni uyga qaytarib yuborishlari kerak edi. Ular shahar aholisiga rahm qilishlari va ularni tirik qoldirishlari shart edi. Faqat Kan'on yurtida yashagan qabih xalqlarni bitta qoldirmay o'ldirishlari kerak edi.
- 11 – Oila bu bir umrga tuziladigan ahddir, oilada ayol kishining haq-huquqlari himoya qilinishi zarur. Oila qurgan erkak va ayol o'z turmush o'rtog'idan boshqa hech kim bilan jinsiy munosabat qilishi mumkin emas. Zino, bachchabozlik va nomusga tegish kabi qabihliklar qonunlarda man etilgan.
- 12 – Xudoning O'g'li Iso Masih.
- 13 – Iso Masih Xudoning qonunlarini bekamu ko'st bajardi, gunohlarimiz uchun mukammal qurbonlik bo'ldi. U Muqaddas Ruh orqali odamlar aro maskan qurib, Haq Xudoning «Ma'badi» bo'ladi.
- 14 – Iso Masih Xudo va insoniyat orasida yangi ahd tuzib, o'sha ahdni to'kilgan qoni evaziga kuchga kiritdi.
- 15 – Iso Masih YAngi Ahdning vositachisi bo'ldi. U bizni gunohlarimizdan xalos qilish uchun qurbon bo'ldi.
- 16 – Biz endi Ma'bad, qurbonliklar va oziq-ovqat borasidagi qonunlarga rioya qilmasak ham bo'ladi.
- 17 – Xudo qonunlarini odamlarning ongiga solib qo'yadi, ularni yuraklariga yozib qo'yadi.
- 18 – Eng buyuk amrlar quyidagilar: *«Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun ongingiz bilan, kuchingiz boricha seving».* Eng muhim amrlardan ikkinchisi: *«O'zgani o'zingizni sevganday seving».*
- 19 – Xudoni va o'zgani sevish deganda O'nta Amrning hammasiga birday itoat qilish kerakligi nazarda tutilgan va jinsiy poklikni saqlashga urg'u berilgan.

Qonunlar, 11-dars:

# Barakalar va la'natlar



Mazkur dars davomida biz Eski Ahd davridagi barakalar va la'natlarni o'rganamiz va ularning bugungi kunga qanchalik ta'siri borligini ko'ramiz.

## Ikki tog'

**Qonunlar 11:29**ni o'qing.

Isroil xalqi va'da qilingan yurtga kirganidan keyin, Xudo ularga ikki toqqa taalluqli ko'rsatmalarni berdi. Yurtning o'rtasidagi ikkita tog' Xudo O'z xalqi bilan tuzgan ahdning abadiy ramzi edi. Bu tog'lar Xudoga itoat qiladigan odamlarga keladigan barakalarni, itoat qilmaydiganlarga duchor bo'ladigan la'natlarni eslatardi.

Xalq qaysi tog' ustida barakalarni e'lon qilishi kerak edi? [1]

Qaysi tog'da la'natlarni e'lon qilishi kerak edi? [2]


**Qonunlar 27:1–8**ni o'qing.

Muso Isroil xalqiga Ebal tog'ining ustida (bu tog' ustida la'natlar e'lon qilinardi) toshdan ikkita narsani yasashni buyurdi.

Xalq bu tog' ustiga nimalarni o'rnashtirishi kerak edi (**2–4-oyatlar**)? [3]

Ular toshlardan nimani qurishlari kerak edi (**5-oyat**)? [4]

Xudo Isroil xalqiga Ebal tog'i ustida ikkita katta tosh o'rnatishni va ularning ustini suvab, Xudoning qonunlarini yozishni amr qildi. Bu toshlarning oldiga U tosh qurbongoh qurishni ham buyurdi. Odamlar



berilgan barcha qonun va amrlarga bekamu ko'st rioya qila olmasligini Xudo juda yaxshi bilardi. Shu sababdan ham xalqqa qurbongoh qurishni aytgandi, chunki odamlar keltirilgan qurbonliklar orqali gunohlarini yuvishardi. Qurbongohning vazifasi odamlarga qurbonliklar orqali gunohdan forig' bo'lish mumkinligini eslatish edi.

Xalq bu qurbongoh ustida qanday ikki turdagi qurbonlikni keltirishi kerak edi (**6–7-oyatlar**)? [5]

## Kuydiriladigan qurbonlik

Kuydiriladigan qurbonlik odamlarning gunohini yuvaradi va shu bilan birga insonning butun hayoti Xudoga tegishli ekanining ramzi edi. Kuydiriladigan qurbonlik boshqa hamma qurbonliklardan farq qilardi, u to'liqligicha olovda kuydirilardi, uning go'shtidan hech kim, hattoki ruhoniylar ham tanovul qilishlari mumkin emasdi.

**Efesliklar 5:2**ni o'qing. Kim biz uchun O'z jonini fido qildi? Kim gunohlarimizni yuvish uchun kuydirilgan qurbonlik bo'ldi? [6]

**Rimliklar 12:1**ni o'qing. Masih bizga bergan inoyati tufayli endi biz nima qilishimiz kerak? [7]

Tirik, muqaddas qurbonlikning ma'nosi nima? [8]

Kuydiriladigan qurbonlik bizga nimani eslatadi? [9]

Biz butun hayotimizni Xudoga bag'ishlaganimizda U qalbimizni xursandchilikka to'ldiradi!

## Tinchlik qurbonligi

Odatda qurbonlik qilingan jonivorning go'shtini faqat ruhoniylar yeyishga haqli edilar. Lekin kuydiriladigan va tinchlik qurbonliklari bulardan mustasno edi: kuydiriladigan qurbonlik to'liqligicha yoqib yuborilarsa, tinchlik qurbonligining go'shtidan esa avom xalq ham yeyishga haqli edi. Tinchlik qurbonligining go'shti do'stu birodarlar va qo'ni-qo'shnilar orasida tanovul qilinardi.

Tinchlik qurbonligi Xudo xalqining gunohlarini kechirganini va o'zaro munosabat tiklanganini bildiruvchi ramz edi. Qanday go'zal bir xabar!

Yangi Ahd davrida yashagan odamlar endi tinchlik qurbonligini keltirmaydilar. Ular buning o'rniga nima qilishlari kerak (Luqo 22:19)? [10]

Iso Masih gunohlarimiz uchun mukammal qurbonlik bo'ldi. Uning qurbonligi tufayli biz gunohlarimizdan forig' bo'lib, endi Xudo bilan munosabat qila olamiz!

Bugungi kunda jamoatlar Qutlug' kechani nishonlaganlarida taom yemaydilar. Buning o'rniga ular ramziy ma'noda Masihning xochdagi o'limini bildiruvchi non va sharobni qo'llashadi. Biroq Masih davrida imonli birodarlar doimo birgalikda taom tanovul qilishardi. Birgalikda ovqatlanish — munosabatlarni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Agar sizning jamoatingiz ham Qutlug' kechani o'tkazishda faqat non va sharobdan foydalansa, siz albatta imonli birodarlaringiz bilan taom yegani yig'ilib turing, ular bilan choyxonaga borib turing.

Tinchlik qurbonligi bizga nimani eslatadi? [11]

## Barakalar va la'natlar

Qonunlar 27–28-boblarda quyidagilarga urg'u berilgan:

- Xudoning qonunlariga rioya qilgan odamlarga ko'p barakalar va'da qilingan.
- Xudoning qonunlarini buzganlarga ko'p la'natlar aytilgan.

**Qonunlar 28:1–24**ni o'qing.

Eski Ahdda Xudo O'z xalqiga cheksiz baraka bergan, ular bunga loyiq bo'lmasalar-da, ularga inoyat ko'rsatgan. Shunga qaramay, ular doimiy tarzda Xudoga itoatsizlik qilib kelishgan. Shu sababdan la'natlarga duchor bo'lishgan.

Hakamlar davrida Isroil xalqining hayot charxpalagi bir zaylda aylanardi:

- Ular Xudoning ezgu qonunlarini rad qilib, qabihliklar qilishardi.
- Jazo sifatida Xudo ularni dushmanlarining qo'lga topshirardi, ular yillar davomida zulm ostida qolishardi.
- So'ng Xudodan yordam so'rab yolvorishardi.
- Xudo ularning ibodatlariga javob berib, qutqaruvchi qilib hakamlarni yuborardi.
- Oradan ko'p vaqt o'tmay, xalq yana Xudoning qonunlarini buzib, qabihlik yo'lga o'tardi. Ularning hayot charxpalagi shu zaylda aylanaverardi.

Isroil xalqining bunday hayot tarzi qariyb 300 yil davomida takrorlandi.

Oradan ko'p yillar o'tdi, Isroilning qabih shohi Axab xalqqa but Baalga sajda qilishni o'rgatdi. Jazo sifatida Xudo Isroil yurtiga 3 yil yomg'ir yog'dirmadi (3-Shohlar 17:1).

Xalq Xudodan yuz o'girib ketgani sababli, Xudo ularni jazoladi. U Isroil yurtini Bobil lashkarining qo'lga berdi: Bobilliklar Isroilni bosib olishdi, Ma'badini yer bilan yakson qilishdi, xalqni esa Bobilga surgun qilib olib ketishdi. Bu voqea miloddan oldingi 586-yilda ro'y berdi (2-Solnomalar 36:15–21).

### Qo'shimcha ma'lumot: Yeremiyo payg'ambarning marsiyasi

Marsiya kitobi — Quddus shahrining vayron bo'lishiga bag'ishlangan marsiya va giralar to'plamidir.

*Voy sho'rim!  
Odamlarga to'lib-toshgan bir vaqtlar,  
Naqadar yolg'izdir endi bu shahar!  
Xalqlar orasida shuhrat qozongan,  
Endi bir beva ayolga u o'xshab qolgan.  
viloyatlar orasida malikaday edi,  
Endi u bir cho'riga o'xshab qoldi (Marsiya1:1).*

Chuqur qayg'uda qolgan muallif, atrofdagi vaziyatga qaramay, baribir Xudoning ezguligini e'lon qiladi:

*Egamning sodiq sevgisi bo'lmaydi ado,  
Uning rahmu shafqati tugamas aslo.*



*Har tong ular yangilanadi,  
Buyukdir Egamning sadoqati!  
Qalbmida aytaman: «Egamdir mening bor-yo'g'im,  
Shunday ekan, yolg'iz Undadir mening umidim» (Marsiya 3:22–24).*

Muallif Xudoning sadoqatiga umid qilgan edi, Isroil xalqidan Xudo voz kechmasligini u bilardi. Bu oyatlar quvg'inda qolgan ko'p masihiylarga asrlar davomida umid bag'ishlardi. Biz ham hayotimizda qiyinchiliklarga duch kelganimizda bu oyatlardan dalda olishimiz mumkin.

Biz bugun Muqaddas Kitobni o'qir ekanmiz, kitobda tilgan olingan barakalar va la'natlarning ma'nosi juda teran ekanligini tushunib olishimiz kerak, ular bu zaminiy hayotimiz bilan cheklanmaydi. Xudo bizga hozirdan abadiy hayot barakasini tatib ko'rishimizga imkon berdi. Iso Masih qaytib kelganida bu dunyoni mahkum etib, la'natlarga duchor qiladi.

**Matto 25:34**ni o'qing. Iso Masih O'zining sodiq izdoshlariga nima deb aytadi? [12]

Bu so'zlar inson eshitishi mumkin bo'lgan eng go'zal so'zlardir!

**Matto 25:41**ni o'qing. Iso Masih O'ziga ergashmagan odamlarga nima deb aytadi? [13]

Bu so'zlar inson eshitishi mumkin bo'lgan eng yomon va dahshatli so'zlardir!

Eski Ahdda barakalar va la'natlar nimani bildiradi? [14]

Biz oladigan barakalar faqat kelajakka taalluqli emas.

**Efesliklarga 1:3–8**ni o'qing. Xudo hozirdanoq bizni qanday barakalardan bahramand qildi? [15]

Ushbu barakalar biz ega bo'lishimiz mumkin bo'lgan har qanday moddiy barakadan ancha ustundir!

## Xudo bizga bergan boshqa barakalar

Hozirgi vaqtda siz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan oyatlarni topib o'qing:

- Xudo bizga O'z Muqaddas Ruhini berdi (1-Kor. 3:16).
- Biz Xudoning oldiga kelib tavba qilganimizda U bizni kechiradi (1-Yuh.1:9).
- Biz azob-uqubatlarga uchraganimizda Xudo bizga tasalli beradi (2-Kor. 1:3–4).
- Ko'nglimiz cho'kkanda U bizga yaqindir (Zab. 33:18–19).
- U bizga donolik beradi (Yoqub 1:5).
- Ibodatlarimizga javob beradi (Yuh. 14:13).
- Bizni Masih xonadoni a'zosi qiladi (Gal. 6:10).
- Bizni sevikli farzandi deb biladi (Ef. 5:1).
- Bizga asl kimligimizni ochib beradi: Biz barhayot Xudoning farzandlarimiz! Bu ochiqlik o'z qadrimizni va hurmatimizni oshiradi. Masihga tegishli bo'lganimiz uchun hammamiz birmiz (Gal 3:28).

Biz hozirdan bahra olishimiz mumkin bo'lgan barakalarimiz bor.

Nima deb o'ylaysiz, biz hozir Xudoning yana qanday barakalaridan foydalanmoqdamiz?

## Bugungi kunda la'natlar haqida nima deya olamiz?

*Masih esa bizni qonun la'natidan xalos qildi. U xochga mixlanganda bizning o'rnimizga la'natlandi (Gal. 3:13). Biz Masih tufayli la'natdan xalos bo'ldik, endi esa baraka ostidamiz.*

Agar biz Masihga ergashayotgan bo'lsak, U bizni odamlar yog'dirgan har qanday la'nat va qarg'ishlardan asraydi! Havoriy Pavlus Efesliklarga yozgan maktubida shunday deydi: *Xudoning biz — imonlilarga ko'rsatgan tengi yo'q qudrati naqadar buyukligini ham bilib oling. Mana shu buyuk qudrati bilan Xudo Masihni o'likdan tiriltirdi va samoda Uni O'zining o'ng tomoniga o'tirg'izdi. Isoni Xudo u dunyoyu bu dunyodagi har bir hokimiyat va hukmronlik, har qanday kuch va saltanat, har bir mavjudotdan ustun qildi (Ef. 1:19–21).*

Agar kimdir sizni la'natlasa, bu haqda Iso Masihga ibodat qiling, U sizni har qanday balo va la'natlardan omon saqlaydi.

Shunday ekan, bugungi kunda biz hech qanday la'nat va qarg'ishlardan qo'rqmasligimiz kerak!

## Sog'lik va boylik

Ba'zan odamlar: Xudo bizga sog'lik va boylikni va'da qilgan, deb aytishadi. Lekin bu haqiqat emas.

Eski Ahdda Xudo qonunlariga itoat qilgan xalqqa farovon hayot va'da qilgan edi. Buning amalga oshganini biz Sulaymonning hukmronligi vaqtida ko'ramiz: *Sulaymon hayotligida Dandan Bershebagacha bo'lgan Yahudo va Isroil yurtidagi har bir odam o'z uzumzorida, o'z anjir daraxti ostida tinchgina umr kechirardi (3-Shoh. 4:25).*



Afsuski, xalqning farovonligi faqat moddiyat bilan cheklangani bois uzoqqa cho'zilmadi.

Xudo butun dunyoni **abadiy farovonlikka** erishtirmoqchi bo'ldi, bu farovonlik esa Xudo bilan tirik munosabatdan va inson yuragining o'zgarishidan keladi (Hizq. 36–26, Ef. 2:18). Abadiy baraka va farovonlik moddiyat bilan cheklanmaydi.

Iso Masih ham, havoriyilar ham boy emas edilar. Havoriy Pavlus jismonan azob chekkanini bilamiz (2-Kor. 12:1–10). Iso Masih ham insoniyat o'ylab topgan eng azobli qiynoqlar dastidan ko'p dard va azob chekkandi. Pavlus **Rimliklarga yozgan maktubining 8-bob, 18-oyatida** nima degan? [16]

Xudo bilan Yangi Quddusda yashash qanchalik ajoyib ekanini biz hatto tasavvur ham qila olmaymiz!

Xudo bizga Eski Ahdda va'da qilgan barakalardan biz hozir emas, balki Yangi Quddusda bo'lganimizda albatta bahra olamiz. Xudo ibodatlarimizga javob beradi, lekin bu dunyoda biz azob-uqubat chekamiz. Xudo hayotimizdagi qiyinchiliklar orqali bizni Isoga o'xshatib o'zgartirmoqda (Ibr, 12:7–11). Lekin ba'zan biz nega Xudo boshimizga qiyinchiliklar solganini tushunmaymiz (Ishayo 55:9). Agar biz farovon hayot kechirsak, sog'lom bo'lsak va muammolarimiz bo'lmasa, demak Xudo bizni boshqalardan ko'proq yaxshi ko'rarkan degan xulosaga kelishimiz kerak emas. Boshimizga qiyinchiliklar tushganda, kasal bo'lganimizda Xudo

bizni jazolayapti, deb ham o'ylashimiz kerak emas. Xudo muammolar orqali insonni jazolamaydi. Bizning vazifamiz bir-birimizni sevish, dalda berish va qo'llab-quvvatlash!

Bizning hayotimiz juda qiyin bo'lishi mumkin. Lekin Xudo bizni hech qachon tashlab ketmaydi, tark etmaydi (Ibr. 13:5). Biz Iso Masihga oxirigacha ergasha olishimiz uchun Muqaddas Ruh bizga kerakli kuch va xursandchilik beradi (Vahiy 21:3-4; 22:1-5).

Bugungi kundagi «baraka» topgan odam nimani biladi? [17]

Qanday qilib biz Xudoning barakalaridan yanada ko'proq bahramand bo'la olamiz? [18]

## Uyga vazifa

Qonunlar 29–30-boblarni o'qing.

## Javoblar

- 1 – Barakalar Garizim tog'i ustida o'qilishi kerak edi.
- 2 – La'natlar Ebal tog'i ustida o'qilishi kerak edi.
- 3 – Ustiga Xudoning qonunlari yozilgan katta toshlar.
- 4 – Tosh qurbongoh.
- 5 – Kuydiriladigan qurbonlik va tinchlik qurbonligi.
- 6 – Iso Masih gunohlarimiz uchun qurbon bo'ldi.
- 7 – Biz o'z tanamizni tirik, muqaddas va Xudoga manzur bo'ladigan qurbonlik sifatida bag'ishlashimiz kerak.
- 8 – Bu degani biz Xudoga manzur hayot kechirishimiz va hammaga Rabbimiz Iso Masih haqida aytishimiz kerak.
- 9 – Kuydiriladigan qurbonlik bizga gunohlarimiz yuvilishi kerakligini eslatadi. Iso Masih O'z jonini biz uchun fido qilgani kabi, biz ham o'z hayotimizni Xudoga tirik qurbonlik sifatida bag'ishlashimiz kerak.
- 10 – Biz birgalikda Qutlug' kechani o'tkazib (non va sharobni tanovul qilib), Rabbimiz Masihning gunohlarimiz uchun o'lib tirilganini xotirlashimiz kerak.
- 11 – Tinchlik qurbonligi bizga quyidagilarni eslatadi: Iso Masih gunohlarimiz uchun jonini fido qilib, qonini to'kdi va biz uchun mukammal qurbonlik bo'ldi. Shuning uchun endi biz gunohlarimizdan tavba qilganimizda Xudo bilan munosabatimiz tiklanadi. Bu shu qadar ajoyibki, biz buni yaqinlarimiz bilan nishonlashimiz kerak.
- 12 – Iso ularga shunday deydi: *Ey samoviy Otamning barakasini olganlar, kelinglar! Shohlikni meros qilib olinglar! Bu shohlik olam yaratilgandayoq sizlar uchun tayyorlab qo'yilgan.*
- 13 – Iso shunday deb aytadi: *Ey la'natilar, ko'zimdan yo'qolinglar! Iblis va uning farishtalariga tayyorlab qo'yilgan abadiy olovga mubtalo bo'linglar!*

- 14 – Bu shuni bildiradiki, Xudo bizga hozirdan abadiy hayot barakasini tatib ko‘rishimizga imkon berdi. Iso Masih qaytib kelganida bu dunyoni mahkum etib, la‘natlarga duchor qiladi.
- 15 – *Masihga tegishli bo‘lishimiz uchun Xudo bizni dunyo yaratilishidan oldin tanladi. Endi biz Xudoning oldida muqaddas va benuqson, bir-birimizga mehr bog‘lagan insonlar bo‘la olamiz.*
- 16 – U shunday deb yozgan: *Ishonchim komilki, hozirgi azob-uqubatlarimiz bizga zohir qilinadigan ulug‘vorlik oldida hech narsa emas.*
- 17 – Baraka topgan odamlar quyidagilarni bilishadi:
- Xudo bizni dunyoni yaratishdan oldin tanlagan.
  - Biz Xudoning farzandlarimiz.
  - Ular najot topgan va kechirim olgan.
  - Hayot qanchalik qiyin bo‘lmasin, Xudo doimo ularning yonida.
  - Xudo ularni bexatar tarzda ulug‘vor, abadiy maskaniga olib keladi.
- 18 – Biz quyidagilarga rioya qilsak, Xudoning barakalaridan yanada ko‘proq bahramand bo‘lamiz:
- Muqaddas Kitobni o‘qib, u haqda mulohaza qilsak.
  - Iloji boricha ko‘proq ibodat qilsak.
  - Boshqa imonlilar bilan ko‘rishish uchun jamoat yig‘ilishlariga borsak.
  - Boshqalarga Iso Masih haqida aytsak.

Qonunlar, 12-dars:

# Ahdning yangilanishi



Ushbu darsda biz har bir avlodning Xudo bilan ahdni yangilashi qanchalar muhim ekanligini ko'rib chiqamiz.

Qonunlar kitobining 29–30-boblarida Muso Xudo xalqining navbatdagi avlodi bilan ahdni yangilagani tasvirlangan. Sinay tog'ida Xudo bilan ahd tuzgan avlodning hammasi o'tib ketdi. Endi Xudo ularning farzandlari va nabiralari bilan ahd tuzishi kerak edi.

Qonunlar kitobining 29–30-boblari qadimda podshohlar tuzgan tinchlik ahdi sulh shaklida yozilgan bo'lib, u yerda qo'li ostidagi xalqlarga qo'yilgan shartlar bayon qilingan. Tinchlik ahdi doim ham bir xil bo'lavermagan, lekin ularda odatda beshta masala yoritilgan:

1. Tarixiy vaziyat
2. Ahdning asosiy shartlari
3. Ahdni buzishga qarshi ogohlantirishlar
4. Baraka va la'natlar
5. Guvohlar

**Qonunlar 29–30-boblarni** o'qib, yuqoridagi beshta masalani topishga harakat qiling.

Endi biz ushbu beshta masalani ko'rib chiqamiz.

## 1. Tarixiy vaziyat (29:2–8)

Xudo O'z xalqiga ularning o'tmishini eslatdi. Muso xalqqa murojaat qilib gapirganda, go'yoki ular Sinay tog'idagi voqeada ishtirok etganday so'zlaydi, aslida Sinayda ular emas, ularning ota-onalari bor edi (3-oyat).

### 1-Chaqiriq

Tarix juda muhim. Xudo o'tmishda bizlar uchun nimalar qilganini o'qiganimizda, biz haqiqatan ham Xudoning inoyati tufayli najot topganimizga amin bo'lamiz. Agar biz Xudoning ishlarini unutsak, Iso Masih davridagi farziylar kabi mag'rurlanib ketamiz, boshqalarni hukm qila boshlaymiz. Shuning uchun

biz doimo Muqaddas Kitobni o'qishimiz, Xudoning o'tmishdagi ajoyib ishlari haqida mulohaza qilishimiz va o'zimiz Xudoning inoyati tufayli najot topgan gunohkorlar ekanimizni esda tutishimiz kerak!

## 2-Chaqiriq

Biz Muqaddas Kitobni o'qiganimizda o'zimizni o'sha voqealar ishtirokchisi qilib tasavvur qilishimiz kerak. Muso Isroil xalqiga gapirganida aynan shunday qilgan, ularga shunday degan: ... *guvohi bo'ldingizlar* (Qonunlar 29:3). Biz o'qigan voqealarni tasavvurimizda ko'rganimizda voqea bizga kuchli ta'sir qiladi.

## 2. Ahdning asosiy shartlari (29:9–15)

Qonunlar kitobida Xudoning amru qonunlari batafsil yoritib berilgan edi. Shu sababdan bu oyatlarda butun xalq, yoshu qari, erkagu ayol, o'troq xalq va musofirlarning hammasi qonunlarga rioya qilishlari shart edi (11-oyat). Demak, Xudoning qonuni faqatgina bir guruh odamlar uchungina emas, u hamma uchundir.

- Ota-onalarning vazifasi bolalariga yoshligidan Xudoning qonunlarini o'rgatish edi. Yosh bolalar ham Xudo man etgan narsalarni qilmasliklari kerak edi.
- Biz o'g'il-qizlarimizga otani ham, onani ham **birday** hurmat qilishni, ularga itoat qilishni o'rgatishimiz kerak.
- Farzandlarimizga begona odamlarga e'tiborli va mehribon bo'lishni o'rgatishimiz kerak.
- Boshqa millat va xalqlardan bo'lgan odamlarga bee'tibor qolmasligimiz, ularga ham Xudoning qonunlarini o'rgatishimiz darkor.

## 3-Chaqiriq

Siz o'z oilangiz va jamoatingizda hamma odamlarga, bolalardan tortib kattalargacha va boshqa davlatdan kelgan mehmonlarga Xudoning sevgisini ulashyapsizmi? Xudoga manzur turmush tarzini ularga o'rgatyapsizmi?

## 3. Ahdni buzishga qarshi ogohlantirishlar (29:16–29)

Boshqa xalqlar sig'ingan buyumlarni Xudo qanday so'z bilan atagan (17-oyat)? [1]

Butlarga sig'ingan odamlarning ta'sirini Xudo qanday so'zlar bilan ifodalagan (18-oyat)? [2]

Agar Xudoning xalqidan bo'lgan bironta odam o'sha butlarga sig'insa, uning qismati nima bo'ladi (20–28-oyatlar)? [3]

Xudoning xalqi gunohga qo'l urganda Xudo g'azablanadi. Xudo gunohlarimizga e'tibor bermaydi, deb o'ylashimiz ahmoqlikdir! Zotan, U O'zi yaratgan dunyoni sevadi. Biz munosabatlarimizga putur yetkazganimizda, U yaratgan go'zallikni barbod qilganimizda Uning qalbi og'riydi.

*Bordi-yu, orangizdagi biror odam bu ahd shartlarini eshitib, ko'nglida: «O'zim xohlagan ishni qilsam ham, menga hech narsa qilmaydi», deb o'ylasa, u hammaning boshiga birday kulfat keltiradi (19-oyat).* Xudodan boshqa narsalarga sajda qilish yomon emas, deb shayton bizni aldamoqchi bo'ladi. «Gunohni bildirmay, eplab qilsa bo'ladi», deb bizga uqtirmoqchi bo'ladi. Lekin gunoh qilmaslik uchun ikkita juda muhim sabab mavjud:

1. Gunoh **har doim** qalbimizni zaharlaydi, munosabatlarimizni buzadi va eng yomoni Xudoning qalbiga og'riq keltiradi.
2. Gunoh yuqumli illatdir. U atrofimizdagi odamlarning hayotida zaharli mevasini yetishtiradi. Pavlus bu borada shunday yozgan: *Naxotki, ozgina xamirturush butun xamirni achitishini bilmasangizlar?! (1-Kor. 5:6)*

Gunohimiz jamoatlarimizga, jamiyatimizga, biz yashagan davlatimizga halokatli tarzda ta'sir qiladi. Shu sabab, hayotimizdagi gunoh bilan biz ayovsiz kurash olib borishimiz darkor. Iso Masih shunday degan: *Agar o'ng qo'lingiz gunoh qilishingizga sababchi bo'lsa, uni kesib tashlab, uloqtirib yuboring. Butun badaningiz do'zaxga yo'liqqandan ko'ra, a'zolaringizdan bittasi yo'q bo'lgani siz uchun yaxshiroqdir (Mat 5:30).*

Agar biz biron ishning gunoh yoki gunoh emasligini bilmasak, quyidagi savollar buni aniqlashda bizga yordam beradi:

- Muqaddas Kitobda bu haqda nima yozilgan?
- Iso Masih bu ishni qilgan bo'larmidi?

Kan'on xalqlari sig'ingan but Baal hozirgi farovonlik xudosiga o'xshaydi. Qadimda deyarli hamma Baalga xizmat qilardi. Bugungi kunda ham ko'p pul ishlash odamlar uchun but bo'lib qolgan. Ular uchun pul — baxt, bexatarlik va tinchlik ramzidir.

Qadimda Isroil xalqi ham Xudoga, ham Baalga birday sajda qila olishiga ishongani kabi, bugungi kunda ko'p masihiylar ham Xudoga, ham pulga birday xizmat qila olishlariga ishonishadi.

Rabbimiz Iso Matto 6:24da bu haqda nima deb aytgan? [4]

## 4-Chaqiriq

Pul sinovi: siz uchun hayotingizda nima muhim?

- Siz jamoatga borishdan ko'ra, pul ishlashni afzal ko'rasizmi?
- Jamoatga ko'proq pul berishning o'rniga, yangi telefon yoki boshqa kerakli narsalar sotib olasizmi?
- Muhtoj odamlarga yordam ko'rsatasizmi?
- Xudodan pulingizni qanday ishlatish borasida maslahat olasizmi?



Bu savollarga bergan javoblaringizga qarab, o'z holatingizni aniqlab olishingiz mumkin. Siz ham Xudoga, ham pulga sajda qilyapsizmi yoki yo'qmi, aniqlab olasiz, chunki odam Xudoga yoki pulga sajda qiladi. Iso Masihning aytishicha, odam bularning ikkoviga birday sajda qila olmaydi.

## Ahdni buzib qo'rganlar uchun umid (30:1–15)

Biz barakalar va la'natlar mavzusiga o'tishimizdan oldin, keling, Musoning ahdni buzgan odamlarga umid bergani haqida o'qiylik.

Odamlar jiddiy ogohlantirishlarga qaramay, baribir gunoh qilib qo'yishlarini Xudo juda yaxshi bilgan. 4-darsdagi mavzimiz Xudoning rahm-shafqati mavzusi edi: Xudo gunohni jazolaydi, biroq samimiy tavba qilgan odamlarga rahm ko'rsatadi (30:1–10).

«Yurakni sunnat qilish» iborasi nimani bildiradi? [5]

Xalq Xudoni chin qalbidan sevadigan vaqt kelishini Muso orziqib kutardi! Havoriy Pavlus ham «yurakni sunnat qilish» iborasini ishlatgan, bu bilan u masihiyning gunohkor tabiati kesib tashlanishini nazarda tutgan (Kol. 2:11).

Biz gunohni saraton deb bilishimiz kerak: gunoh tarqalib bizni o'lim to'shagiga yotqizib qo'ymasidan oldin, biz uni tag-tugi bilan kesib tashlashimiz darkor! Albatta, bu og'riq keltiradigan muolaja, lekin yashash uchun nihoyatda zarurdir!

Kim bizga hayotimiz uchun zarur bo'lgan hamma narsani bera oladi (Qonunlar 30:9)? [6]

***Qiladigan har bir ishingizni Egangiz Xudo muvaffaqiyatli qiladi. Uvali-juvali bo'lasizlar... yeringiz hosili barakali bo'ladi.*** Kan'on xalqining e'tiqodiga ko'ra, yaxshi hosilni va farzandlarni ularga xudo Baal bergan. Xudo esa xalqiga: «Bu barakalarni sizlarga Baal emas, men beryapman», deb ta'kidlab aytmoqda.

Biz itoatsizligimiz va gunohlarimizdan chin yurakdan tavba qilganimizda Rabbimiz nima qiladi (9-oyat)? [7]

***Xudo sizni deb shodlanadi...*** Bu so'zlar eng go'zal so'zlardir! Bular tavba qilgan gunohkorlar haqida aytilgan. Rabbimiz Iso bu so'zlarni yo'qolgan qo'zichog'ini topgan cho'ponga nisbatan ishlatgan (Luqo 15:6–7).

Kunimizning har bir daqiqasida bizga qanday tanlov berilgan (Qonunlar 30:19–20)? [8]

***Hayotni tanlang, shunda o'zlaringiz ham, avlodlaringiz ham yashaysizlar...*** Muso payg'ambar xalqqa hayot bilan farovonlik yoki o'lim bilan kulfatni tanlash imkoniyatini berdi (15-oyat). Yuhanno Xushxabarida ham muallif bizni *yo'l, haqiqat va hayot* sari yo'naltiradi (Yuhanno 14:6). Iso Masihga ishonish orqaligina biz abadiy hayotga ega bo'la olamiz (Yuhanno 17:3).

## 4. Barakalar va la'natlar (30:16–18)

Xudo xalqqa itoat evaziga qanday barakalarni va'da qildi? Itoatsizlik uchun esa qanday la'natlar kelishini aytdi (16–18-oyatlar)? [9]

Barakalar va la'natlar mavzusini yaxshiroq tushunish uchun 11-darsimizni yana bir bor ko'rib chiqing.

## 5. Xulosa uchun guvohlarni chaqirish (30:19)

Qadimgi dunyoda sulh yoki ahd tuzilganda guvoh sifatida g'olib shohning xudosi va mag'lub bo'lgan xalq chaqirilardi. Qonunlar kitobidagi shartnomada butlarni guvoh qilib chaqirish noto'g'ri bo'lardi, shuning uchun Muso yeru osmonni guvoh qilib chaqirmoqda.

Nikoh marosimi ommaviy bir tadbir bo'lib, to'yga kelgan xaloyiq yigit aynan shu qizga uylanganiga guvoh bo'ladi. Agar nikoh ahd buzilsa, bunga guvohlar bo'lishi shart. Shu singari, Xudo va xalq orasida tuzilgan ahd ham omma oldida ma'lum qilingan. Agar xalq Xudoga bevafoqlik qilsa, yeru osmon bunga guvoh bo'ladi. Qonunlar 28-bobda xalq bu borada qat'iy ogohlantirilgan (Qonunlar 28:16–19).

Yangi Ahdda havoriy Pavlus butun mavjudot chirib-bitish qulligidan ozod etilishini intizorlik bilan kutayotgani haqida yozadi (Rimliklarga 8:21). Xudo butun borliqni yangilaydi! O'sha vaqt kelgunicha esa biz halok bo'layotgan dunyoda yashashga majburmiz (Ibtido 3:17–18). Bizning vazifamiz Xudo yaratgan bebaho borliqni parvarish qilishdir (Ibtido 2:15)!

## Ahdning yangilanishi

Qonunlar kitobida biz Isroil xalqining yangi avlodi Xudo bilan ahdini yangilaganiga guvoh bo'ldik. Shu singari biz ham, jamoatimizdagi yangi avlodga Iso Masih bilan bo'lgan ahdini yangilashga, uni ochiqchasiga e'tirof etishga imkon berishimiz kerak. Siz buni o'z jamoatingizda qanday qilishingiz mumkin?

### Qonunlar kitobining ushbu ikkita bobi orqali Xudo sizga nimalarni aytdi?

#### Uyga vazifa

Qonunlar 31–32-boblarini o'qing.

## Javoblar

- 1 – Xudo ularni jirkanch butlar deb atagan.
- 2 – Xudo bunday ta'sirni zaharli, achchiq ildiz, deb ataydi.
- 3 – *Egamiz bunday odamdan qattiq g'azablanadi, uni kechirmaydi. Mana shu kitobda yozilgan ahdning la'natlari uning boshiga keladi, Egamiz uning nomini yer yuzidan o'chiradi.*
- 4 – *Hech kim ikki xo'jayinga xizmat qilolmaydi. U yo birini yomon ko'rib, boshqasini yaxshi ko'radi, yoki biriga bag'ishlanib, boshqasini mensimaydi. Sizlar ham Xudoga, ham boylikka birdek xizmat qila olmaysizlar.*
- 5 – Yurakni sunnat qilish degani — Xudo qalbimizdagi barcha gunohli illatlarni kesib olib tashlaydi, degani.
- 6 – Faqatgina Egamiz Xudo bizga zarur bo'lgan barcha narsani bera oladi.
- 7 – Rabbimiz bizni deb shodlanadi.
- 8 – Bizga hayot va o'lim orasida tanlov beriladi, biz hayotni tanlashimiz kerak.
- 9 – Agar xalq Xudoning qonunlariga rioya qilsa, ular yashaydilar, ko'payadilar, mulk qilib oladigan yurtda Egasi Xudo ularga baraka beradi. Bordi-yu, ular Xudoning qonunlarini bajarishmasa, halok bo'lib, yo'q bo'lib ketadilar.

## Qonunlar, 13-dars:

# Kelajakka nazar



Qonunlar 31–32-boblarda Muso o‘zi aytgan narsalarni ko‘p takrorlaydi. U aytgan gaplarni boshqacha so‘zlar bilan yetkazadi, toki tinglovchilar eski xabarni yangi usulda eshita olishlari va uni yanada to‘liqroq tushunishlari uchun. Bu oyatlarda Xudo sadoqatli, mehribon va mukammal Shoh qilib tasvirlanadi; inson zoti osonlikcha Undan yuz o‘girib ketaveradi, lekin Xudo insoniyat bilan munosabatni qayta tiklayveradi. Minnatdorchilik sifatida biz hammamiz Xudoga o‘z sevgimizni ko‘rsatishimiz va buning uchun Uning So‘ziga rioya qilishimiz zarur.

## Xudo biz bilan

**Qonunlar 31:1–8**ni o‘qing.

Ushbu boblarda Muso xalqni o‘zi ular bilan bo‘lmaydigan vaqtga tayyorlamoqda.

Muso xalqni va‘da qilingan yurtga, Iordanning narigi tomoniga boshlab bormaydi. Muso xalqqa nima deb aytdi (Qonunlar 31:3)? [1]

Ularning yangi yo‘lboshchisi Yoshua bo‘lsa-da, aslida ularning haqiqiy Shohi va g‘olib Jangchisi Xudoning O‘zi edi.

Muso Yoshuaga nima deb aytdi (8-oyat)? [2]

Bu dalda beruvchi so‘zlarni Muso Yoshuaga yana bir bor takrorlab aytdi (Yoshua 1:5), so‘ng Muqaddas Kitob Muallifi bu so‘zlarni Yangi Ahdda bizga qaratib aytdi (Matto 28:20, Ibroniylarga 13:5). Bizning yetakchilarimiz va o‘qituvchilarimiz bizni tashlab ketishlari mumkin, lekin Xudo hech qachon bizni tashlab ketmaydi, bizni tark etmaydi!

## 1-Chaqiriq

Siz Musoning «*Xudo seni tashlab ketmaydi, tark etmaydi*» degan so'zlarini qaysi vaziyatlarda o'zingizga eslatishingiz kerak (Qonunlar 31:8)?

Agar ishxonangizda, oilangizda yoki siz istiqomat qilgan joyda katta muammolarga yoki o'zgarishlarga duch kelsangiz, albatta bu so'zlarni eslang. Agar siz Rabbimizni sevib, Unga itoat qilishga harakat qilsangiz, bilingki, U hech qachon sizni tashlab ketmaydi, tark etmaydi!

Siz bularga shubha qilgan vaqtlaringiz bo'lganmi?

## Hamma Xudodan qo'rqishni o'rganishi kerak

**Qonunlar 31:9–13**ni o'qing.

Muso Isroil xalqiga, Xudoning qonunlarini o'rganinglar, deb uqtiradi.

Kim Xudoning qonunlarini eshitishi va ularni o'rganishi kerak edi (12–13-oyatlar)? [3]

Muso payg'ambar Xudoning hamma qonunlarini yozib, ularni xalqning ruhoniylari va oqsoqollariga berdi. Xudo Kalomining yozma nusxasi faqat ularda bor edi. Ularning vazifasi Xudoning So'zini butun xalqqa, shuningdek, ayol va bolalarga o'rgatish edi. Hozirgi kunda masihiylarning hammasi Muqaddas Kitobni o'zlari o'qiy oladilar, buning uchun ular kitobdan yoki telefondagi ilovadan foydalanadilar. Afsuski, ayrim hollarda masihiylar Xudoning so'zini farzandlariga o'rgatmaydilar. Bolalar yoshligidan Xudoning so'zini o'rganishlari juda muhim.

## 2-Chaqiriq

Ota-ona har kuni farzandlari bilan birga Xudoning so'zini o'qishni odat qilishlari kerak. Jamoat yig'ilishlarida Muqaddas Kitob bolalarga tushunarli tarzda yetkazilishi shart. Shunda ular ham Xudoning So'zini sevishni o'rganadilar.

Siz Muqaddas Kitobni o'qishni oilangiz va jamoatingizda odat qilganmisiz? Farzandlaringiz Muqaddas Kitobni seva olishlari uchun siz yana nima qila olasiz?

## Xudo Uni tez unutishimizni biladi

**Qonunlar 31:14–29**ni o'qing.

Xudo O'z xalqini qullikdan ozod qilgan, ularga g'amxo'rlik qilgan, mo'l yurtga olib kelgan bo'lsa-da, xalq Xudoni tezda unutib yuborishini Muso bilardi (15–29-oyatlar).

...*yuzimni o'giraman...* (17–18): Xudoning bizdan yuz o'girishi — hayotimizda ro'y berishi mumkin bo'lgan eng dahshatli hodisadir. Sahroda kitobida oliy ruhoniylar xalqni duo qiladi, bu duoda Xudoning yuzi haqida nimalar yozilgan (Sahroda 6:24–26)? [4]

Yangi Ahdda Isoning izdoshlariga go'zal bir va'da berilgan: «Ular Xudoning jamolini ko'radi. Xudoning ismi ularning peshanalariga yoziladi» (Vahiy 22:4)!

Xudo O'z xalqidan voz kechmagani naqadar ajoyib! Biz Unga qancha muammo va og'riq keltirsak ham, U doim bag'rini ochib bizni kutib oladi. Xushxabar haqiqatan ham ezgu Xabardir!

### 3-Chaqiriq

Biz Xudoga ko'p bevafoqlik qilamiz. Siz har kuni Xudodan, gunohimni menga ko'rsat, deb so'raysizmi? Siz har kuni Xudodan yuragingizni Masihning qoni bilan poklashini so'raysizmi?

Biz hayotimizdagi gunohga yengillik bilan qarashimiz kerak emas! Chunki bir gunoh ketidan boshqasi ergashib keladi. Biz har kuni gunohlarimizdan tavba qilishimiz lozim, aks holda, gunoh qalbimizda ildiz otib, bizni Xudodan uzoqlashtirib yuboradi.

### Musoning qo'shig'i

32-bobda Muso Isroil xalqiga o'rgatgan qo'shiq yozilgan. Bu qo'shiq g'am-qayg'u qo'shig'idir. U yerda Xudoning O'z xalqini rad etgani haqida yozilgan. Muso bu qo'shiqni keyingi avlodga o'rgatmoqda, ular ota-bobolari kabi Xudoga bevafoqlik qilmasliklari uchun bu qo'shiqdan saboq olishlari kerak edi (Qonunlar 31:19).



### 4-Chaqiriq

Qo'shiqlar bizga muhim haqiqatni eslatib turadi. Ular qalbimiz va ongimizga uzoq vaqtga muhrlanib qoladi. Shunday ekan, biz jamoatlarda aytayotgan qo'shiqlarimizni mazmuniga qarab tanlashimiz kerak, ular Muqaddas Kitob haqiqatiga mos kelishi shart. Jamoatingizda qo'shiqlarning mazmunini tekshiradigan odamlaringiz bormi?

**Qonunlar 32-bobni** o'qing. U yerda Xudo va Uning xalqi haqida nimalar yozilgan?

Muso Isroil xalqiga Xudo haqidagi muhim haqiqatni o'rgatmoqda.

- **Biz bu bobdan Xudo haqida nimalarni bilib oldik (32:4,6,10–14,16,18–19,21)?** [5]
- **Biz bu bobdan Xudoning xalqi haqida nimalarni bilib oldik (32:9–10)?** [6]

**Ulush/nasiba** (9-oyat): Xudoning xalqi Egamizga tegishli. Bir kun kelib Xudo va Uning xalqi juda yaqin, mukammal munosabatdan to'ab abad bahramand bo'ladilar!

Kuyovga nikohlangan qiz bola bo'lajak eriga qarashlidir, lekin u to'ygacha kuyov bilan to'liq munosabatdan bahramand bo'la olmaydi. Vahiy kitobida Iso Masih kuyov sifatida tasvirlangan

(Vahiy 19:7). Shu singari, Qonunlar kitobida ham Xudo o'z xalqini sevgani, ularni butlardan rashk qilgani haqida yozilgan.

**Ko'z qorachig'i...** (10-oyat): ko'zning qorachig'i inson badanidagi eng zaif a'zo hisoblanib, kuchli tarzda himoya qilinadi. Xudo O'z xalqini ko'z qorachig'iday har qanday yomonlikdan asraydi!

- **15-oyatga ko'ra, Isroil xalqi qachon Xudodan yuz o'giradi (15-oyat)? [7]**

**Azizim Isroil**, ibroniychada **Yoshurun** (15-oyat): ya'ni Isroilning ibroniycha shakli bo'lib, «to'g'ri» degan ma'noni beradi (Ishayo 44:2). Afsuski, aksariyat hollarda Isroil o'z ismiga munosib ish tutmadi.

**Isroilning dushmanlari uzum tokiga o'xshar, Sado'm va G'amo'ra dalalarida o'sar, uzumzorlarining mevasi zaharli, uzumlari og'u singari achchiqdir** (32-oyat): Sado'm va G'amo'ra boy-badavlat shaharlar bo'lib, Xudo ularni batamom yo'q qilgan edi (Ibtido 19-bob). Agar Isroil xalqi Xudoga va Uning ezgu qonunlariga qarshi bosh ko'tarversa, ular ham Sado'm va G'amo'ra holiga tushib qolishlari mumkin.

- **Xalq sajda qilgan soxta xudolar haqida biz nimalarni bilib oldik (17,21-oyatlar)? [8]**

Soxta xudolarning qo'lidan hech narsa kelmaydi, ular mo'jizalar ko'rsata olmaydi, najot bera olmaydi.

**Odamlar jinlarga qurbonliklar keltiradi** (17-oyat): Har bir odam kimgadir yoki nimagadir sajda qiladi. Soxta xudolarga sajda qilish ortida shayton turganini odamlar tushunmaydi. Shayton odamlarni Xudodan uzoqlashtirib, o'ziga sajda qildirmoqchi bo'ladi.

- **O'zidan yuz o'girgan xalqni Xudo nima qiladi (Qonunlar 32:20–23)? [9]**

**Men ham xalq bo'lmaganlar bilan ularning rashkini keltiraman,...** (21-oyat): havoriy Pavlus Rimliklarga yozgan maktubida bu oyatni iqtibos qilib (Rimliklarga 10:19), nima sababdan Xudo Isroil xalqini rad etganini va g'ayriyahudiylarga najot eshigini ochib berganini tushuntirib berdi. Isroil xalqi soxta xudolarga sajda qilib, Xudoning rashkini keltirgandi. Shu sababdan Xudo ham g'ayriyahudiylarga najot berib, Isroil xalqining rashkini keltirdi (Rimliklarga 11:11,14-oyatlar).

**Ularga kulfat ketidan kulfat keltiraman,...** (23-oyat): Xudo xalq boshiga kuchli jazo soldi. Agar Xudo bunday yo'l tutmaganida edi, odamlar imondan umuman yuz o'girib ketishgan bo'lardi. Ibrohimga berilgan va'da ham amalga oshmagan bo'lardi. Xudo haqidagi haqiqat, Uning ahdi, qonun-qoidalari benuqson saqlanishi, xalq bularning hammasiga rioya qilishi va Rabbimiz Iso Masihning qaytib kelguniga qadar Xudoga sodiq qolishi kerak edi (Yuhanno 3:16).

- **Bu parchada Isroil xalqi qanday tasvirlangan (28-oyat)? [10]**

Xudo Isroil xalqiga qiyinchiliklar orqali saboq berayotganini xalq tushunmagan edi. Eski Ahd davrida bu doimiy muammo bo'lgani sababli payg'ambarlar xalqni «qo'y», deb ataganlar (misol uchun, Ishayo 53:6, Yeremiyo 50:6); qo'ylarni aqlli jonivorlar deb bo'lmaydi, ular ko'pincha boshqalarga ergashib, qilganini qiladilar. Shunga qaramay, Iso Masih yaxshi Cho'pon bo'lgani bois, biz Unga ergashsak, ishonchli qo'llarda bo'lamiz va U bizga g'amxo'rlik qiladi (Zabur 22). Bu esa bizga eng muhim bir haqiqatni ochib beradi:

• **Xudo nima qilmoqchi (39–43-oyatlar)?** [11]

Xudoning xalqi kuchdan qolganda (36-oyat), Xudo kelib ularni O'zi qutqaradi, ularning dushmanlarini mag'lub qilib, qasos oladi (41–42-oyatlar).

**Xudo... yurtini va xalqni gunohdan poklaydi...** (43-oyat): naqadar ajoyib, Xudoning O'zi xalqini va yurtini gunohdan poklaydi. Odatda bu ruhoniyning vazifasi bo'lgan, ruhoniylarning odamlarning gunohlari uchun qurbonliklar keltirardi (Levilar 6:7), lekin endi Xudoning O'zi bu ishni qiladi!

Yangi Ahddan biz bilamizki, gunoh faqat mukammal qurbonlik orqali yuviladi, Xudoning O'g'li Iso Masih biz uchun mukammal qurbonlik bo'ldi (1-Yuhanno 4:10). Biz gunohlarimizdan tavba qilib, ularni Xudo oldida ochiqchasiga e'tirof qilsak, gunohlarimiz yuviladi (1-Yuhanno 1:9).

## 5-Chaqiriq

Siz har kuni Xudoning kimligini, o'zingizning kimligingizni, gunohlaringizni va Xushxabarning ajoyibligini tan olasizmi?

## Qo'shimcha ma'lumot: Xudo bizning Qoyamiz

Muso aytgan qo'shig'ida «qoya» so'zini besh marta ishlatgan (4,15,18,30,31-oyatlarda).

Ko'zingiz oldiga sahroda tik turgan katta qoyatoshni keltiring. Bu so'z Xudoning qaysi xislatlarini tasvirlamoqda? [12]



Bu so'z bizga Xudoning boshqa tomonlarini ham ochib berishi mumkin. Ba'zan qoya ozuqa manbai ham bo'lishi mumkin.

**...Toshdan chiqqan asal bilan, toshloq yerda o'sgan zaytunlarning moyi bilan boqdi** (13-oyat): yovvoyi asalarilari uyalarini tog'dagi qoyatoshlarga o'rnashtiradi. Zaytun daraxtlari esa boshqa daraxtlar o'sa olmaydigan toshloq yerda o'sadi.

Uyni qum ustiga qurgandan ko'ra, tosh ustiga qurgan yaxshiroq. Iso Masih bu mavzuda masal aytgan edi (Matto 7:24–27).

«Qoya» so'zi Xudoning barqarorligini, ishonchliligini va ta'minot manbai ekanini bildiradi. Boshqa xudolar esa behudadir: ular himoya qila olmaydi, yordam bera olmaydi, g'amxo'rlik qila olmaydi. Ular biz uchun barqaror asos bo'la olmaydi, ular zamirida hayotni qurib bo'lmaydi. Agar biz hayotimizni soxta xudolar e'tiqodi ustiga qursak, umrimiz barbod bo'ladi (Matto 7:27).

## Xudo bu dars orqali sizga nima deb aytdi?

## Beshta chaqiriqning qaysi biri uchun siz bugunoq ibodat qilishingiz kerak?

### Uyga vazifa

Qonunlar 33–34-boblarni o'qing.

## Javoblar

- 1 – *Sizlar Egangiz Xudoning boshchiligida Iordanning narigi tomoniga o'tasizlar. Egangiz u yerda yashaydigan xalqlarni yo'q qiladi.*
- 2 – *Egamizning O'zi sening oldingda boradi, Uning O'zi sen bilan birga bo'ladi, seni tashlab ketmaydi, tark etmaydi. Qo'rqma, vahimaga tushma.*
- 3 – *Xudoning qonunini erkagu ayol, bola-chaqa, musofirlar, butun xalq o'rganishi shart edi.*
- 4 – *Egam senga ochiq yuz bilan boqsin, senga iltifot qilsin. Egam senga nazarini solsin, syenga tinchlik ato etsin!*
- 5 – *Xudo suyangan Qoyam, Uning ishlari komil, hamma yo'llari adolatlidir. Xudo sadoqatlidir, Unda yolg'on yo'q, U haq va odildir (4-oyat). Xudo yaratgan Ota (6-oyat), ularni topib olgan, ularga g'amxo'rlik qilgan (10-oyat); U burgut kabi xalqini qanotlari ustida olib yurdi (11-oyat); xalqini a'lo nematlar bilan boqdi (13–14); ularga ota va ona kabi hayot berdi (18-oyat); Xudo xalqini qattiq rashk qiladigan sevgiga boy Xudodir (16,19,21).*
- 6 – *Egamizning ulushi...olgan nasibasi...qo'z qorachig'i.*
- 7 – *Xalq boy-badavlat bo'lgani sari, Xudoga hech qanday ehtiyoj sezmay qoladi. Ular o'zlarini yaratgan Xudoni esdan chiqaradilar, Uning sevgisini unutadilar, Xudo ularni qutqarganini, boylikni ularga aynan Xudo berganini tan olmaydilar: «Ular yaratgan Xudodan yuz o'girib, o'z Najot Qoyasini xor qildilar».*
- 8 – *Bu xudolar foydasiz, ular yaqinda paydo bo'lgan.*
- 9 – *Xudo ulardan yuzini o'giradi,... xalq bo'lmaganlar bilan ularning rashkini keltiradi,...ularga kulfat ketidan kulfat keltiradi.*
- 10 – *Isroil aqlini yo'qotgan, idroksiz xalqdir.*
- 11 – *Xudo O'z xalqini hayotga qaytaradi, ularga shifo beradi, dushmanlaridan qasos oladi, yurti va xalqini gunohdan poklaydi.*
- 12 – *U bo'ron paytida panoh, jazirama paytida soyadir.*

Qonunlar, 14-dars:

# So'nggi ogohlantirishlar va dalda so'zlari



Qonunlar 33–34-boblarida biz Musoning so'nggi ogohlantirishlarini va dalda so'zlarini o'qiydiz. Siz dasturimizning oxirgi darsini o'qir ekansiz, Xudo sizga ogohlantirish va dalda so'zlari orqali nima deb aytmoqchi ekaniga e'tibor qarating.

33-bobda Muso Isroilning 12 qabilasini duo qiladi. Bu bob bizga Yoqubning duosini eslatadi, u 500 yil oldin o'lim to'shagida yotganida 12 o'g'lini duo qilgan edi (Ibtido 49:1–27). Muso qabilalarni duo qilarkan, ularga Xudoning sodiqligini va 500 yil davomidagi g'amxo'rligini eslatdi! Xalq Musosiz Jordan daryosini kechib, Xudoning boshchiligida va'da qilingan yurtga kirishi kerak edi. Xudo O'z xalqiga sodiq qoldi.

O'tgan 40 yil davomida Muso Isroil qabilalari bilan do'stlashib ketgandi. Mana endi, Musoning xalqqa eng muhim narsalarni o'rgatishi uchun oxirgi imkoniyati bor. Va'da qilingan yurtda xalq boy va farovon hayot kechiradi, lekin farovonlik bilan birga ruhiy inqiroz va xatar keladi. Shu sababdan Muso yaxshi cho'pon kabi xalqni ogohlantiradi va ularga dalda beradi.

## Muso 12 qabilani duo qiladi

**Qonunlar 33-bobni** o'qing. Lekin o'zingiz bilmagan ism va nomlarni uchratganingizda ruhingiz cho'kmasin. O'zingizni o'sha yerda, Musoning so'nggi so'zlarini tinglayotgan xalq orasida tasavvur qiling. Musoning nutqidan sizga kuchli ta'sir qilgan so'zlar va oyatlarga alohida e'tibor qarating. Bobni o'qib bo'lganingizdan keyin bular haqida guruhingiz bilan o'rtoqlashing.

Muso Isroil xalqiga quyidagilarni eslatmoqda:

- Xudo xalqi Isroilni Misrdan ozod qilish uchun va ular bilan ahd tuzish uchun yuksakdan pastga tushib keldi (1–5-oyatlar). Yangi Ahd davrida esa Iso Masih samoviy shohligini qoldirib, bizning oramizga keldi, inson bo'lib yashadi (Yuhanno 1:14).
- Muammo va ziddiyat hayotimizning ajralmas bir qismidir (7, 11, 20, 22-oyatlar).
- Yetakchilar Xudoga ergashib, o'zlari boshqalar uchun namuna bo'lishlari darkor (8–10-oyatlar).

- Xudo O'z xalqini himoya qiladi va ularga g'amxo'rlik ko'rsatadi (12-oyat).
- Ruhiy baraka va hosildorlik qiyinchiliklar natijasidayuzaga keladi — Yusuf ko'p yillar davomida qul bo'ldi, zindonda yotdi, shundan so'nggina serob barakaga erishdi (13–17-oyatlar).
- Xudoning xalqi xursand va shod bo'ladi (18-oyat).
- Xudoning xalqi boshqalarni Xudoga sajda qilishga chaqiradi (19-oyat).
- Xudoning irodasini barjarganlar mukofot oladilar — Gad qabilasi o'z ulushini olib bo'lgan bo'lsa ham, qolgan xalq bilan birga Kan'on yurtiga bordi, yurtni qo'lga kiritishga birodarlariga yordam berdi, ular uchun jang qildi (20–21-oyatlar).
- Xudo O'z xalqiga yordam beradi (23–29-oyatlar).
- Xudo qudratli, salobatli Shohdir, U xalqini O'z panohida xavf-xatarsiz saqlaydi (26–29-oyatlar).

Siz bugun o'zingizga bu haqiqatlarning qaysi birini eslatishingiz kerak?

**Azizim Isroil**, ibroniychada **Yoshurun** (5,26-oyatlar): 13-darsimizda o'rganganimizday «Isroil» so'zi «to'g'ri» degan ma'noni bildiradi.

## 1-Chaqiriq

Siz har kuni Xudoni qilgan mo'jizalari va g'amxo'rligi uchun ulug'laysizmi? Agar har kuni Xudoni ulug'lamasangiz, u holda qanday qilib buni kundalik odatga aylantirishingiz mumkin?

## Musoning o'limi

**Qonunlar 34-bobni** o'qing.

Muso o'lishidan oldin nima qildi (1–4-oyatlar)? [1]

**U yerdan Musoga Egamiz butun o'lkani ko'rsatdi...** (1-oyat): Isroil xalqi uchun yurtni ko'rish, uni qo'lga kiritish jarayonining ajralmas bir qismi edi. Ibrohim Kan'on yurtiga ko'chib borganida, Xudo unga butun yurtni ko'rsatdi (Ibtido 13:14–15). Shayton Isoga olamning barcha shohliklarini ko'rsatib, o'ziga sajda qilishga ko'ndirmoqchi edi (Matto 4:8). Iso Masih buyuk ziyofat haqidagi matalni aytib berganida, ziyofatga kelmagan bir odamni tilga olgan edi; u odam dala sotib olib, uni ko'rgani ketgan ekan (Luqo 14:18). Muso uchun va'da qilingan yurtni ko'rish katta bir sharaf edi, chunki bu harakat orqali u ruhiy olamda bu yurtni Isroilning ulushi deb e'lon qilayotgan edi.



Qachon Muso va'da qilingan yurtga kirish sharafiga muvaffaq bo'ldi (Matto 17:1–3)? [2]

Biz ham Muso singari hozir yangi Quddusga kira olmaymiz, lekin uni uzoqdan ko'rishimiz mumkin. Ibroniylar maktubi 11-bob, 13-oyatda shunday yozilgan: *Ibrohim, Is'hoq va Yoqub olamdan o'tdilar, ammo Xudo bergan va'dasini bajarishiga ular ishonardilar. Ular Xudo va'da qilgan yurtga erishmadilar, ammo*

*o'sha yurtni uzoqdan ko'rib, xursand bo'lgan edilar. Ular bu dunyoda kelgindi va musofir ekanliklarini ochiqchasiga tan oldilar.*

Havoriy Butrus ham shunday deb yozgan: *Rabbimiz Iso Masihning Otasi Xudoga hamdu sanolar bo'lsin! U bizga behad rahm-shafqat ko'rsatib, yangi hayot berdi. Iso Masih o'likdan tirilib, barhayot bo'lgani uchun endi bizning umidimiz bor. Shu bois Xudo O'z xalqiga atagan qut-barakaga biz ko'z tikkanmiz. Ha, samoda saqlanayotgan bu abadiy, so'lmas, beg'ubor baraka sizlarni kutmoqda. Oxirzamonda oshkora bo'ladigan najotdan bahramand bo'lishingiz uchun Xudo O'z qudrati bilan sizlarni omon saqlaydi. Imoningiz tufayli U sizlarni qo'riqlaydi (1-Butrus 1:3–5).*

Biz Xudoning farzandlari bo'lganimiz uchun merosxo'rlarmiz (Yuhanno 1:12), biroq biz bu dunyoda yashar ekanmiz, vakolatlarimizdan to'liqligicha foydalana olmaymiz. Yangi Quddusga borganimizdan keyingina gunohsiz hayotdan, mukammal munosabatlardan, to'liq sog'liqdan va cheksiz mo'l-ko'lchilikdan bahramand bo'lamiz!

Muso va'da qilingan yurtni uzoqdan turib ko'rdi, bu bizning vaziyatimizga qay tomonlari bilan o'xshash? [3]

Biz nazarimizni va'da qilingan abadiy yurtidan uzmasligimiz uchun nima qilishimiz kerak? [4]

**...Xudoning quli...** (Qonunlar 34:4): havoriylar ham o'zlarini Iso Masihning quliman, deb atashgan (Misol uchun, Rimliklarga 1:1, Yoqub 1:1, 2-Butrus 1:1 ga qarang). Har bir imonli odam Xudoning quli bo'lishi shart. Biz har doim Rabbimizga ulug'vorlik va sharaf keltirish yo'llari haqida o'ylashimiz kerak. O'z manfaatimizni emas, balki Rabbimizning manfaatini ko'zlashimiz darkor.

Xudo qulining vazifasi nima? [5]

## **Qo'shimcha ma'lumot: Xudoning quli**

Ishayo kitobida «Xudoning quli» muhim bir iboradir. Kitobning to'rtta parchasida Ishayo payg'ambar Xudoning quli haqida so'z yuritadi. Xudoning quli tufayligina Isroil xalqi Xudoga qayta oldi. Zotan, Xudoning quli xalqning gunohlarini yuvish uchun O'z jonini fido qildi (Ishayo 53:5–6).

\*Ishayo 42:1–9; 49:1–12; 50:4–9; 52:13–53:12

**...Muso dafn qilingan joyni hozirgacha hech kim bilmaydi...** (Qonunlar 34:6): Isroil xalqi noto'g'ri ishlar qilishini Xudo juda yaxshi bilardi. Agar odamlar Musoning qabri qayerdaligini bilganlarida edi, o'sha joyni ziyoratgoh va sajdagohga aylantirib yuborishgan bo'lardi. Aynan mana shu sabab tufayli ham Xudo Musoga va'da qilingan yurtga kirishga izn bermagan bo'lishi mumkin. Odamlar Musoning qabriga borib, sajda qilmasliklari uchun, u joyni qadamjo va butxonaga aylantirmasliklari uchun, Xudo Musoning mayitini O'zi dafn qilgan va u dafn qilingan joyni hammadan sir saqlagan.

**...Egamiz Muso bilan yuzma-yuz gaplashar edi...** (Qonunlar 34:10): har bir masihiy odam, ayniqsa, yetakchi, har kuni Xudo bilan vaqt o'tkazishi juda muhim, chunki shundagina u hayotning mashaqqatlarini yengib o'ta oladi. Xudoning xizmatida bo'lgan yetakchilar har kuni Xudo bilan vaqt o'tkazib, ibodat qilishsagina, o'z xizmatlarida muvaffaqiyatga erishadilar.

## 2-Chaqiriq

Siz har kuni Xudo bilan vaqt o'tkazasizmi? Agar javobingiz «yo'q» bo'lsa, u holda o'zingizdan, har kuni necha soat vaqtimni internet va televizor ko'rishga sarflayman, deb so'rang. Siz uchun nima muhimroq: kelgan xabarlarni o'qishmi, ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o'tkazishmi yoki Muqaddas Kitobni o'qishmi?



Xudo bilan yaqin munosabatdan bahra olishingiz uchun kun tartibingizga qanday o'zgartirishlar kiritishingiz kerak?

**Muso butun Isroil xalqi oldida buyuk qudratu haybatli ishlarni namoyon qilgandi** (Qonunlar 34:12): Qonunlar kitobi Muso payg'ambarning so'zlagan nutqidan tashkil topgan. Keyinchalik muharrir Musoning nutqini kitob shakliga solgan. Shu sababdan kitobda «Men dedim»ning o'rniga «Muso dedi», deb yozilgan. Shu bilan birga kitobning oxirgi bobida biz Musoning o'limi haqida o'qiymiz. Muharrir Musodan ancha keyin yashagan. Xudo Musoni nutq so'zlashga qay darajada ruhlantirgan bo'lsa, nutqni kitob shakliga solgan muharrirni ham shu darajada ruhlantirgan. Muharrir Isroil xalqining tarixiga nazar solar ekan, juda ko'p payg'ambarlarning hayotini ko'rgan. Lekin ularning birontasi ham Musochalik buyuk bo'lmagan.

Nega Muso Xudoning buyuk quli bo'lgan? Muso nima deb ibodat qilgan (Chiqish 33:13)? [6]

Muso hayoti davomida uchta narsaga intilardi:

- Xudoning yo'llarini bilishga,
- Xudoning O'zini bilishga,
- Xudoni mamnun qilishga.

Siz-chi? Siz o'z hayotingizda nimalarga intilasiz, sizning istaklaringiz Musonikidan farq qiladimi?

## 3-Chaqiriq

Siz nimalarga intilasiz?

Bu istaklaringizning natijasi nima?

Iso Masih kabi Xudoning quli bo'la olishingiz uchun siz hayotingizga qanday o'zgarishlar kiritishingiz kerak?

Muso Xudoning xalqini qullikdan olib chiqib, ularni va'da qilingan yurtning bo'sag'asiga olib keldi. Biroq, u bular bilan cheklanib qolmadi, balki Xudoning aytgan hamma so'zlarini kitob qilib yozib qoldirdi. Mana, uch ming besh yuz yildirki, odamlar uning bu so'zlarini o'qib kelmoqda!

Birinchi beshta kitobda, ya'ni Tavrotida yozilgan so'zlar Muso payg'ambarga tegishli. Xudoning ilohiy ilhomi ta'sirida aytilgan Musoning bu so'zlari bizga Xudoning Kimligini, Uning ilohiy tabiatini ochib beradi.

Isroil xalqining itoatsizligi va isyonkorligiga qaramay, Xudo sodiq bo'lib qolaverdi. Hozir ham Xudo O'z rejalarini amalga oshirish maqsadida Isroil xalqiga sadoqatini ko'rsatmoqda, Uning rejaları esa quyidagicha:

- Xudoning xalqi muqaddas bo'ladi (Vahiy 20:6),
- Uning xalqi turli xil xalq, qabila, elatu millatlarga mansub bo'ladi (Vahiy 7:9),
- Ular va'da qilingan abadiy yurtida bexatar yashaydilar, tinchlik va farovonlikdan bahramand bo'ladilar (Vahiy 22:1-5),
- Shohlarning Shohi ularga mehr bilan hukmronlik qiladi (Vahiy 19:16).

## 4-Chaqiriq

Xudoning rejasi — har bir millat, xalq va qabiladan odamlarni O'z xalqiga qo'shishdir. Siz bu ilohiy rejani amalga oshirishda Xudo bilan hamkorlik qilyapsizmi?



### Bugun Xudo ushbu dars orqali sizga nima dedi?

## Javoblar

- 1 – Muso payg'ambar va'da qilingan yurtni ko'rish uchun Navo tog'ining cho'qqisiga chiqdi.
- 2 – Iso Masih toqqa chiqib, Butrus, Yoqub va Yuhanningning oldida qiyofasi o'zgarganida Muso ularga zohir bo'ldi. Bu joy va'da qilingan yurt ichida edi.
- 3 – Biz Muso kabi va'da qilingan yurtga uzoqdan qarab turibmiz, lekin unga kira olmayapmiz. Biz merosxo'rlarmiz, biroq bu dunyoda yashar ekanmiz, merosxo'rlik vakolatlarimizdan to'liq foydalana olmaymiz.
- 4 – Biz Muqaddas Kitobni doimiy tarzda o'qisak, har doim boshqa masihiylar bilan muloqot qilib tursak, ko'zimizni Xudo va'da qilgan abadiy maskanga tika olamiz.
- 5 – Qulning vazifasi xo'jayiniga itoat qilish va uni mamnun qilish.
- 6 – *Agar men Sendan marhamat topgan bo'lsam, iltijo qilaman: menga yo'llaringni ko'rsatgin. Sendan marhamat topib yurishim uchun Seni bilayin. Bu xalq O'zingning xalqing ekanini yodingda tutgin.*



# **TABRIKLAYMIZ!**

## **Siz Qonunlar kitobiga asoslangan dasturni tugatdingiz!**

Biz bu kitobdan Xudo haqida yana juda ko'p narsalarni o'rganishimiz mumkin — bu kitobda bayon qilingan haqiqat Muqaddas Kitobning boshqa bitiklarida ham o'z aksini topgan. Ushbu dastur sizga Muqaddas Kitobni sevib o'qishingizga va Rabbimizga mehr bog'lashingizga yordam beradi!

**Siz bu dastur haqida yana kimlarga aytgan bo'lardingiz?**



# Mundarija

<b>Qonunlar, 1-dars:</b>	Paygʻambar va Xudoning vaʼdasi . . . . .	5
<b>Qonunlar, 2-dars:</b>	Yoʻlboshchilar va izdoshlar . . . . .	14
<b>Qonunlar, 3-dars:</b>	Birlik va yangi yetakchilar . . . . .	22
<b>Qonunlar, 4-dars:</b>	Hayotni tanlang! . . . . .	28
<b>Qonunlar, 5-dars:</b>	Hukm va rahm-shafqat . . . . .	34
<b>Qonunlar, 6-dars:</b>	Oʻnta amr (1-qism) . . . . .	41
<b>Qonunlar, 7-dars:</b>	Oʻnta amr (2-qism) . . . . .	48
<b>Qonunlar, 8-dars:</b>	Egangiz Xudoni seving. . . . .	56
<b>Qonunlar, 9-dars:</b>	Vaʼda qilingan yurtni qoʻlga kiritish . . . . .	63
<b>Qonunlar, 10-dars:</b>	Xudoning qonuni . . . . .	72
<b>Qonunlar, 11-dars:</b>	Barakalar va laʼnatlar . . . . .	80
<b>Qonunlar, 12-dars:</b>	Ahdning yangilanishi . . . . .	87
<b>Qonunlar, 13-dars:</b>	Kelajakka nazar . . . . .	93
<b>Qonunlar, 14-dars:</b>	Soʻnggi ogohlantirishlar va dalda soʻzlari . . . . .	99



O'n turt darsdan iborat bo'lgan ushbu qo'llanma sizni ajoyib bir kitob — Qonunlar kitobi bilan tanishtiradi. Eski va Yangi Ahdlarni tushunishda Qonunlar kitobi poydevor vazifasini bajaradi. Zotan, bu kitobdagi xabar nafaqat Eski Ahd davrida yashagan Isroil xalqiga, balki bugungi hamma zamondoshlarimizga ham birday taalluqlidir. Bu qo'llanma O'rta Osiyoda istiqomat qilayotgan masihiylar uchun kichik guruhlarda o'rganish maqsadida maxsus yaratilgan. Har bir darsning tarkibiga ko'plab savollar kiritilgan, o'sha savollarga javoblar esa har bir darsning oxirida berilgan. Siz ushbu qo'llanmadan foydalanar ekansiz, muruvvatli Xudoyimizni yanada yaqinroq tanib-bilishingizga tilakdoshmiz, axir U hammamiz uchun buyuk ishlar qilgan!